

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo`lyozma huquqida

XO`JAMQULOV ANVAR JOZILOVICH

“NOMA JANRI XUSUSIYATLARI”

5A220101 – Adabiyotshunoslik (O`zbek adabiyotshunosligi) mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya

**Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori,
professor Sh.A.Hasanov**

Samarqand – 2013

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

XO`JAMQULOV ANVAR JOZILOVICH

NOMA JANRI XUSUSIYATLARI

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya

Ilmiy rahbar

filologiya fanlar doktori,

professor Sh.Hasanov

Rasmiy taqrizchi

filologiya fanlar nomzodi,

dotsent T.Jo`rayev

Magistrlik dissertatsiyasi Hozirgi zamon o`zbek adabiyoti kafedrasining 2013-yil
___-maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAK himoyasiga tavsiya etilgan
(___-sonli bayonnomasi)

Kafedra mudiri:

dots. A.Nosirov

Magistrlik dissertatsiyasi YaDAK ning 2013-yil ___-iyunidagi yig`ilishida himoya
qilingan va _____ ball bilan baholangan. (Bayonnomasi № _____)

YaDAK raisi

A`zolari :

Samarqand – 2013

HOZIRGI O`ZBEK TILIDA GRAMMATIK ANTONIMIYA

REJA:

Ishning umumiy tavsifi. (Mavzuning dolzarbligi, o`rganilgan darajasi, ilmiy yangiligi, obyekti va predmeti, metodologik asosi, metodlari, himoyaga olib chiqiladigan holatlar, tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati va boshqalar.)

I BOB. O`zbek tilida antonimlarni o`rganish tarixidan.

1-§. Leksikografik manbalarda antonimlarning ta`rifi.

2-§. Antonimik munosabatni aniqlash va mantiqiy markaz tushunchasi.

3-§. Umum ta`lim maktablari "Ona tili" darsliklari, oliy ta`lim darslik hamda qo`llanmalarida antonimlar talqini.

Bob bo`yicha xulosa.

II BOB. Hozirgi o`zbek tilida grammatik antonimiya.

2.1.§. Ziddiyat nazariy tadqiqot obyekti sifatida.

2.2.§. Morfologik antonimiya.

2.3.§. Sintaktik antonimiya.

III BOB. So`z turkumlari sathida antonimiya.

3.1. Ot guruhida grammatik antonimiya.

3.2. Belgi bildiruvchi so`zlarda grammatik antonimiya.

3.3. Harakat bildiruvchi so`zlarda grammatik antonimiya.

Bob bo`yicha xulosa.

Umumiy xulosa.

Foydalaniladigan adabiyotlar.

Ishning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. Xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy-ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi azaliy orzu bo'lgan istiqlool bilan bog'liq. Taraqqiyotimiz omili bo'lgan ilm-fan sohasida keyingi yillarda jiddiy ijobiy o'zgarishlar bo'layotganligini alohida ta'kidlamoqchimiz. Ayniqsa, ma'naviyatimiz ko'zgusi bo'lgan o'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi, ijtimoiy faoliyatning barcha sohalarida, mamlakatimiz ichki hayotida va turli xalqaro aloqalarda, ta'lim tizimining hamma bo'g'inlarida ona tilimiz rolining kuchayishi quvonchli hol bo'lib, bu borada bo'layotgan o'zgarishlar, qo'lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlar bevosita Yurtboshimiz I.A.Karimov tashabbusi va sa'y-harakatlari bilan bog'liqdir. Yurtimizning kelgusida eng rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishi ta'lim tizimini isloh qilish, mustaqillik g'oyalarini yoshlar ongiga singdirish, avvalo, tilimiz rivojiga alohida e'tibor berishni, uning qo'llanish doirasini, vazifaviy-uslubiy imkoniyatlarini yanada kengaytirishni taqozo qiladi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov bu haqda shunday fikrlarni bildirgan edi: "Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikasiya va axborot texnologiyalari, bank moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasizdir".¹

Darhaqiqat, Yurtboshimizning bu borada bildirgan fikr-mulohazalari ilmiy-metodologik asos sifatida ilm-fanning barcha jabhalari qatori tilshunoslik ilmi oldiga ham hozirga qadar erishilgan yutuqlarni xolisona baholash, bugungi kun muammolarini aniq belgilab olish hamda kelajakda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni zamonaviy tilshunoslik talablari darajasida olib borish kabi vazifalarni belgilab berdi. Tilshunosligimizda bugungi kungacha o'zbek tilining tarixi, fonetik

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. Б. 87.

tizimi, shevashunoslik, lug`at tarkibi, grammatik qurilishi, mazmuniy-uslubiy xususiyatlari, lingvopoetik imkoniyatlarini tadqiq etish bo`yicha bir qator salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bugungi kunda o`zbek tilini turli nuqtai nazardan o`rganish bo`yicha ta`lim tizimining hamma bosqichlariga mo`ljallangan qator darslik va o`quv qo`llanmalari, seriyali ilmiy maqolalar to`plamlari yaratilgan, til sathlarining eng dolzarb muammolariga bag`ishlangan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yozilgan. Bular o`zbek tilshunosligining bu borada ko`zga ko`rinarli muvaffaqiyatlarga erishganligidan dalolat beradi. O`zbek tilshunosligida Sh. Rahmatullayev, E. Qilichev, A. Shomaqsudov, Sh. Shoabdurahmonov, E. Begmatov, X. Abdurahmonov, N. Mahmudov, H. Ne`matov, R. Rasulov, B. Yo`ldoshevlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda badiiy asar tilini o`rganish bilan bog`liq muammolar keng tahlil qilingan<sup>2</sup> bo`lsa, E. Qilichevning Sadriddin Ayniy asarlarida arxaizm va istorizmlarni, S. Boboyevaning Hamid Olimjon poeziyasining leksik xususiyatlarini, M. Yo`ldoshevning Cho`lponning badiiy til mahoratini, S. Boymirzayevaning Oybek prozasining lingvostilistik xususiyatlarini o`rganishga oid tadqiqotlaridan o`zbek badiiy adabiyotining bugungi rivoji, jadal taraqqiy etayotganligi ma`lum bo`ladi³. O`zbek tilshunosligida matn tahlili bilan bog`liq holda yuzaga kelgan lingvopoetikaning alohida yo`nalish sifatida paydo bo`lishi va rivojlanishida X. Doniyorov, S. Mirzayev, Q. Samadov, I. Qo`chqortoyev, X. Abduraxmonov, N. Mahmudov, I. Mirzayev, B. Umurqulov, M. Yo`ldoshev kabi olimlarning xizmatlari katta bo`ldi<sup>4</sup>. Ayniqsa, professor B. Yo`ldoshev o`zining qator

² Рахматуллаев Ш.У. Архаизм ва историзм. // Научные труды. -ТашГУ. Вып. 211, 1963. Б. 73; Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. -Тошкент: Фан, 1982. Б. 121-122; Шу муаллиф. Ўзбек тили практик стилистикаси. -Тошкент: Ўқитувчи, 1986. Б. 47; Шомақсудов А. Ўзбек тили стилистикаси. I-II қисм. -Тошкент, 1974. Б. 153; Шоабдурахмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент: Ўқитувчи, 1980 . Б. 139; Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. -Тошкент: Фан, 1981. Б. 61; Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. -Тошкент, 1985. Б. 207; Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари – систем лексикология ва тарихийлик. -Тошкент: Ўқитувчи, 1995. Б. 241.

³ Қиличев Э. Архаизми и историзмы в прозе Садриддина Айны: Автореф.дисс...канд. филол. наук. – Ташкент, 1969. Б. 133; Бобоева С. Ҳамид Олимжон поэзиясининг лексик хусусиятлари. -Тошкент: Фан, 1989. Б. 78; Ўйлошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол. фан. ном... дисс. -Тошкент, 2000. Б. 61; Боймирзаева С.У. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Филол.фан.ном... дисс. -Тошкент, 2004. Б. 75.

⁴ Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. -Тошкент: Ўзадабийнашр, 1962. Б. 94-95; Самадов Қ. Ойбекнинг тил маҳорати. -Тошкент, 1981. Б. 82; Қўчқортоев И. Бадий нутқ стилистикаси. -Тошкент, 1975. Б. 47; Умурқулов Б. Бадий адабиётда сўз. -Тошкент: Фан, 1993. Б. 55-56; Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии): Дисс... док. филол.наук. – Ташкент, 1992. Б. 164; Юлдашев М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. док... дисс. автореф. -Тошкент, 2009. Б. 83.

asarlarida badiiy asar tilining uslubiy jihatlarini hamda ijodkorning soʻz qoʻllash mahorati, yangi soʻz va iboralar yaratishdagi oʻziga xosliklarini ochib bergan.⁵

Ular alohida olingan ijodkor asarlari tili va uslubi, qoʻllanilgan lingvopoetik vositalarning oʻziga xos xususiyatlarini maxsus oʻrganib, koʻzga koʻrinarli ishlarni amalga oshirdilar.

Abdulla Qahhor hikoyalari tilining badiiyatini taʼminlovchi leksik-stilistik vositalarni aniqlash boʻyicha tadqiqot olib borgan A. Hasanov shunday fikrlarni bildiradi: "Individuallik, yagonalik yozuvchining ijod jarayonida soʻz tanlash sanʼati bilan belgilanadi. Bu oʻz oʻrnida yozuvchining lisoniy shaxsiyatini, yaʼni badiiy tafakkurini, shaxsiy idrok tarzini, qolaversa, lisoniy layoqati – lingvistik mahoratini namoyon etadi. Ayniqsa, individual uslub tushunchasi biror muallif asarlari tilini unga zamondosh ijodkor asarlari tili bilan qiyosiy tadqiq qilinganda yanada oydinlashadi. Chunki yozuvchi uslubida sanʼatkor tomonidan estetik jihatdan qoʻllangan barcha til vositalari uning badiiy tafakkuri bilan ichki bogʻliqlik asosida birlashadi.

Badiiy asar tilini oʻrganish keng qamrovli jarayon boʻlib, nafaqat adabiyotshunoslikka oid badiiy gʻoya, fikr, umumiy obrazlilik, individuallik, ijodiy mahorat, shuningdek, tilshunoslikka oid semiotika, konnotasiya, pragmatika kabi tushunchalarni umumlashtiradi, kognitiv fan sohalari bilan ham bogʻlanib, oʻzining tahlil doirasini bilish, tushunish, idrok etish, tahlil qilish, lisoniy tafakkur, lisoniy ong, lisoniy faoliyat, lisoniy shaxsiyat kabi tushunchalar bilan ham kengaytirib boradi. Ishga mana shu tarzda kompleks yondashish lingvopoetika uchun kutilgan natijalarni beradi".⁶ Haqiqatan ham tilshunoslikda til hodisalarini oʻrganish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan boʻlsa-da, tilshunosligimizda hali oʻz yechimini topmagan muammolar talaygina.

Ana shunday muammolardan biri hozirgi oʻzbek tilida grammatik antonimiya masalasi boʻlib, tilshunoslikda antonimiya hodisasining mohiyatini ochishga bagʻishlangan ayrim ishlar amalga oshirilgan. Lekin ularda grammatik antonimiya

⁵ Йўлдошев Б., Пардаев З., Бобожонов Ф. Бадий асар тили масалалари. –Навоий: Навоий ДПИ, 2001. Б. 49. Йўлдошев Б. Бадий нутқ стилистикаси. -Самарқанд: СамДУ, 1982, Б. 81. Йўлдошев Б. Ижодкор заҳмати (ёзувчи Саид Аҳмад 85 ёшда) // Тил ва адабиёт таълими, 2005, 3-сон. Б. 68-72.

⁶ Ҳасанов А.А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадийатини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол. фанлари номз...дисс. автореф. -Тошкент, 2010, Б. 8.

hodisasining morfologik sathda namoyon bo'lishi yetarlicha o'rganilmagan. Olib borilgan tadqiqotlarda, asosan, leksik antonimiya haqida fikr yuritish bilan chegaralanish kuzatiladi. Bu esa mazkur masalaga jiddiy yondashishni va tilimizda grammatik antonimlarni monografik rejada alohida tadqiqot obyekti sifatida maxsus o'rganishni taqozo qiladi. Bu holatlar tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. O'zbek tilining grammatik tizimida turli morfologik birliklar asosida shakllangan antonimlarning lisoniy tabiatini ochib berish va ularning lingvopoetik vosita sifatida matnlarda qo'llanish imkoniyatlarini tahlil etish mazkur tadqiqot ishining bosh maqsadi sanaladi. Tadqiqot ishida mazkur mavzu mohiyatini ochib berish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- o'zbek tilshunosligida antonimiya hodisasining tadqiq etilishi va bu sohadagi muammolar to'g'risida fikr-mulohazalar;
- o'zbek tilshunosligida antonimlarni o'rganish bo'yicha yaratilgan tadqiqotlar, amalga oshirilgan ishlarni tahlil etish va ularga xolisona baho berish;
- antonimlarning lingvopoetik vosita sifatida adabiy til tizimida va badiiy matnlarda tutgan o'rnini belgilash ;
- antonimlarning paydo bo'lishi va shakllanishi yo'llarini aniqlash ;
- antonimlarning so'zlovchi kommunikativ maqsadi va nutqiy vaziyatga bog'liq holda muloqot jarayonidagi roli va vazifasini belgilash;
- antonimiya va antisemiya hodisalarining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berish;
- antonimiya va antiteza hodisasining o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini ko'rsatish;
- antonimiya hodisasining ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish kabi mustaqil so'z turkumlarida yuz berishi to'g'risida fikr yuritish;
- antonimlarning so'zlovchi kommunikativ maqsadiga bog'liq holda subyektiv munosabat ifodalash vositasi sifatida ishtirok etishini badiiy matnlardan olingan misollar asosida tahlil qilish;
- to'plangan materiallarni bir tizimga solish va shu asosda antonimlarning yuzaga kelish va qo'llanish imkoniyatlari haqidagi fikrlarni umumlashtirish hamda muayyan

xulosalarga kelish.

Tadqiqotning metodologik asosi va tadqiq usullari. Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida falsafadagi shakl va mazmun dialektikasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz, xalqimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan ma'naviy merosimiz va tariximizga munosabat to'g'risidagi qarashlari hamda badiiy merosimizni zamonaviy tilshunoslik talablari asosida o'rganish tamoyillari, o'zbek lingvopoetikasi sohasidagi nazariy fikrlar metodologik asos vazifasini bajardi. Shuningdek, grammatik antonimiya hodisasining mohiyatini ochib berish jarayonida matn tilshunosligida keng qo'llanilayotgan tavsifiy, qiyosiy, semantik-stilistik izoh metodlaridan o'zni bilan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilanadi:

O'zbek tilshunosligida alohida tadqiqot obyekti sifatida ilk marotaba grammatik antonimlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qilindi;

- ilmiy tadqiqot ishida tilshunoslikda, xususan, o'zbek tilshunosligida antonimiya hodisasining lisoniy tabiatini o'rganishga bag'ishlangan ishlar tahlil etilib, ularda antonimlar va ularning turlari haqidagi fikrlarga munosabat bildirildi.

- so'zlovchi kommunikativ maqsadi va nutqiy vaziyatga bog'liq holda grammatik antonimlarning lingvopoetik imkoniyatlari namoyon bo'lishi turli matnlardan olingan misollar asosida ko'rsatib berildi;

- grammatik antonimlarning badiiy matnlarda badiiy-estetik ta'sirchanlikni ta'minlashda muhim vosita ekanligi misollar asosida tahlil etildi;

-grammatik antonimlarning paydo bo'lishi va shakllanishi sabablari aniqlandi va ularning antonimiya hodisasi doirasida qaraluvchi antiteza, antisemiya, oksyumoron kabi boshqa yondosh hodisalarga munosabati belgilandi;

-morfologik sathda yuzaga keluvchi antonimlarning ot, sifat, fe'l, ravish kabi mustaqil so'z turkumlari doirasida amal qilishi aniqlandi va ularning o'ziga xos morfologik belgilariga ko'ra tasnif qilindi hamda izohlandi;

-grammatik antonimlarning shakllanishida xizmat qiluvchi birliklar aniqlandi va izohlandi;

- olib borilgan tadqiqot natijalari umumlashtirildi va o'zbek tilida grammatik

antonimlarning lingvopoetik imkoniyatlari to'g'risida muayyan ilmiy xulosalarga kelindi.

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar.

1. Morfologik antonimlar deganda biz zid ma'noli morfemalarni, so'z turkumlariaro antonimlarni tushunamiz.
2. Sintaktik antonimlarga zid ma'noli sintaktik qoliplar (imkoniyat tarzidagi, hali nutqda qo'llanmagan sintaktik antonimlar) va shu qoliplar asosida yasalgan sintaktik qurilmalar (nutqda qo'llangan sintaktik antonimlar).
3. Sintaktik antonimlarni aniqlash mezonlari bo'lib, ular sintaktik ma'nosi, yasalishi (derevatsion) asosining umumiyligi, bir sathga mansubligi, bir xil (ma'nodosh) so'zlarning qo'llanilishi, o'zaro shartlangan ammo bir-birini inkor qiladigan vaziyatlarni ifodalash mumkinligi bilan belgilanadi. Ohang (intonatsiya) ham zid ma'noni ifodalash vositasi bo'lishi mumkin.
4. Sintaktik antonimlar oppzitsiyasi uchun pragmatik ma'nolar sinkritizmi xos, chunki mazkur ma'nolarning inkor shaklda qo'llanilishi ikkilamchi ma'nolarni – hayrat, kinoya, kesatiq, nafrat, tug'yon, ishonchsizlik kabi ma'nolarni ifodalaydi.
5. Zid manolilik matnda lisoniy birliklar aloqasini ta'minlovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.
6. Tildagi va nuqtdagi antonimiya o'ziga xos ko'rinishlarga ega. Bular: kontekstual antonimiya, implisit antonimiya, substitutsion antonimiya va parafrazalar antonimiyasi.
7. Leksimalarning o'zigina matnda faol antonimlikni ta'minlay olmaydi, yozuvchi ziddiyatni yuzaga keltirish uchun grammatik shakllarga murojat qiladi.

Tadqiqot manbalari. Nutqning turli ko'rinishlari va o'zbek badiiy matnlaridan to'plangan misollar tadqiqot olib borishda asosiy manba vazifasini o'tadi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot ishi bugungi kun nuqtai nazaridan ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Ishda erishilgan natijalardan o'zbek tilshunosligida antonimiya hodisasi, xususan, grammatik antonimlarning lingvopoetik imkoniyatlari va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bo'yicha kelgusida magistrlik dissertasiyalari, malakaviy bitiruv ishlari yozishda

foydalanish mumkin. Bundan tashqari, ishni yozish jarayonida to`plangan materiallardan o`zbek tili grammatikasi, leksikologiyasi, uslubshunosligi va lingvopoetika bo`yicha o`tiladigan amaliy mashg`ulotlarda antonimiya hodisasining mohiyatini yoritib berishda foydalanish mumkin. Ishda to`plangan materiallar va kuzatish natijalaridan leksikografik tadqiqotlar olib borishda, frazeologik lug`atlar tuzishda foydalanish mumkin bo`ladi.

**Dissertatsiyaning ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog`langanligi.** Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti o`zbek tilshunosligi kafedrası 2011-2015-yillarga mo`ljallangan “O`zbek tili grammatik birliklarining funksional – pragmatik uslubiy tahlili” bandiga asosan bajarildi.

**Ishning sinovdan o`tishi.** Tadqiqot ishi 2013 yilning 28-mayda Samarqand Davlat universiteti o`zbek tilshunosligi kafedrası yig`ilishida muhokama qilinib, tugallangan ish sifatida himoyaga tavsiya etilgan.

Ishning tuzilishi. Tadqiqot ishning umumiy tavsifi, grammatik antonimlar mohiyatini aks ettiruvchi uch asosiy bob, kuzatish natijalarini aks ettiruvchi umumiy xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib,sahifani tashkil etadi.

BIRINCHI BOB

O'zbek tilida antonimlarni o'rganish tarixidan

1.1. Leksikografik manbalarda antonimlarning ta'rif. Ma'lumki, inson jamiki mavjudotlar orasida fikrlash va uni o'z nutqi orqali ifodalash imkoniyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Uning nutqida aks etadigan tabiat va jamiyatda yuzaga keluvchi voqea-hodisalar mohiyatida dialektikadagi yakkalik-umumiylik, voqelik-imkoniyat, hodisa- mohiyat, oqibat- sabab munosabatlari yotadi. Inson voqelikdagi mavjud narsalar, predmetlar, hodisalar kabilarni o'z sezgilari orqali idrok qiladi. Ular inson ongida umumiy tarzda mavjud bo'ladi. Inson ongida aks etgan umumiylik ko'rinishidagi tushunchalar obyektiv hayotda faqat xususiylik ko'rinishida moddiy shaklda mavjuddir. Xususiylik ko'rinishidagi turli ko'rinishdagi narsa, belgi, holatlar bevosita inson faoliyati bilan bog'liq va ular insonning sezgilariga muntazam ravishda o'z ta'sirini o'tkazadi. Inson narsalar, voqea-hodisalar to'g'risidagi o'z fikrlarini tilda mavjud bo'lgan lisoniy birliklar vositasida ifodalaydi. Shuning uchun tilda qo'llanuvchi birliklar bir tomondan inson ongida mavjud bo'lgan umumiylikka asoslangan tushunchalar bilan, ikkinchi tomondan esa voqelikda mavjud bo'lgan, o'z moddiyligiga ega bo'lgan xususiylik ko'rinishidagi tushunchalar bilan bog'liq. Tilimizda qo'llanuvchi har bir birlik o'z lisoniy tabiatiga ko'ra o'ziga yaqin boshqa birliklar bilan munosabatga kirishadi hamda shakl va mazmun birligiga ega bo'lgan so'z, atama sifatida muomalaga kiritiladi. Inson fikri uning o'zi mo'ljallaganidek yuzaga chiqishi uchun uning nutqida qo'llanilgan birliklar o'zaro bog'langan, leksik-semantik va grammatik jihatdan munosabatga kirishgan bo'lishi lozim. Inson ongida umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab xarakteridagi lisoniy birliklar munosabati xususiy ko'rinishda nutqda namoyon bo'ladi. Shuning uchun inson nutqida ular ma'lum bir ma'no xususiyatini namoyon qiladi. Tilga xos bo'lgan xabar, aloqa, ta'sir etish vazifalari (V.V. Vinogradov) so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan tanlangan til birliklari vositasida yuzaga chiqadi.

Til tizimida o'zining mustaqil o'rniga ega bo'lgan so'z tilning markaziy birligi sifatida o'zining ifoda planiga va ichki qurilishiga ega. Tilimizda ma'no anglatish xususiyatiga ega bo'lgan har qanday so'z o'zining ichki qurilishi, ya'ni mazmunga

egalik xususiyatiga ko`ra ajralib turadi. Tildagi so`zlar ana shu xususiyatiga ko`ra bir-biridan farq qiladi. Tildagi mavjud birliklarning o`ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularning o`ziga xos imkoniyatlarini belgilash bo`yicha keyingi yillarda ko`zga ko`rinarli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, "Mustaqillik qo`lga kiritilishi bilan Respublikamizda ta`lim tizimini tubdan isloh qilishga jiddiy e`tibor qaratildi. "Ta`lim to`g`risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to`g`risida" qonunlarining qabul qilinishi fikrimizning dalilidir. Mustaqillik davri o`zbek tilshunosligi o`tgan asrdagi tilshunoslikdan tubdan farq qiladi. Tilshunos olim A. Nurmonov va boshqa olimlar haqli ravishda ta`kidlaganlaridek, Istiqlolga erishgunga qadar o`zbek tilshunoslari, asosan, o`zbek tilining ichki tuzilishini tavsifiy asosda o`rganish bilan cheklangan bo`lsalar, mustaqillik sharoitida ular o`zbek tili materiallari negizida umumiy tilshunoslik muammolarini hal qilish, tilshunoslik nazariyasi va lingvistik ta`limot tarixi masalalarini yoritish darajasiga ko`tarildi. Bu davr mobaynida A. Abduazizov, R. Rasulov, N. Turniyozov, Sh. Iskandarova (A. Nurmonov bilan hamkorlikda) va boshqa olimlarning tilshunoslik nazariyasiga bag`ishlangan kitoblari, shuningdek, "O`zbek tilshunosligi tarixi" nomli asarlar maydonga keldi. Faqat istiqlool tufayligina o`zbek tilshunosligi o`zining uzoq tarixiga ega ekanligi, o`zbek tilshunoslarining Yevropaning eng dongdor tilshunoslaridan ancha oldin qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, kontrastiv lingvistika, ideografik lug`atlar yaratish kabi qator yo`nalishlarga asos solganligi, hozirgi kunda leksemalar mazmuniy mundarijasini uzviy (komponent) tahlil asosida yoritish an'anaga aylangan bir paytda, bu usul XV asrlardayoq o`zbek tilshunoslari tomonidan muvaffaqiyatli qo`llanganini yoritish va ilmiy jamoatchilikka yetkazish imkoniyati paydo bo`ldi.

Eng muhimi, istiqlool davrida o`zbek tilshunosligida metodologik yakka-hokimlikdan metodologik plyuralizmga o`tildi. Buning natijasida bir obyektga turli tomondan yondashuvlar maydonga keldi. An'anaviy, struktur-semantik (formal-semantik), formal-funksional singari yo`nalishlar erkin faoliyat ko`rsata boshladi. Shuning uchun bu yo`nalishlar o`rtasida bahs-munozaralar kuchaydi. Sh. Rahmatullayev, A. Hojiyev, N. Mahmudov, H. Ne`matov singari olimlar bu bahs-munozaralarning faol ishtirokchisiga aylandilar. Buning natijasida tilshunoslikning

nazariy masalalariga tadqiqotchilar diqqat-e'tibori ko'proq jalb qilina boshladi.⁷ Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, mamlakatimiz rahbariyatining e'tibori dastlab ta'lim mazmuni va sifatini tubdan o'zgartirishga, uning samaradorligini oshirishga qaratildi. Ta'limning turli bosqichlarida yosh avlod tarbiyasida, ularga ilm berishda aqliy, ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kun tartibiga qo'yildi. Ta'lim tizimida bugungi kun talablari asosida olib borilayotgan ishlar, ilmiy tadqiqotlar o'quvchi yoshlarni ilmiy-texnikaviy bilimlar bilan qurollantirishni, tadqiqotchilarning ilmiy saviyalarini, fan yo'nalishlari bo'yicha ko'nikma va malakalarini oshirishni ko'zda tutadi.

“Yurtboshimiz mustabid tuzumdan qolgan darslik va qo'llanmalarning ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablarga javob bermasligini ta'kidlagani holda, Respublikamiz olimlari oldiga zamon talablariga javob beradigan darslik va qo'llanmalar yaratishni dolzarb vazifa qilib qo'ydi.

Mamlakatimizning yetakchi olimlari ana shu vazifani bajarishga kirishdilar. Ta'limning barcha bo'g'inlari uchun turli ijodiy guruhlar tomonidan bir necha variantda yangi tipdagi darsliklar yaratildi va o'rta umumiy ta'lim hamda o'rta maxsus ta'lim tizimlari uchun yaratilgan darsliklar tanlovida N. Mahmudov boshchiligidagi mualliflar guruhi tomonidan 5-, 6-, 7-, 9-sinflar uchun yozilgan "Ona tili" darsliklari, M. Qodirov rahbarligida yozilgan 8-sinf uchun "Ona tili" darsligi, A. Nurmonov rahbarligida akademik litseylar uchun yozilgan 3 jildli "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligi, A. Rafiyev yetakchiligidagi kasb-hunar kollejlari uchun yozilgan "O'zbek tili va adabiyoti" darsligi g'olib deb topildi va shu kungacha bir necha marta nashr etildi. Oliy ta'limning filologiya fakultetlari uchun ham Sh. Rahmatullayev, M. Mirtojiyev, H. Jamolxonov tomonidan, shuningdek, R. Sayfullayeva yetakchiligidagi mualliflar jamoasi tomonidan bir necha variantda "Hozirgi o'zbek tili" darsligi yaratildi”.⁸

Yuqorida nomlari qayd etilgan darsliklarda biz tadqiq etayotgan antonimiya

⁷ Нурмонов А., Мадвалиев А., Махкамов Н. Мустақиллик даврида ўзбек тилшунослиги тараққиёти. //

Ўзбек тили ва адабиёти, 2011, 3-сон. Б. 3.

⁸ Нурмонов А., Мадвалиев А., Махкамов Н. Мустақиллик даврида ўзбек тилшунослиги тараққиёти. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2011, 3-сон. Б. 11.

hodisasi to'g'risida ham ayrim ma'lumotlar keltirilgan. Tilshunoslikda antonimiya hodisasining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan ishlarning asosiy qismida tahlil uchun badiiy matnlardan foydalanilgan. Chunki badiiy matnlarda qarshilantirishni yuzaga keltirishda bir turkum doirasidagi birliklar bilan chegaralanib qolmay, o'zni bilan turli turkumga oid birliklarga ham murojaat qilinadi. Ayrim tadqiqotlarda bunday holatlar to'g'risida ham fikr yuritilib, ularning faqat nutqiy vaziyatda ayrim matnlarda namoyon bo'lishi ta'kidlangan.

Tilshunoslikka doir lug'atlarda antonimiya hodisasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

Antonimiya. Til birliklarining semantik jihatdan o'zaro zid, qarama-qarshi bo'lish hodisasi: Leksik antonimiya. Affiksial antonimiya. Sintaktik antonimiya.

Antonimlar. (yun. anti – qarshi, zid; onyma – nom). O'zaro zid, qarama-qarshi ma'noli til birliklari: *katta-kichik baland-past, uzoq-yaqin, yaxshi-yomon* (leksik antonimlar); *-li, -siz: qumli-qumsiz* (antonim affikslar); *esiga kelmoq-yodi-dan ko'tarilmoq, ko'ngli ochiq – ko'ngli qora* (frazologik antonimlar) va b.⁹

“Antonimlar (anti...va yun. onoma – ism, nom) – zid ma'noli til birliklari. Ularning uch turi mavjud: 1) leksik A. (*baland – past, uzun – qisqa*); 2) affiksial A. (*suvli-suvsiz*); 3) sintaktik A. (*ochiq yuz-tund bashara*)”.¹⁰

“Antonimlar (anti... + yun. onuma – nom). Qarama-qarshi, zid ma'noli til (nutq) birliklari. Masalan, *oq-qora, qattiq-yumshoq, achchiq-shirin* antonim so'zlar”.¹¹

Ko'rinadiki, antonimiya hodisasi tilshunoslikda keng ma'noda tushuniladi va mazkur hodisa tilning hamma sathlariga birday tegishlidir. Til birliklarining o'zaro zidlik munosabati asosida aloqaga kirishishi tilning fonetik sathidan boshlab leksik, frazeologik va grammatik sathlarida birday amal qiladi. Kishilarning o'zaro nutqiy faoliyati davomida nutq qaratilgan shaxsga estetik jixatdan ta'sir etishda, muloqot jarayonida qo'llangan har bir til vositasining o'ziga xos o'zni va vazifasi bor. Chunki so'zlovchi yoki yozuvchi ko'zlagan kommunikativ maqsad u tomonidan tanlangan til vositalari orqali nutq jarayonida voqelanadi va tinglovchi yoki o'quvchi ko'z o'ngida

⁹ Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. -Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. Б.16.

¹⁰ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. -Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2000. Б. 369.

¹¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. -Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2006. Б. 88.

nazarda tutilgan shaxsning ruhiy holati, ichki kechinmalari, xarakter-xususiyatlari ochib beriladi. Tilimizda ana shunday vazifani bajarishda o`zaro zidlik munosabatida bo`lgan birliklar muhim ahamiyat kasb etadi. Antonimiya hodisasi doirasida qaraluvchi birliklar og`zaki va yozma nutqda so`zlovchi yoki yozuvchining ma`lum bir voqea-hodisalarni, qahramonlar xarakter-xususiyatini bir-biriga qarshilantirish, zidlash asosida turli murakkab vaziyatlarni, holatlarni tasvirlashga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Tilimizda o`zaro zidlik munosabatini ifodalaydigan holatlar ko`p bo`lib, ular tilshunoslikka doir adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Mazkur masalaga oydinlik kiritish uchun tilshunoslikda antonimiya hodisasining o`rganilishi to`g`risida fikr yuritamiz.

Rus tilshunosligida til birliklari orasidagi antonimik munosabatni o`rganish nisbatan ancha ilgari boshlangan va bu borada salmoqli ishlar, ma`lum tadqiqotlar amalga oshirilgan va lug`atlar yaratilgan.<sup>12</sup> Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, rus tilshunosligida antonimlarga bag`ishlangan lug`at 1971 yilda yaratilgan bo`lib, u rus tilshunos olimi L.A. Vvedenskaya tomonidan amalga oshirildi.¹³

Til birliklari orasidagi antonimik munosabatni o`rganish bo`yicha turkiyshunoslikda ham ma`lum ishlar yaratilgan. Bu haqda so`z yuritganda J. Musinning qozoq, K.A. Talibovning ozarbayjon tili materiallari asosida olib borgan tadqiqotlarini qayd etish lozim.¹⁴

O`zbek tilshunosligida ham o`tgan asrda antonimiya hodisasining o`ziga xos xususiyatlarini o`rganish bo`yicha ayrim maqolalar yozilgan bo`lsa-da, kengroq hajmdagi tadqiqot 1977 yilda yaratildi. Bu o`zbek tilshunos olimi R. Shukurovning "O`zbek tilida antonimlar" lug`ati bo`ldi.¹⁵ Muallif lug`atda antonimiya hodisasining mohiyatini yoritib berishga harakat qilib, bu hodisa bilan bog`liq nazariy muammolar to`g`risida so`z yuritadi hamda mazkur lug`atning yuzaga kelish sabablarini izohlab bergan. Olimning antonimlar to`g`risidagi kuzatishlari o`zbek tilshunosligida keyingi yillarda yanada izchil davom ettirilganligi seziladi. Buning isboti sifatida 1980 yilda

¹² Бараксин Л.А. Однокорневие профексалние глаголи-антоними в современном русском языке. –Куйбишев, АҚД., 1968. С. 20.

¹³ Введенская Л.А. Словар антонимов русского языка. –Ростав: Изд. Ростовского университета, 1971. С. 85.

¹⁴ Мусин Ж. Антоними в казахском языке. АҚД. –Алма-Ата, 1970. С. 21; Талибов К.А. Антоними в современном азарбайджанском языке. АҚД. –Баку, 1971. С. 22.

¹⁵ Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. –Тошкент: Фан, 1977. Б. 149.

yaratilgan “O`zbek tili antonimlarining izohli lug`ati”ni ko`rsatish mumkin.<sup>16</sup> Bu lug`atda o`zbek tilida mavjud bo`lgan 1800 ga yaqin antonimik juftlik o`z izohini topgan.

Biz yuqorida antonimiya hodisasining lingvistik lug`atlarda berilgan ta`riflari bilan tanishdik. Umuman olganda, antonimiya hodisasi tilshunoslikka oid tadqiqotlarda turlicha talqin qilinadi. O`zbek tilshunosligi bo`yicha yaratilgan darslik va o`quv qo`llanmalaridagi ayrim fikrlarni keltirib o`tamiz:

Tilshunos olim Sh. Rahmatullayev tilimizdagi antonimiya hodisasiga leksema (leksosememalar)dagi oppozitiv munosabat sifatida qaraydi. Olim leksik antonimlarni shunday izohlaydi: Ideografik semalaridan odatda bir semasi zid, qolgan semalari aynan ikki leksema (leksosemema) biri ikkinchisiga nisbatan antonim deyiladi (yunoncha anti-zid, qarshi; onyma-ism). Bunday ma`no munosabati oppozitiv munosabat ham deyiladi (lot. *oppositivo* - zid qo`yish). Masalan, *oz-ko`p*, *tez-sekin*, *jonli-jonsiz* leksemalari orasida bo`lgani kabi.¹⁷ Olimlarning fikricha, antonimik munosabat hosil etuvchi leksemalar biri ikkinchisini yangicha nomlash orqali inkor etishi, leksik ma`nolar biri ikkinchisining ziddi bo`lishi lozim. Masalan, *dono va ahmoq*, *bir va ming*, *yi qil va tur* leksemalari o`zaro antonim emas, chunki bular yuqoridagi shartlarga javob bermaydi. *Dono* leksemasiga nodon leksemasi, *ahmoq* leksemasiga aqlli leksemasi antonim. *Tur* leksemasining bosh (to`g`ri) ma`nosiga yot leksemasining bosh (to`g`ri) ma`nosi antonim, lekin *yi qil* leksemasiga antonim yo`q.

Asar muallifi asosiy e`tiborini antonimiya hodisasining leksik vositalar orasida yuzaga kelishiga qaratadilar. Asarda keltirilishicha, “Antonimiya turli leksik ma`nolar orasida voqe bo`ladi:

- 1) bosh (to`g`ri) ma`nolar orasida: *inson-hayvon* kabi;
- 2) bosh (to`g`ri) ma`no bilan hosila (ko`chma) ma`no orasida: *kichkina-devday* kabi;
- 3) hosila (ko`chma) ma`nolar orasida: uzoq (qarindosh) yaqin (qarindosh) kabi. Boshdan oyoq kabi ishlatishda har ikki leksema hosila (ko`chma) ma`nosi bilan

¹⁶ Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980. Б. 232.

¹⁷ Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент, 2006. Б. 74.

qatnashadi.¹⁸ Ayrim ishlarda *aka va uka, opa va singil, tog`a va xola* kabi so`zlar ham o`zaro antonimik munosabatda deb qarashlar mavjud. Shu soha bo`yicha maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan. B. Isabekov esa ularni antonimlar emas, **korrelyativ** so`zlar deb baholaydi, buni yuqoridagi leksemalarning ma`nolari qarama-qarshi emas, balki bir-biriga juda yaqindir deb asoslaydi.³

Tilshunos olimi Sh. Iskandarovanning mazkur hodisa haqidagi fikrlari boshqa tilshunoslarnikidan deyarli farq qilmaydi. Uning “Tilshunoslik nazariyasi” fanidan tayyorlangan muammoli ma`ruzalar matnida mazkur hodisa shunday izohlanadi: Antonimlar. O`zaro qarama-qarshi ma`noli so`zlar antonimlar deyiladi. So`zlarning bunday munosabatda bo`lish hodisasi antonimiya deyiladi. Masalan, *baland-past, yaxshi-yomon* va boshqalar. Antonimlar ikkiga ajratiladi.

1. Asliy leksik antonimlar.

2. Yasama antonimlar.

Asliy leksik antonimlar til paradigmaticasida tabiiy mavjud bo`ladi, masalan, *bor-yo`q, yer-osmon* kabilar.

Yasama antonimlar chegara bilmaydi. Ular inkor ma`nosini anglatadigan til vositalari yordamida yasaliq, har qanday so`zning antonimini hosil qilishga hizmat qiladi. Bu vositalar so`zlarning oldidan yoki ortidan kelib ish xarakat, xolat va xokazolarni inkor etadi va shu yo`l bilan qarama-qarshi ma`no ifodalaydi. Masalan, *tinch-notinch, to`g`ri-noto`g`ri, jo`ya-nojo`ya*. Bu affiks sifatlarga xosdir, -ma, affiksi yordamida ish xarakatning bajarilishini inkor etiladi. *Bor-borma, yur-yurma* va boshqalar.

Antonimlar mavhum ma`noni ifodalaydigan so`zlarda ko`proq, aniq tushunchalarni ifodalaydigan so`zlarda kamroq uchraydi.¹⁹

Antonimiya hodisasiga bunday yondashuv boshqa tadqiqotlarda ham uchraydi.

M. Abuzalova, S. Nazarovalar tomonidan yaratilgan “Sistem tilshunoslik asoslari” kitobida antonimlar tuzilishiga ko`ra dastlab har xil o`zakli antonimlar va bir xil o`zakli antonimlarga ajratiladi.

¹⁸ Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент, 2006. Б. 75.

³ Исабеков Б. Лексическая антонимия в современном узбекском языке. АҚД. -Ташкент, 1973. Б. 8.

¹⁹ Искандарова Ш. Тишлунослик назарияси фанидан муаммолари маърузалар матни. -Фарғона, 2003. Б. 34-35.

Mualliflarning ko`rsatishicha, antonimlarning mantiqiy asosini ikki ko`rinishdagi qarama-qarshilik tashkil etadi:

a) kontrast qarama-qarshilik va b) komplementar qarama-qarshilik.

Kontrast antonimiya darajalanuvchi leksemalar qatorining birinchi va oxirgi a`zosiga tegishli bo`ladi, ya`ni ikki antonim leksema orasida har xil antonim a`zo belgilarini o`zida mujassamlashtirgan bog`lovchi bo`g`in mavjud bo`ladi. Masalan, *yosh-o`smir-balog`at-o`rtayosh-qari*; *past-o`rta-baland*; *shirin-nordon-achchiq*; *quruq-nam-ho`l-shalabbo* daraja qatorlarining birinchi va oxirgi a`zosi antonimlik hosil qiladi. Demak, leksemalarning kontrast qarama-qarshiligini ularning darajalanish (graduonimik) qatoridan izlash zarur.²⁰

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, tadqiqotlarda olimlarning antonimiya haqida fikr yuritganda aksariyat hollarda leksik antonimlarni tushunishlari va shu asosda o`z mulohazalarini bildirishlari seziladi. Bu boradagi yo`l-yo`lakay bildirilgan fikrlar shuning uchun bir-biridan farq qilmaydi.

O`zbek tilshunosligi bo`yicha yaratilgan darslik va qo`llanmalarda antonimiya hodisasining mohiyatini ochib berishda turli yondashuvlar, qarashlar mavjud. R. Sayfullayeva va boshqalar tomonidan yaratilgan "Hozirgi o`zbek adabiy tili" darsligida antonimiya hodisasini tushuntirishda bir tomonlama, ya`ni leksik jihatdan yondashilganligi seziladi. Darslikda antonimiya hodisasiga shunday izoh berilgan: Antonimiya (grekcha anti qarama-qarshi, onuma - nom) leksemalar orasidagi zidlik munosabatidir: *katta –kichik*, *yosh -qari*, *mitti-ulkan*, *oq- qora* va hokazo. Antonim leksemalarining umumiy, birlashtiruvchi semalari bilan bir qatorda, qarama-qarshi semalari ham bo`lishi lozim. Masalan, *katta* va *kichik* leksemalari umumiy - «sifat», «ko`lam» semalari bilan birga, qarama -qarshi - «nisbatan ortiq» (*katta*) va «nisbatan katta bo`lmagan» (*kichik*) semalariga ham ega. Yoki *qish* - «yilning eng sovuq fasli», *yoz* - «yilning eng issiq fasli», *kirmoq* -«ichkariga harakatlanmoq», *chiqmoq* - «tashqariga harakatlanmoq». Antonim leksemalarning asosida borliqdagi qarama - qarshi hodisalarning ini`kosi bo`lgan qarama-qarshi tushunchalar yotadi. Antonim leksemalar bir turga kiruvchi **giponim** leksemalardir: *issiq-sovuq* (belgi-xususiyat),

²⁰ Абузалова М., Назарова С. Систем тилшунослик асослари. -Бухоро, 2008. Б. 94.

katta-kichik (hajm), *erkak-ayol* (jins) va hokazolar.²¹

Darslikda antonimlarning (*olimlar bu yerda leksik antonimlarni nazarda tutmoqdalar*) mantiqiy asosini kontrar qarama - qarshilik va komplementar qarama-qarshilik tashkil etishi uqtiriladi.

Kontrar qarama-qarshilik deb darajalanuvchi leksemalar qatoridagi tafovutlarning farqlarga, farqlarning ziddiyat, ya'ni qarama-qarshilikka o'sib borishi natijasida birinchi a'zo bilan oxirgi a'zoning antonimik munosabatga kirishishi tushuniladi. Masalan, kichik - o'rta - katta, yosh-o'smir - o'rta yosh-qari kabi. Bunda kichik va katta, yosh va qari leksemalari daraja qatorining ikki qarama -qarshilikda qator a'zolari o'rtasida ikki antonim a'zo belgilarini o'zida mujassamlashtirgan bog'lovchi bo'g'in mavjud bo'ladi. Yuqoridagi o'rta leksemasida kichik va katta leksemalarining qarama-qarshiligi so'nadi. Olimlar shu asosda leksemalarining kontrar qarama-qarshiligini ularning darajalanish (graduonimik) qatoridan izlash lozimligi to'g'risida xulosaga keladilar.

Ularning ta'kidlashicha, komplementar antonimiyada qarama-qarshilik uchinchi, oraliq bo'g'insiz bo'ladi: *rost-yolg'on*, *arzon-qimmat*, *oson-qiyin*. Bu leksemalar orasida oraliq uchinchi leksemalar yo'q.²²

Z.T.Xolmanovanning universitet talabalari uchun mo'ljallab chiqarilgan "Tilshunoslikka kirish" kitobida ham antonim va antonimiya tushunchalariga bir yoqlama ta'rif berilganligi seziladi. Olima bu tushunchalar mohiyatini faqatgina leksik sathdan izlaganligi va shu bilan chegaralanib qolganligi uning quyidagi ta'rif va tavsiflarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi: O'zaro qarama-qarshi (zid) ma'noli so'zlar antonimlar deyiladi. So'zlarning bunday munosabati antonimiya deyiladi. Antonimlar 3 xil belgiga ega: 1) shakli (fonetik strukturasi) jihatidan har xillik; 2) ma'no jihatidan har xillik; 3) ma'nodagi o'zaro zidlik. Uchinchi belgi antonimlarni o'zaro birlashtiradi, zid ma'nolilikni yuzaga keltiruvchi asosiy belgi hisoblanadi.

Ko'p ma'noli so'z har bir ma'nosi bilan ayrim-ayrim so'zlarga antonim bo'lishi mumkin. Masalan, *qattiq* so'zi bir ma'nosida *yumshoq* so'ziga, boshqa bir ma'nosida

²¹ Сайфуллаева Р., Курбонова М., Менглиев Б., Боқиева Г. Ҳозирги ўзбек тили. (Кириш, Фонетика-фонология, Графика, Талаффуз ва имло, Лексикология, Фразеология, Лексикография). Дарслик. -Тошкент, 2005. Б. 106.

²² Ўша ерда.106 бет.

saxiy so`ziga antonim bo`ladi. Masalan: Boy o`lgudek qattiq edi.

Bir so`z o`zaro sinonim so`zlar bilan yoki o`zaro sinonim so`zlar boshqa sinonimlar bilan antonimik munosabat hosil qiladi: *xursand – xushvaqt – shod – xurram – xushnud – xafa*.²³

Yuqoridagi ta`rifdan Z.T. Xolmanovanning antonim deganda faqatgina o`zaro qarama-qarshi (zid) ma`noli so`zlarga e`tabor qaratganli anglashiladi. Lekin keyingi o`rinlarda olima “Qarama-qarshi ma`noli affikslar ham antonim bo`ladi: *odobli-beodob, kuchli-kuchsiz* deyish bilan yuqoridagi fikrlarini ma`lum darajada to`ldirganligini ko`rishimiz mumkin.

Bu kabi ta`riflar va tahlillarni yana keltirish mumkin. Antonimiya bo`yicha olimlarning bildirgan fikrlarini umumlashtirib shunday xulosaga kelish mumkinki, tadqiqotlarda antonim va antonimiya tushunchalari ko`pincha farqlanmaydi. Antonimiya haqida gapirilganda, asosan, leksik antonimlar to`g`risida fikr yuritish bilan chegaralanib qolish kuzatiladi. Antonimiya hodisasi mohiyatini to`liqroq anglash uchun shu tushuncha doirasida qaraluvchi birliklarning yuzaga kelish sabablarini bilish lozim bo`ladi.

Insonni o`rab turgan olamdagi narsalar, voqea va hodisalarning o`zaro zidlik munosabatiga kirishishi rivojlanish qonuniyatlaridan biri ekanligi ma`lum. Jamiyatda yuz berayotgan har bir o`zgarish, har bir yangilik, taraqqiyot asosida ma`lum bir qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar kurashi yotadi. Zero, bu holat keng ma`noda butun dunyo taraqqiyotini ta`minlab turadi. Qarama-qarshiliklar qonuni inson faoliyatining hamma qirralarida birday amal qiladi. Jamiyat hayotining taraqqiyotini muntazam ravishda ta`minlab turgan bu qonuniyat tilda ham o`z aksini topgan va antonimiya atamasi bilan belgilab qo`yilgan. Inson faoliyati, uning o`zini o`rab turgan olamda mavjud narsalarga, voqea-hodisalarga, turli insoniy munosabatlarga qarashi tilimizda zidlik, qarama-qarshilikni ifodalovchi so`zlar yordamida yuzaga chiqadi. Bu til hodisasi, yuqorida ta`kidlaganimizdek, antonimiya, qarama-qarshi ma`noli so`zlar esa antonimlar deb yuritiladi.

Antonimiya hodisasini belgilashda tilshunoslikda bir-birini inkor qiluvchi, zid

²³ Холманова З.Т. Тилшуносликка кириш. -Тошкент: Университет, 2007. Б. 83-84.

fikrlar ham uchraydi. Buni tadqiqotchilarning har qanday qarama-qarshi turgan soʻzlarni antonimlar sifatida talqin qilishi bilan izohlash mumkin. Masalan, tilimizdagi *issiq-sovuq*, *oq-qora*, *baland-past* kabi soʻzlarda oʻz tabiatiga koʻra qarama-qarshi maʼnolar yaqqol koʻzga tashlanadi. Ulardagi ham ifoda plan, ham mazmun planning bir-biriga zid qoʻyilishi ularga lugʻaviy antonimlar sifatida qarashimizga imkon beradi.

Antonimiyaning hosil boʻlishi uchun avvalo, ikkita birlikning boʻlishi shart. Mazkur hodisani yuzaga keltiruvchi birinchi komponent, yaʼni birlikda ifodalangan maʼno keyingi komponent, yaʼni birlikda teskari maʼno ifodalashi lozim. Komponentlar oʻrtasidagi oʻzaro maʼnoviy munosabat antonimiya hodisasini yuzaga keltiradi.

Maʼlumki, tilimizda leksik maʼno, yaʼni semema muayyan komponentlardan semalardan tashkil topadi. Antonimiya hodisasining yuzaga kelishida differensial, yaʼni farqlovchi semaning mavjud boʻlishi komponentlarning oʻzaro zidlik munosabatiga kirishiga asos boʻladi.

Odatda sifat soʻz turkumi doirasida bu holat koʻproq kuzatiladi. Bu turkumda belgini bildiruvchi *yorugʻ-qorongʻu*, *issiq-sovuq*, *baland-past*, *katta-kichik*, *achchiq-shirin* kabi soʻzlar orasida farqlar yaqqol sezilib turadi.

Tilshunoslikda antonimlar, xususan, leksik antonimlar boʻyicha bildirilgan fikrlarga asoslanib, quyidagi ziddiyatlar turlarini koʻrsatish mumkin:

1. Darajalangan koʻrinishdagi qarama-qarshiliklar: *baland-past*, *toza-iflos*, *arzon-qimmat* kabi.

2. Bir soʻz turkumidan boshqa soʻz turkumiga oʻtgan soʻzlardagi qarama-qarshiliklar: *yosh-qari*, *katta-kichik*, *urush-tinchlik*, *kelajak-oʻtmish* (sifatdan, feʼldan otga oʻtish holati mavjud). Bu haqda tilshunos J. Eltazarovning tadqiqotlarida mufassal maʼlumotlar berilgan.

3. Bir tushunchaning dixotolik holatiga asoslangan qarama-qarshiliklar: *gulligulsiz*, *bilimli-bilimsiz*, *oʻrinli-nooʻrin* kabi.

Demak, tadqiqot olib borishda semik tahlil usulidan foydalanish antonimlardagi maʼno ziddiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Oʻzaro antonimik

munosabatga kirishgan birliklarni tashkil etgan barcha belgilar yig'indisi ideografik semalar ichidan differensial semani ajratish kommunikasiya jarayonida yuzaga kelgan yoki alohida olingan matndagi antonimiya hodisasi mohiyatini va matndagi o'rnini aniqlash imkonini beradi.

1.2. Antonimik munosabatni aniqlash va mantiqiy markaz tushunchasi.

Tilshunoslikda til birliklarini bir-biriga aloqadorligi nuqtai-nazardan o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari ko'p tadqiq etilyapti. Ammo bugungi kun uchun bu yetarli emas. Ayniqsa, antonimiya hodisasi o'zining yanada chuqurroq, batafsil tahlilini kutmoqda.

Biz bu hodisalarni, ya'ni "qarama-qarshilik"ni ifodalash uchun nutqimizda antonimlar va konversiya (o'zgartirish)dan foydalanamiz. Ilmiy manbalarda antinomiya – (Yunoncha antinomiya – qonunning ichki ziddiyati). Mantiqan har biri isbotlanadigan ikki qonun mulohaza yoki mulohazalar o'rtasidagi ziddiyat tarzida izohlansa, *konversiya* –(lotincha – Conversio- aylantirish, o'zgartirish) almashtirish, o'zgartirish qayta hisob-kitob qilish. Oldinga yillarda chiqarilgan davlat zayomlarini yangisi bilan almashtirish. 2. Biror tizimga oid til birligini boshqa tizimga (sohaga) oid birlikka aylantirish bilan yangi birlik hosil qilish. [O`TIL 2006. 398-bet]

Ular fikr ifodalashda tizimli muloqotni vujudga keltiradi. Demak, dialektikaning mag'zini tashkil etgan bu qonunni bilish tilshunoslikda antonimlarni chuqur o'zlashtirishni taqozo etadi.

Antonimlar semantik bog'liqlikni, ya'ni tildagi bir mazmun boshqa bir mazmun bilan, ya'ni har bir narsa bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan va biri ikkinchisini taqozo etuvchi qarama-qarshi tomonga ega bo'lganidek bog'liqligini ko'rsatadi. Ular ayni vaqtda moddiy olamdagi va ongimizdagi qarama-qarshilikning namoyon bo'lishidir.

Antonimlar leksik tizimdagi yorqin ko'rsatkich bo'lishi bilan birga, qarama-qarshi qo'yilgan so'zlarni har xil yo'nalishlarda semantik jihatiga ko'ra tartibga solib turadi. Antonimlar antiteza (zid tushuncha) qarama-qarshiliklar uchun keng badiiy ifodalilikning yorqin vositasi bo'lib, so'zlashuv va badiiy nutqda ta'sirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratishda muhim o'rin tutadi.

Tilshunoslikda antonimik munosabatlarni belgilash mezonlari bo'yicha munozarali qarashlar bor. Ma'lumki, ikki so'zning bir-biriga nisbatan zid ma'no bildirishining o'zi antonimlar uchun umumiy belgi bo'la oladi. Biroq bu belgi unga muayyan aniqliklar kiritishni talab qiladi. Chunki qarama-qarshi fikrni har qanday so'zlar ham, masalan, ayrim tilshunoslar tomonidan antonim hisoblab kelingan *keldi-kelmadi*, *aka-uka*, *tovuq-xo'roz* kabi so'zlar aslida antonim bo'lavermaydi. Shu soha bo'yicha tadqiqot ishlari olib borgan B. Isabekov esa ularni antonim emas, korrelyativ so'zlar deb baholaydi, ularni yuqoridagi leksemalarning ma'nolari qarama-qarshi emas, balki bir-biriga juda yaqindir deb asoslaydi.²⁴

Fe'lning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari (*bordi va bormadi*, *boray va bormay*, *ko'rgan va ko'rmagan kabilar*) antonimlarning alohida bir tipi ... deb qaraladi. "Bizningcha, ular antonimlar emas, balki bir leksemaning bo'lishli va bo'lishsiz shakllaridir. Antonimiyani ayni shunday tushunish ayrim ilmiy manbalarda ham bor".²⁵

Mazkur izlanishlarimizda ham antonimiyaga shu nuqtayi nazardan yondashildi. Bundan tashqari, *baxtli-baxtsiz* kabi bir o'zakli yasama sifatlarining, *pishgan – pishmagan* kabi bo'lishli-bo'lishsiz sifatdoshlarning antonim bo'lishi uchun ularning shu tilda sinonimlariga ega bo'lishi, *keldi – ketdi* kabi fe'llarning esa bir-biriga qarama-qarshi yo'nalgan harakatni bildirishi kabi masalalarga, ya'ni ayrim so'z shakllarining antonimligini ko'rsatuvchi ba'zi belgilar haqida mulohaza bildirmoqchimiz.

Ma'lumki, antonimlar haqida gap borganda, bir hodisa, bir munosabatga doir bo'lgan ikki qarama-qarshi qutb nazarda tutiladi. Bu ikki qutbning o'rtasida doimo qandaydir oraliq tushunchalar yotadi. Bunday oraliq tushunchalar faqat to'la antonimlarga xosdir. Deyarli barcha antonimik juftlik qism orasida oraliq tushunchalar mavjud bo'ladi. Masalan, *yaxshi*, *o'rta*, *yomon* kabi. Tilshunoslikda bunday oraliq tushunchalar ***mantiqiy markaz*** deb ataladi²⁶. Mantiqiy markaz

²⁴ Исабеков Б.О. Лексическая антонимия в современном узбекском языке. АКД. -Тошкент, 1973. Б. 8.

²⁵ Ҳозирги ўзбек адабий тили. I том. –Тошкент: Фан, 1966. Б. 145.

³⁰ Раҳматуллаев Ш., Маматов М., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980. Б. 232.

soʻzlarning antonim boʻlish - boʻlmasligini aniqlashda muhim omil boʻlib xizmat qilishi mumkin. Masalan, *kechagi*, *bugungi*, *ertagi*; *oʻtgan*, *hozirgi*, *kelasi* kabi soʻzlardan *bugungi* hamda *hozirgi* soʻzlari mantiqiy markaz hisoblanadi.

Demak, koʻrinadiki, *kechagi* – *ertagi* va *oʻtgan* – *kelasi* soʻzlari mantiqiy markazdan teng uzoqlikdagi ikki qarama-qarshi qutbda yotganligi uchun ular oʻzaro antonimlik munosabatiga ega boʻladi. Koʻpincha, ikki qarama-qarshi qutb oraligʻida bir necha tushunchalar yotadi. Bunday hollarda mantiqiy markazdan teng uzoqlikda yotgan nuqtalar va ularni ifodalovchi soʻzlar bir-biri bilan antonim boʻlishi mumkin.

Ayrim hollarda, masalan, *issiq- sovuq*, *qattiq-yumshoq*, *ochiq-yopiq* kabi antonimik juftlik qismlari orasida mantiqiy markaz yoʻqday, uni belgilash ham mumkin emasday koʻrinadi. Bunday hollarda oraliq hodisaning yoki mantiqiy markazning shu tilda oʻz ifodasini topmaganligi, reallashmaganligi sabab boʻladi. Biroq bunday antonimik juftliklarni, atroflicha, chuqurroq oʻrganish tufayli ularning qismlari orasida birlashtiruvchi oraliq hodisa mavjudligini aniqlash mumkin boʻladi. Masalan, “*issiq*”, “*sovuq*” deb ataladigan yoki shartli ravishda +, – bilan koʻrsatiladigan haroratlar oʻrtasida “o” belgisi bilan belgilanadigan kritik harorat mavjuddir.

Qarama-qarshi yoʻnalgan harakatni bildiruvchi feʼllarning antonimligini belgilashda *turmoq* (toʻxtab qolmoq) feʼli markaz vazifasini oʻtaydi. Bular misollarda yanada koʻzga tashlanadi: Oʻrmonjon shoshib chiqib *ketdi* va biron soatdan keyin yoshgina bir yigit bilan kirib *keldi*. (A.Qahhor) Bular bulutlar, Eʼzozxon. Shu bulutlar tunda *yigʻilib*, kunduzi *tarqalib* turibdi. (H.Gʻulom)

Mantiqiy markazni hisobga olmaslik tufayli antonimlarini belgilashda ayrim xatoliklar roʻy berishi mumkin. Masalan, ayrim ishlarda²⁷ antonim sifatida *qish* – *bahor*, *yoz* – *kuz* soʻzlari tavsiya etiladi. Holbuki, fasllar doirasiga koʻra *qish* – *yoz* antonim boʻlib, bunda *bahor* oraliq hodisa hisoblanadi. Shuningdek, *bahor* – *kuz* antonim boʻlib, ularga nisbatan bunda *yoz* mantiqiy markaz rolini bajaradi. Shuningdek, *hayot* va *oʻlim* soʻzlari ham oʻzaro antonimik juftlik hosil qila oladi.

²⁷ Исабеков Б.О. Лексическая антонимия в современном узбекском языке. АКД. –Тошкент, 1973. Б. 8.

Holbuki, bu ikki soʻzni bildirgan tushunchalar orasida mantiqiy markaz yoki oraliq hodisa yoʻq. Bu nuqtayi nazardan qaraganda haqiqiy antonimlar *hayot* va *oʻlim* emas, balki *tugʻilish* va *oʻlish* boʻlishi mumkin, chunki bu ikki tushuncha oʻrtasida oraliq hodisa (mantiqiy markaz) – yashash, hayot tushunchasi mavjud. Bundan tashqari, boy-kambagʻal, shoh-gado antonimlari oʻrtasida “oʻrtahol” mantiqiy markaz rolini bajaradi

Bu qoidaga izchillik bilan amal qilinsa, *sayoz-chuqur* soʻzlari ham antonim boʻla olmay qoladi, chunki ularning har ikkisi ham suv sathiga nisbatan olingan. Suv sathi mantiqiy markaz deb faraz qilinsa, natijada ularni bir-biriga tom maʼnoda qarama-qarshi qoʻyib boʻlmay qoladi. Shuningdek, *baland-past* soʻzlarini ham antonim soʻzlar sifatida tekislik ustidagi boʻyi turlicha narsalarga nisbatan emas, balki tekislikning ustki va ostki tomonlaridagi tushunchalarga nisbatangina qoʻllash mumkin. Bizningcha, *sayoz* va *chuqur*, *baland* va *past* leksemalari orasidagi mantiqiy markazni bildiruvchi maxsus soʻz tilda yoʻq, ammo mantiqan olsak, suv sathidagi *sayoz* va *chuqur* oraligʻida yoki tekislik ustidagi *baland* va *past* oʻrtasida oraliq joy bor. Demak, ana shu oraliq joy mantiqiy markaz sifatida tasavvur qilinadi. Ammo *ochiq-yopiq*, *oq-qora*, *gunoh-savob*, *uchrashmoq-ayrilmoq* kabi bir qator antonimlarda mantiqiy markazni topish amrimahol. Shunday boʻlsa ham mazmunan oraliq tushunchalar mavjud (na ochiq, na yopiq qiya, oqish yoki qoramtir, bilmaslik, koʻrishmaslik kabi). *Mantiqiy markazni* topish mumkin boʻlmagan hollarda, soʻzlarning antonimligi ularning boshqa umumiy belgilari asosida aniqlanadi. Bundan qatiʼy nazar mantiqiy markaz qoidasi tilshunoslikda yangi bir hodisa boʻlib, hali uni atroflicha oʻrganishga toʻgʻri keladi.

1.3. Umumtaʼlim maktablari “Ona tili” darsliklari va oliy taʼlim darslik va qoʻllanmalarida antonimlar talqini.

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda antonimlarni maʼlum turlarga ajratish masalasida olimlarning yakdil emasligi koʻzga tashlanadi. Antonimlarning turlari haqida har xil qarashlar mavjud. Darslik va qoʻllanalarda avvalo, antonimiya hodisasining tilning qaysi sathida yuzaga kelayotganligiga qarab lugʻaviy antonimiya,

grammatik antonimiya kabi turlari qayd etiladi.

Lugʻaviy antonimiyada oʻzaro antonimik munosabatga kirishayotgan birliklarning anglatgan maʼnosi va maʼlum birlikning oʻzi bilan zidlik hosil qilayotgan birlik bilan antonimik munosabatga kirisha olish imkoniyati hisobga olinadi: *katta-kichik* , *baland-past*, *issiq-sovuq* va shu kabilarda maʼnoviy jihatdan antonimik mavjud.

Grammatik antonimiya esa morfemalar asosida yuzaga keladi. Bunda til tizimidagi mavjud morfemalar bilan yangi soʻz yasash asosida antonimlik roʻy beradi: *gulli-gulsiz*, *beaql-aqlli*, *serhosil-hosilsiz* kabi.

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda lugʻaviy antonimiya leksik antonimiya, frazeologik antonimiya, leksik-frazeologik antonimlar kabi turlarga ajratiladi.

a) leksik antonimiya asosida antonimik munosabatga kirishgan soʻzlarning leksik maʼnosi yotadi: *yaxshi-yomon*, *baland-past*, *oq-qora*, *issiq-sovuq* kabi.

b) frazeologik antonimiyada esa iboralarning anglatgan maʼnolariga koʻra oʻzaro qarama-qarshi maʼnolarni anglatishi eʼtiborga olinadi: *boshga koʻtarmoq* – *yerga urmoq*, *boshi osmonga yetdi* – *qovogʻidan qor yogʻadi* , *yerga ursa*, *koʻkka sakraydi* - *qoʻy ogʻzidan choʻp olmagan* kabi;

v) leksik - frazeologik antonimlarda esa alohida olingan soʻz ibora bilan zidlik munosabatiga kirishadi va uning maʼnosi antonimlik jihatdan iboraning maʼnosiga qarshi tura oladi: *xafa* – *boshi koʻkka yetdi*, *ogʻzi qulogʻiga yetdi*, *terisiga sigʻmadi* kabi.

Baʼzi bir adabiyotlarda antonimlarni tasniflashda ularning toʻla va yarim (chala, toʻliqsiz) kabi turlari ham mavjudligi aytiladi. R. Sayfullayeva va boshqalar tomonidan yaratilgan “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” darsligida antonimlarni tasniflashda ularning qanday oʻzakdan tashkil topganligi ham eʼtiborga olingan: Antonimlar strukturasiga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadi: har xil oʻzakli antonimlar: *katta-kichik*, *kirmoq-chiqmoq*, *muhabbat-nafrat*; bir xil oʻzakli antonimlar: *madaniyatli* - *madaniyatsiz*, *aqlli-aqlsiz*, *ongli-onsiz*.²⁸

Yuqorida qayd etganimizdek, kelgan-kelmagan, bor-borma, bilimli-bilimsiz kabi

²⁸ Сайфуллаева Р., Курбонова М., Менглиев Б., Бокиева Г. Хозирги ўзбек тили. (Кириш, Фонетика-фонология, Графика, Талаффуз ва имло, Лексикология, Фразеология, Лексикография). Дарслик. -Тошкент, 2005. Б. 106.

leksik birliklarni o`zaro oppozitsiyadagi antonimlar sifatida qarash mumkin emas. Ularda oddiygina holat – inkor ifodalanayapti, xolos. Kelgan-kelmagan, bor-borma kabi ko`rinishlarda inson harakati inkor qilinayotgan bo`lsa, *madaniyatli - madaniyatsiz, aqlli-aqlsiz, ongli-onsiz* so`zlarida esa ega emaslik ma`nosi bo`rtib turibdi. Shuning uchun asosida inkor yotgan bunday ko`rinishlarni antonim deb bo`lmaydi.

Antonimlarni, xususan, leksik antonimlarni hozirgi o`zbek tili bo`yicha yaratilgan tadqiqotlarga asoslanib tuzilishiga ko`ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. O`zaro antonimik munosabatga kirishgan so`zlar tub so`zlardan iborat bo`ladi: *oq-qora, yaxshi – yomon, yer – osmon, do`st – dushman, baland – past* kabilar.

2. Birinchi komponenti tub so`z bo`lgan, ikkinchi komponenti esa yasama so`zdan iborat antonimlar: *xunuk-chiroyli, shirin-bemaza, ahil-noahil, to`g`ri-noto`g`ri, zaif-baquvvat* kabilar.

3. Har ikki komponenti ham yasama so`zlardan tashkil topgan antonimlar: *rostgo`y-yolg`onchi, kuchli-kuchsiz, mazali-bemaza, baquvvat-bequvvat, yorug`lik-qorong`ulik* kabilar.

4. Har ikki komponenti ham qo`shma so`zlardan iborat bo`lgan antonimlar: *mehnatsevar-ishyoqmas, ertapishar-kechpishar* kabi.

5. Har ikki qismi juft so`zlardan tashkil topgan antonimlar: *yosh-yalang - qari-qartang, o`yin-kulgi – dard-alam*.

6. Har ikki qismi takroriy so`zlardan tashkil topgan antonimlar: *sekin-sekin – tez-tez, ko`p-ko`p – oz-oz, yig`lab-yig`lab – kulib-kulib, katta-katta – kichik-kichik* kabilar.

Hozirgi o`zbek adabiy tilida so`z yasash usul va vositalari ko`p. Tildagi har bir hodisaning yuzaga kelishi tarixi olis davrlarga borib taqaladi. Yusuf Xos Hojib ijodi bo`yicha kuzatish olib borgan S. Ashirboyev va M. Rahmatovlar allomaning omonim, sinonim va antonimlardan ham unumli foydalanganligi: *at (hayvon) -at (ism) —at (otmoq); achyg` (achchiq) — achyg` (toza)* kabi omonimlar, *yaruq-qaraq, yaxshi-yaman, yumshaq-qatyg`, achyg`-tatig`; beduk-qodu* kabi antonimlar, *achyg`-silig (toza), tushar-pabuz-yersel* kabi omonimlarni qo`llaganligi haqida ma`lumot beradilar . Dostondagi aksariyat so`zlar hozir ham (garchand fonetik jihatidan o`zgarsa-da)

qo'llanishini qayd etadilar.²⁹

Tadqiqotlarda antonimlarning hosil bo'lishi to'g'risidagi fikrlarni umumlashtirilsa, antonimlar yuzaga kelishining uch yo'li mavjudligi ma'lum bo'ladi. Ular quyidagilar:

1. Antonimlarning yuzaga kelishida tilning lug'at tarkibida qarama-qarshi ma'noli so'zlarning azaldan mavjud bo'lishi sabab bo'ladi: issiq va sovuq, shirin va achchiq, katta va kichik, keng va tor, kecha va kunduz, yaxshi va yomon kabilar.

2. So'z yasalihi qoidalari asosida antonimlar hosil qilinadi. Bu usul bilan antonimiyani vujudga keltirishda ikki holat kuzatiladi: 1) ma'lum bir tub so'zga sifat turkumi doirasida amal qiluvchi –li va –siz, ba- va be-, bar- va –dor,-no- affikslarini qo'shish orqali yasaladi: kuchli-kuchsiz, jonli-jonsiz, baquvvat-bequvvat, batartib-betartib, barqaror-beqaror, vafodor-bevafo, mazali-bemaza, haq-nohaq kabilar; 2) leksik-semantik jihatdan o'zaro qarama-qarshilik munosabatida bo'lgan so'zlarga so'z yasovchi qo'shimchalarni qo'shib so'z yasash orqali yangi antonimlar hosil qilinadi: rostgo'y-yolg'onchi, do'stona-dushmanlarcha, og'irlashmoq-yengillashmoq, kengaymoq-toraymoq, xursandchilik-xafachilik, eskilik-yangilik, oqlamoq-qoralamoq kabilar. Yuqorida keltirilgan antonimik qatordagi rost-yolg'on, do'st-dushman, og'ir-yengil, keng-tor, xursand-xafa, eski-yangi, oq-qora so'zlari o'zaro antonimik munosabatda. Ularning so'z yasovchi yangi qo'shimchalarni qabul qilishi yangi antonimik juftlikni yuzaga keltirgan.

3. Boshqa tillardan so'z o'zlashtirish natijasida antonimlar yuzaga keladi: do'st (tojikcha) – dushman (tojikcha), quvonch (o'zbekcha) – g'am (arabcha), band (tojikcha) – bo'sh (o'zbekcha), mudofaa (arabcha) – hujum (arabcha), import (ruscha) – eksport (ruscha), badxo'r (tojikcha) – xushxo'r (tojikcha), assimilyatsiya (ruscha) – dissimilyatsiya (ruscha), analiz (ruscha) – sintez (ruscha), maksimum (ruscha) – minimum (ruscha), manfiy (arabcha) – musbat (arabcha) va boshqalar.

Boshqa tillardan so'z o'zlashtirish natijasida antonimlarning hosil bo'lishi til taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Kishilar orasidagi aloqani ta'minlashga

²⁹ Аширбоев С., Рахматов М. Ўзбек адабий тили тарихи. Тошкент, 2003. Б. 16-17.

xizmat qiluvchi har qanday til tarixiy taraqqiyot davomida jamg'argan o'z so'z boyligiga, ma'lum bir qoida va mezonlariga ega. Tildagi aloqani ta'minlashga xizmat qiluvchi ana shunday so'zlar jamlanmasi o'sha tilning lug'at tarkibini tashkil etadi. Lug'at tarkibi amalda bo'lgan har bir tilda mavjud bo'ladi. Til nafaqat aloqa vositasi balki, u xabarni turli shaklda tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazish, unga ta'sir ko'rsatish xususiyati va so'z boyligiga ko'ra ham ahamiyatlidir.

Tillar o'z tarixiy taraqqiyoti davomida lug'at tarkibini ichki manbalari hisobiga boyitib, rivojlantirib boradi. Til taraqqiyotining bu umumiy qonuniyati o'zbek va u bilan aloqada bo'lgan tillar uchun ham taalluqlidir. Bunday qonuniyatga, o'z qatlam negizlari bazasida yangi so'zlar yasaladi, mavjud so'z ma'nolari kengaytiriladi, ba'zi so'zlarga qo'shimcha nominativ funksiyalar yuklanadi, adabiy tilga xalq shevalaridan turli davrlarda, extiyojga ko'ra so'zlar qabul qilinadi.³⁰

Til taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan bir qonuniyat borki, u ham bo'lsa har bir xalqning boshqa xalqlar bilan turli sohalarida aloqa qilishiga bog'liq bo'ladi. Xalqlarning jug'rofiy jihatdan joylashuvi, boshqa xalqlar bilan qanday sohalarida aloqalar olib borishi tufayli shu til lug'at tarkibida boshqa tillarga oid til birliklarining bo'lishi tabiiy. Madaniy-ma'rifiy, siyosiy-iqtisodiy sohalaridagi o'zaro munosabatlar tufayli shu doiralarga taalluqli tushunchalarni ifodalovchi til birliklari, atamalar ham tilimizga kirib kelgan va lug'at tarkibimizdan o'rin olgan. Ko'rinadiki, til lug'at tarkibining boyishida birgina ichki manbaning o'zi kifoya qilmaydi, balki boshqa tillar ta'siri ham muhim o'rin tutadi.

Masalan, o'zbek tili lug'at tarkibining salmoqli qismini arab va fors-tojik tillariga oid birliklar tashkil etadi. O'zbek tili o'z grammatik qurilishi, lug'at tarkibi, fikr ifodalashda keng imkoniyatlarga egaligiga ko'ra arab va fors-tojik tillaridan kam emas. Lekin bu til o'z tarixiy taraqqiyotining ma'lum davrlarida leksik-semantik, grammatik jihatdan to'liq me'yorlashmagan, adabiy-badiiy jihatdan ishlab chiqilmagan edi. Shuning uchun o'sha davrlarda ilm-fan, ijod sohasida ma'lum tushunchalarni ifoda qiluvchi so'z va ifodalar o'zbek tilida mavjud bo'lishiga qaramasdan boshqa tillardan so'z va iboralar, ilmiy tushunchalarni bildiruvchi so'zlar qabul qilingan.

³⁰ Бегматов Э. Хозирги узбек адабий тилининг лексик қатламлари. -Тошкент: Фан, 1985. Б. 103.

O'zbek tili leksikasida arabcha so'zlar alohida o'rin tutadi. Bu haqda fikr yuritishdan avval atoqli tilshunos olimlar B. O'rinboyev, R. Qo'ng'urov, J. Lapasovlarning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli bo'ladi: «Matnni tahlil qilishda konkret tarixiylikka amal qilish kerak. Matnlar turli davrlarda jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda har xil bo'lishi mumkin. Matnlar tarixan shakllangan adabiy tilning turli ko'rinishlari bo'lib, fikrni ifoda etish jarayonida nutq tuzilishining o'ziga xosligi bilan farqlanadi. Har qanday matn tarixiy hodisa bo'lib, u ma'lum tarixiy sharoit bilan bog'liq bo'ladi. Matnga mavzu bo'lgan tarixiy voqealar muayyan davrning mahsuli hisoblanadi. Shu bilan birga, matnning o'zi ham tarixiy adabiy fakt sifatida hayotga ma'lum darajada ta'sir qiladi. Biror tarixiy davrni tushunish o'sha davr hayotini o'rganish uchun birgina matndagi voqealar tasviri kifoya qilmaydi, lekin tasvirlanayotgan davr haqida salmoqdor material berishi mumkin. Chunonchi, Oybekning «Navoiy» romani XV asrdagi hayot va kurash haqida to'la bo'lmasa-da, ma'lum tushuncha beradi. Matnni tahlil qilishda tasvirlangan voqelik, uni maydonga keltirgan tarixiy sharoit, asardagi personajlar, yozuvchining ularga munosabati kabi masalalarga alohida e'tibor berish lozim. Bundan tashqari, tahlil qilinayotgan matnda ma'lum davr til sistemasining aks etish darajasini ko'rsatish kerak. Tahlilda diaxroniya (tarixiylik) va sinxroniya (zamonaviylik) ning chegarasini belgilash, har bir til birligiga shu nuqtai nazardan baho berish lozim bo'ladi»³¹.

Tilimizga yuqorida qayd qilingan antonim so'zlarning kirishi va o'z so'zlarimiz qatoridan mustahkam o'rin egallashi xalqimiz hayotida sodir bo'lgan turli siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon ham tilimiz lug'aviy tarkibining boyishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'rinadiki, antonimlar o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa birliklardan ajralib turadi. Bu o'ziga xosliklar ularning shakliy va ma'naviy jihatdan har xilligida va ma'nolarda ziddiyat mavjudligida namoyon bo'ladi.

Antonimiya mezonini belgilashda H. Jamolxonov tomonidan olg'a surilgan mantiqiy markaz tamoyiliga amal qilishni lozim deb hisoblaymiz. Olim o'z

³¹ Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. -Тошкент: Ўқитувчи, 1990. Б. 15.

kuzatishlarida bu tamoyilning Sh. Rahmatullayev, N. Mamatov va R. Shukurovlar tomonidan tavsiya etilganligi va u yaxshi natijalar berishi mumkinligini qayd etadi. Olim tavsiya etgan bu tamoyilga ko`ra antonimik munosabatga kirishgan ikkita ma`no o`rtasidagi oraliq tushuncha ( mantiqiy markaz) aniqlanadi va shu markazning ikki tomonidan o`rin olgan tushunchalar o`zaro antonimik munosabatlarda deb qaraladi³².

Nizomiddin Mahmudov, Abduhamid Nurmonov, Abdulhay Sobirov, Valijon Qodirov, Zamira Jo`raboyevalar tomonidan umumiy o`rta ta`lim maktablarining 5-sinfi uchun yaratilgan “Ona tili” darsligida antonimlarga quyidagicha ta`rif berilgan: Qarama-qarshi ma`noli so`zlarga zid ma`noli so`zlar deyiladi. Zid ma`noli so`zlar doimo ikki qarama-qarshi a`zodan iborat bo`ladi. Birini aytsak, ikkinchisi xayolimizga keladi. Masalan; *achchiq* deyishimiz bilan *shirin* esimizga tushadi. Zid ma`noli so`zlar birgalikda qo`llanib, yangi so`z hosil qilishi mumkin. Masalan: yosh-u qari - bari, achchiq-chuchuk -ovqat turi, uzoq-yaqindan - hammayoqdan kabi.³³

Darslikda qo`llangan mashqlar tarkibidagi misollarda zid ma`noli so`zlar turlarga bolingan: a) so`z birikmalariaro antonimlik; b) so`z turkumlariaro antonimlik v) hajm-o`lchov va payt bildiruvchi so`zlarda antonimlik kabi. Masalan, So`z birikmalarida: *Yaxshi so`z - jon ozig`i, yomon so`z - bosh qozig`i. Do`st achitib gapirar, dushman – kuldirib gapirar. Oz so`zla, ko`p tingla. E`skisiz yangi bo`lmas, yomonsiz yaxshi.* So`z turkumlarida: *Mehnatsevar-dangasa (sifat); kelmoq – ketmoq (fe`l); yolg`onchi-rostgo`y (sifat); ost-ust (ravish); toza-iflos (sifat); urush-tinchlik (ot); kulmoq-yig`lamoq (fe`l).* Hajm-o`lchov payt

yo`g`on – ingichka

kecha-kunduz

katta – kichik

avval - keyin

ozg`in-semiz

ilgari-hozir

baland-past

tonggi - tungi

Akademik litseylarning “Hozirgi o`zbek adabiy tili” darsligida antonim so`zlar quyidagicha tavsif berilgan: Antonimlar (zid ma`noli so`zlar) - grekcha anti - "zid

³² Жамолхонов Х. Хозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент: Талқин, 2005. Б. 170.

³³ Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo`raboyeva Z. Ona tili. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. –Toshkent: Ma`naviyat, 2011. B. 180-181.

qarama-qarshi", onoma yoki onuma "nom" degani bo`lib, qarama qarshi tushunchalarni ifodalaydigan so`zlardir. Antonimik juftlikdagi so`zlar faqat bir xil so`z turkumlariga oid bo`ladi: er-osmon (ot) uzun-qisqa (sifat), ko`p-oz (ravish), keldi-ketdi (fe`l).

Antonimik juft hosil bo`lishi uchun ikkita mustaqil tushuncha ma`no jihatdan o`zaro qarama-qarshi bo`lishi kerak. Fe`llardagi bo`lishli-bo`lishsizlik xususiyati antonimlikni vujudga keltirmaydi.³⁴

Biz o`zimizni qurshab turgan olamni sezgi a`zolarimizning bosh miyamizga bergan axboroti yordamida bilib boramiz. Bilish jarayonida narsa va hodisalarni, harakat-holatlarni, belgi va xususiyatlarni bir-biriga zidlash, ularning o`zaro o`xshash va farqli tomonlarini aniqlash katta ahamiyatga ega. Bizning butun bilim faoliyatimiz zidlanishlarga asoslangan desak, yanglishmaymiz. Shuning uchun zidlanishlarga bizning ajdodlarimiz Abu Nasr Farobiy, Jaloliddin Rumi va boshqalar katta ahamiyat berganlar, xususan, Jaloliddin Rumiyni ta`kidlashlaricha, har qanday "ashyo"ning qimmatini ziddi bilan ayon bo`ladi, ziddi bo`lmagan narsani ta`rif etish imkoniyatdan tashqaridadir. Tangri nurning oshkor bo`lishi uchun qorong`i etib yaratilgan mazkur olamni mavjud ayladi. Odam ro`parasida Iblisning, Muso qarshisida Fir`avnni, Ibrohim oldida Namrudning va Mustafo qarshisida Abu Jahlning paydo bo`lishini bunga misol qilib keltirish mumkin.

Ana shunday zidlanishlar tilimizda ham o`z ifodasini topgan. Birini aytishimiz bilan uning ziddi xayolimizga keladi. Masalan, *oq -qora, uzun -qisqa (kalta), baland-past, dono-ahmoq; li (suvli), -siz (suvsiz)* va boshqalar.

Ko`p ma`noli so`zlar har bir ma`nosi bilan ayrim-ayrim so`zlarga antonim bo`lishi mumkin: qattiq yer - yumshoq yer; qattiq (xasis odam - saxiy odam). Antonimik juftlar ko`chma ma`no ifodalab, yangi so`zlar hosil qilishi mumkin: tun-ukun – "hamma vaqt" ma`nosida; achchiq-chuchuk - "salat" ma`nosida; yosh-u-qari - "hamma" ma`nosida, uzoq-yaqin – "hamma yoqdan" ma`nosida.

Sh. Shoabdurahmonov va boshqalar tomonidan yaratilgan "Hozirgi o`zbek tili" darsligida antonim va antonimiya tushunchalari quyidagicha izohlangan:

³⁴ Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Akademik letsiylarning 2-bosqich talabalari uchun darslik. –Toshkent: Ilm Ziyo, 2010. B. 78-79.

“O`zaro qarama-qarshi (zid) ma`noli so`zlar antonimlar deyiladi. So`zlarning bunday munosabatda bo`lish hodisasi antonimiya deyiladi: *yaxshi-yomon, baland-past, oz-ko`p, yoz-qish, xursand-xafa, olmoq-bermoq, kelmoq-ketmoq* kabi”.³⁵

Darslikda antonimiya hodisasi asosida birdan ortiq so`zlar o`rtasidagi zidlik munosabati yotishi qayd etilar ekan, ko`p ma`noli so`z har bir ma`nosi bilan boshqa so`zlarga antonim bo`la olishi ko`rsatiladi. Asarda antonimlikning bir sinonimik qatorga kiruvchi so`zlarning boshqa bir so`z yoki boshqa sinonimik qatorga kiruvchi so`zlar bilan antonimik munosabatga kirisha olishi misollar asosida ko`rsatiladi.

Masalan: *xafa* so`zi o`zaro sinonim bo`lgan *xursand-xushvaqt-shod-xurram-xushnud* so`zlariga antonimdir; *chiroyli-go`zal-husndor-husnli-xushro`y-ko`hli-ko`rkam-barno-suluv-zebo-latofatli-sohibjamol* sinonimik qatoridagi har bir so`z *xunuk-badbashara-badburush-badqovoq-tasqara-bedavo-ta`viya-beo`xshov-beso`naqay-sovuq-badsurat-nadomat* sinonimik qatoridagi har bir so`zga antonimik munosabatda bo`la oladi.

Asarda olimlarning antonimlar va inkor hodisasi to`g`risidagi fikrlari e`tiborga molik. Mualliflar ular orasidagi farqni quyidagicha ko`rsatadilar: “Antonimiyada o`zaro zidlik bo`lishi aytiladi, zero zidlikda esa biri ikkinchisini inkor etish hodisasi ham seziladi. Lekin bu ikki hodisa tamoman bir-biridan farq qiladi. Tasdiq va inkor etish tilda bor hodisa. Lekin u antonimiyani yuzaga keltirmaydi. Chunki antonimiya asosida o`zaro zid bo`lgan, lekin bir-birini inkor etmaydigan ikki narsa-hodisa yotadi. Masalan: *kelmoq va ketmoq* — antonim. Lekin keldi deyilganda ketish harakati inkor etilmaydi, bu harakatga, umuman, munosabat ifodalanmaydi. Inkorda esa o`zaro aloqadagi ikki narsa, belgi yoki harakat emas, aynan bir predmet, belgi yoki harakatning o`zi inkor etiladi. Masalan: *olmadi* deyilganda berganlik ifodalanmaydi, balki shu harakat (olish)ning o`zi inkor etiladi. Bu esa antonimiyani yuzaga keltirmaydi.

Xullas, antonimiyada uch xil belgi bor: 1) shakliy (fonetik strukturasi) jihatdan har xillik; 2) ma`nosi jihatdan har xillik; 3) ma`nodagi o`zaro zidlik. Ana shu oxirgi

³⁵ Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент: Ўқитувчи, 1980. Б. 118.

belgi antonim soʻzni oʻzaro birlashtiradi, yaʼni qarama-qarshi maʼnoli birlik qiladi”.³⁶

Oradan oʻn yildan koʻproq vaqt oʻtgach, U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Rahmatullayevlar tomonidan yaratilgan “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” darsligida antonimlar quyidagicha taʼriflangan: “Til birliklarining oʻzaro zid munosabatdagi maʼnolarni anglatishi asosida guruhlanishiga antonimlar deyiladi (yunoncha anti–zid”, “qarshi”, onuma–“ism”)”.³⁷ H. Jamolxonovning “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” darsligida esa antonimlar tavsifi “Leksik antonimiya leksemalarning bir-biriga zid maʼno anglatishidir: *oq va qora, qalin va yupqa* kabi” tarzida izohlanadi. Demak, qarama-qarshi maʼno bildiradigan soʻzlar biri ikkinchisiga nisbatan antonim deyiladi: *katta-kichik, uzoq-yaqin, chap-oʻng, sogʻaymoq-kasal boʻlmoq, muhabbat-nafrat* kabi” tarzida beriladi.³⁸ H. Jamolxonov antonimlarning yuzaga kelish sabablari haqida fikr yuritganda, asosan, leksik antonimlarni koʻzda tutishi seziladi. Olim antonimiya hodisasining, asosan bir turkum doirasida yuz berishini taʼkidlaydi va oʻzaro zid maʼno ifoda etmagan leksemalarning maʼlum kontekst ichida soʻzlovchi yoki muallif tomonidan antonimik munosabatlarga kiritilishi kontekstual antonimlarni hosil qilishini misollar asosida tahlil etadi.

³⁶ Шоабдурахмонов Ш., Аскарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент: Ўқитувчи, 1980. Б. 118-119.

³⁷ Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент: Ўзбекистон, 1992. Б. 120.

³⁸ Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент: Талқин, 2005. Б. 170.

BOB BO`YICHA XULOSA

1. O`zbek tilshunosligida antonimiya hodisasini o`rganish bo`yicha ma`lum bir ishlar amalga oshirilgan bo`lsa-da, haligacha bu hodisaning mohiyatini to`la yoritilgan deb bo`lmaydi. Antonimiya hodisasini belgilashda tilshunoslikda bir-birini inkor qiluvchi, zid fikrlar ham mavjud. Ayrim ishlarda antonimiya hodisasi va antonimlar mohiyatni yoritishda biryoqlama, ya`ni leksik antonimlar nuqtayi nazaridan yondashuvlar kuzatiladi. Ba`zi darslik va o`quv qo`llanmalaridagi yo`l-yo`lakay bildirilgan ayrim fikrlarni hisobga olmaganda grammatik antonimiya haligacha tilshunoslarimiz e`tiboridan chetda qolib ketmoqda.

2. Antonimiya hodisasining yuzaga kelishida differensial, ya`ni farqlovchi semaning mavjud bo`lishi komponentlarning o`zaro zidlik munosabatiga kirishiga asos bo`ladi. Leksik antonimlar bo`yicha bildirilgan fikrlarga asoslanib, quyidagi ziddiyatlar turlarini ko`rsatish mumkin: a) darajalangan ko`rinishdagi qarama-qarshiliklar; b) bir so`z turkumidan boshqa so`z turkumiga o`tgan so`zlardagi qarama-qarshiliklar; v) bir tushunchaning dixotolik holatiga asoslangan qarama-qarshiliklar.

3. Antonimlarning mantiqiy asosini kontrar qarama-qarshilik va komplementar qarama-qarshiliklar tashkil etadi.

4. Antonimiya hodisasi doirasida qaraluvchi birliklar og`zaki va yozma nutqda so`zlovchi yoki yozuvchining ma`lum bir voqea-hodisalarni, qahramonlar xarakter-xususiyatini bir-biriga qarshilantirish, zidlash asosida turli murakkab vaziyatlarni, holatlarni tasvirlashga keng imkoniyatlar yaratib beradi.

5. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda lug`aviy antonimiya leksik antonimiya, frazeologik antonimiya, leksik-frazeologik antonimlar kabi turlarga ajratiladi.

6. Leksik antonimlarni tuzilishiga ko`ra: a) O`zaro antonimik munosabatga kirishgan so`zlar tub so`zlardan iborat bo`lgan antonimlar; b) Birinchi komponenti tub so`z bo`lgan, ikkinchi komponenti esa yasama so`zdan iborat antonimlar; v) Har ikki komponenti ham yasama so`zlardan tashkil topgan antonimlar; g) Har ikki komponenti ham qo`shma so`zlardan iborat bo`lgan antonimlar; d) Har ikki qismi juft so`zlardan tashkil topgan antonimlar; e) Har ikki qismi takroriy so`zlardan tashkil topgan antonimlarga ajratish mumkin.

7. Antonimlar yuzaga kelishining uch yo`li mavjudligi ma`lum bo`ladi. Ular quyidagilar: 1. Antonimlarning yuzaga kelishida tilning lug`at tarkibida qarama-qarshi ma`noli so`zlarning azaldan mavjud bo`lishi; 2. So`z yasalishi qoidalari asosida antonimlar hosil qilinishi; 3. Boshqa tillardan so`z o`zlashtirish natijasida antonimlar yuzaga kelishi.

IKKINCHI BOB

Hozirgi o'zbek tilida grammatik antonimiya

2.1. Ziddiyat nazariy tadqiqot ob'yekti sifatida

Mohiyatan olganda, antonimiyada ziddiyat asosiy masala hisoblanadi. Shuning uchun sof antonimiyani o'rganishda ziddiyatni tadqiq qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Ziddiyat, yuqorida qayd etilganidek, tabiat, jamiyat va inson tafakkuri uchun xarakterli xususiyat bo'lib, uning yordamida shu hodisalarning tub mohiyati ochib beriladi.

Ziddiyat (qarama - qarshilik) tushunchasi antonimlar haqidagi ta'limotning asosini tashkil qiladi. Shuning uchun mazkur lisoniy hodisani o'rganishdagi eng muhim vazifalardan biri uning mohiyati talqinidir. Shunga ko'ra biz quyida antonimiya tushunchasining leksikografik talqinini ko'rib chiqamiz.

Falsafa lug'atlariga murojat etamiz. Falsafa ilmiga ko'ra falsafiy kategoriylar - bilishning kishilar hissiy, moddiy faoliyati hamda ijtimoiy amaliyot asosida kechadigan tarixiy taraqqiyot hosilasidir [Koxanovskiy 1990, 210].

Faylasuflar mohiyat deganda o'zaro munosabatda bo'lgan obektlarga xos umumiylikni tushunadilar. Binobarin, qarama-qarshi tomonlarning har bir ikkinchi tomon mavjud bo'lgandagina ko'zga tashlanadi. (ijobiy-salbiy, zaruriy-tasodifiy). Shu bilan birga ular bir-birini to'ldiradi, taqozo qiladi va ayni paytda biri ikkinchisini inkor qiladi. "Noveyshiy filosofskiy slovar"da antonimiyaga shunday ta'rif beriladi: "Antonimiya (yun. antonimiya qonundagi ziddiyat) bilishda ziddiyatning mavjudligi va tarqqiyoti shakli: ikki hukm (qaror) tomonidan hosil qilinadigan ziddiyat bu ziddiyatning har biri haqiqiy deb e'tirof etiladi. Dastlab antonimiya termini yuridik hujjatlarda qo'llangan. Bu termin bilan ikki yuridik qonun yoki ayni qonunning ikki moddasi orasidagi ziddiyat ifodalangan" [Belyaev 1999, 30]. Yonon hukmdori Yustinian tomonidan yozilgan kodeksda qonun o'zicha zid bo'lgan holatlar antonimiya termini bilan ifodalangan. Qadimgi yunonlar antonimiya bilan **aporiya** tushunchalarini bir - biriga yaqin tushunchalar deb talqin qilishgan.

Aporiya termini xulosalarning zidligini emas, balki ularning teng manoli ekanligini anglatgan. Masalan, Zenonning mashhur aporiyalarida birlik va ko'plik

orasidagi ziddiyatlar ochib berilgan. Kannt asarlarida antonimiyaning falsafiy maqomi tahlil qilingan va mazkur termin bilan u inson ongidagi eng kuchli ziddiyat ifodalangan ("Sparrazumi si samir saboy" - ongning o'zi bilan o'zi bahslashishi). Gegelga ko'ra ham aslida har qanday tushuncha har qanday kategoriya mohiyatan ziddiyatlidir va bu bilish jarayonining dialektik xarakterda ekanligini ko'rsatadi. Ziddiyat, Gegel takidlaganidek, "Har qanday harakat va borliqning o'q ildizini tashkil qiladi".

Buyuk shaxslarning aforizmlari (hikmatli so'zlari) antonimiyaning hayotdagi eng yorqin namunasidir. Suqrotning shunday fikri bor: "Men shuni yaxshi bilamanki, hech narsani bilmayman" aforizmi fasasfiy antonimiyaning eng yorqin namunasidir. V.G. Belyayevning quyidagi so'zlari antonomiya mohiyatini tushunishda o'ziga xos dastur vazifasini o'taydi: "Важнейшим моментом научного понимания природы антонимия является признание неравноценности тезиса и антитезиса, из которых она складывается. Одно сторона антонимия всегда превалирует (доминирует) над другой, включает в себя другую. Так, концепцию развития следует трактовать в плане единства прогресса (тезис) и регресса (антитезис) с преобладанием (в данном контексте) первого над вторым. Бесконечное включает конечное, необходимость - свободу, целое - часть, содержание - форму, причина - следствие и т. п." [Беляев 1999, 31].

Anglashiladiki, falsafa har qanday hodisada yashiringan ziddiyatli kuchni aniqlashni taqozo etadi. Shuning uchun ziddiyat mazkur fanning asosiy tushunchalaridan hisoblanadi.

Ziddiyatli (antonimik) xaraterdagi kategoriyalarni o'rganish uchun, eng avvalo, ob'ektiv borliqdagi mavjud qarama-qarshi tomonlarni topish lozim bo'ladi. Bu tomonlar manbalarda ko'rsatilishicha quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Averyanovning yozishicha ziddiyatli holatlar umumiylik va xususiylik - o'xshashlik va farqlilikning birligi sifatida nomoyon bo'ladi. Birlik (yaxlitlik) kategoriyasi ziddiyatlarning ma'lum butunlikka mansubligini hamda ularning o'zaro bog'liq va shartlanganligini ifodalaydi. Narsa va hodisa qarama-qarshi tomonlarining

har biri o`zining antonimi (zidi) bo`lganida muayyan mohiyat kasb etadi. (yaxshiyomon, tasdiq-inkor va b.) [Aver'yanov 1985, 132].

2. Butunlikni hosil qiluvchi ziddiyatlar nafaqat bir-birini to`ldiradi, taqozo etadi, shuningdek, bir-birini inkor ham etadi. Bu esa falsafadagi qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunining amaldagi ifodasidir. Ushbu qonun, o`z navbatida, ob'ektiv, inson irodasiga bo`ysunmaydigan xarakterdadir.

3. Ob'ektiv ziddiyatlarning amal qilish doirasi juda keng. Ularni, Lejebokovning yozishicha, quyidagi etti guruhga bo`lish mumkin:

- 1) mikroolamdagi ziddiyatlar;
- 2) mexanik harakat bilan bog`liq ziddiyatlar;
- 3) fizik jarayondagi ziddiyatlar;
- 4) materiya harakatining kimyoviy shaklidagi ziddiyatlari;
- 5) harakatning geologik shaklidagi ziddiyatlar;
- 6) harakatning biologik shaklidagi ziddiyatlar;
- 7) ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlar. [Bu ziddiyatlarning xarakteri haqida qarang: Lejebokov 1971, 145; Alekseev 1996, 471].

Narsa va hodisa tabiatdagi ziddiyotlar intensivlik (jadallik) darajasiga ko`ra ham turli-tumandir. Masalan, Averyanov bunday ziddiyatlarning quyidagi turlari mavjud ekanligi haqida yozadi:

keskin ziddiyat - o`zaro bog`liq qarama-qarshi tizimlarning murosaga keltirish qiyin bo`lgan xususiyatini ifodalaydi. (ezgulik - yovuzlik, yirtqichlik - qurbonlik, elektron - pozitron kabi);

teng qiymatli ziddiyat - narsa va hodisa qarama - qarshi tomonlarini o`zaro muvofiqlashtiradi. Ziddiyatning bir turi qachon bo`lsa ham ziddiyatning boshqa turiga o`tadi. (ildiz - ta`na, assimilyatsiya - dissimilyatsiya, elektron - proton). Bunday bo`lishining sababi shuki, ob'ektiv borliqda ham biologik yoki ijtimoiy hayotda ham qotib qolgan shakl yo`q;

yashirin yoki xira ziddiyat – bunda qarama-qarshi tomonlarning o`zaro munosabati bir-biri bilan to`qnashganda nomoyon bo`ladi. [Bu haqida qarang: Aver'yanov 1985, 148-149].

Alohida takidlash joizki, ziddiyat, antonimiya o`zaro ta`sir (munosabat) shakli sifatida nafaqat qarama-qarshi tomonlarga taalluqli, chunki u har qanday tafovutning (farqning) botiniy (ichki) mohiyatini tashkil qiladi. Qarama-qarshiliklar chuqurlashib bog`langan sari o`ziga tafovutlar sifatida, keyin esa bevosita ziddiyatlar sifatida shakllanadi. Lejebokovning shu munosabat bilan aytgan quydagi fikrlarini keltiramiz: "Chunki bir tomon ikkinchi tomonning mavjudligi va qo`llanishining asosiy sharti hisoblanadi. Shuning bir tomonidagi o`zgarish muqarrar ravishda ikkinchi tomonning shakl va mazmuniga ta`sir qiladi". Shunday qilib, ziddiyatlar ayni paytda: a) o`zaro bog`langan; b) bir - birini inkor qiladigan; v) bir - biriga o`tib turadigan tomonlardir.

Ziddiyat tushunchasiga boshqa manbalarda, chunonchi, "Словарь русского языка" (t. III, p-r). Shunday ta`rif berolgan: "То, кто несходно или том, кто несходин с другим своим качествам, свойствам" (yani: o`z xossa va sifatlariga ko`ra boshqasiga o`xshamaydigan narsa yoki shaxs diologik ziddiyatning tomonlaridan biri). Bizga bog`liq bo`lmagan ziddiyatlarning mavjudligi va ularning o`rganish zarurati shu ziddiyatlarni til vositalari yordamida ifodalashni taqozo etadi. Biroq til V.V. Borodkinning yozishicha, ziddiyat darajasi qarama-qarshiliklar denamikasi va boshqalarni aks ettirish imkonini beradi. Bu ziddiyatlarni ifodalash vositasi esa har qanday tilda mavjud eng muhimi rangba-rangdir. Bu rangbaranglikni tartibga solish muayyan tizimga keltirish va tahlil qilish ziddiyatlar maydonini yasashni talab etadi. T.S. Korpenko ziddiyatlar deganda, umumiy o`zgarmas ma`no atrofida birlashgan turli tarkibli sintaktik qurilmalar majmuini tushunadi. Bu ma`no tillardagi ammo, lekin, biroq zidlov bog`lovchlar yordamida ifodalanadi.

Tilshunoslikda til belgilarining (so`z, gap) to`liq zidlanishi antonimiya sifatida qaraladi. Shmilyovning yozishicha, antonimlar oddiy tafovut (farqni) emas, balki muhim tafovutni ifodalaydi. Mana uning bu haqidagi so`zlari: "Eng umumiy va muhim belgilariga ko`ra qarama-qarshi qo`yiladigan so`zlar antonimlar bo`lishi mumkin".

E.N. Miller antonimlarning quydagi turlarini ko`rsatadi:

- ob'ektiv bo`liqda real mavjud qarama-qarshi hodisa, jarayon, xususiyat va shu kabilarni ifodalaydigan antonimlar (ko`tarish - pasaytirish, sustlashish - tezlashish);

- jamiyatda real mavjud qarama-qarshi hodisa, voqea kabilarni ifodalovchi antonimlar (do'stlik-dushmanlik, g'olib-mag'lub). Muallif bu antonimlarni (ob'ektiv va ijtimoiy) mutloq antonimlar deya ta'riflaydi [Qarang: Miller 1971, 19-20]

2.2. Morfologik antonimiya

Til birliklarining o'zaro zid munosabatdagi ma'nolarni anglatishi asosida guruhlanishiga antonimiya deyiladi. Antonimiya ikki til birligi orasidagi munosabatga asoslanadi. Bulardan biri ikkinchisiga antonim bo'lib, ikkisi birlikda antonimik juftlikni hosil qiladi.

Sh. Rahmatullaevning fikricha, antonimlar ikki turga bo'linadi:

1. Lug'aviy antonimiya – lug'aviy birliklarning o'zaro antonim bo'lishi: g'am-qayg'u, chiroyli-xunuk, arzon-qimmat kabi.

2. Grammatik antonimiya-grammatik birliklarning o'zaro antonim bo'lishi. Bu juda kam uchraydi: *dan-ga (tog'dan-tog'ga)*, *li-siz (insofli-insofsiz)*, *ba-be (bama'ni-bema'ni)*, *bo-ba (boodob-beodob)*, *dor-siz (unumdor-unumsiz)*, *li-no (o'rinli-noo'rin)*, *li-siz (batli-baxtsiz)*, *ser-siz (serhosil-hosilsiz)* kabi.

O'zbek tiliga doir darslik-qo'llanmalarning aksariyatida antonimiyaga berilgan ta'riflar bir-birini takrorlaydi. Ularning ko'pchiligida aosiy e'tibor lug'aviy (leksik) antonimlarga qaratiladi:

M.Irisqulovning ta'kidlashicha, dunyoda hamma narsa juftlik tamoyiliga asoslanadi. Juftlik borligi uchun taraqqiyot bor. Lekin har qanday juftlik ham rivojlanishga asos bo'lavermaydi. Faqat bir-birini bir vaqtning o'zida ham inkor, ham taqozo qiladigan juftlikkina rivojlanish va muvozanat asosi bo'ladi. Antonim so'zlar tilning leksik sathidagi ana shunday juftlikning oddiy namunasi. Masalan: *katta-kichik*, *to'g'ri-egri*, *keng-tor*, *oq-qora* va boshqalar. Antonimlarni ikki turga bo'lish mumkin, ya'ni asliy leksik antonimlar va yasama antonimlardir. [Qarang: Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. 1992, 107].

Tilshunosligimizda V.Humbolt, I.A.Boduen de Kurtine, F.de Sossyur kabi buyuk olimlarning ishlarida ko'p va xo'p ishlangan til sistemasi va tildagi sistemaviylik tushunchalari yasama antonimlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Falsafa nuqtayi nazaridan "sistema-qismlardan tashkil topgan butunlik";

muayyan butunlik va yaxlitlik hosil qiluvchi o`zaro munosabatdosh unsurlarning bog`lanish majmuidir. [Filos. Entsikl. slovar, 584]. Sistema tushunchasining dearli barcha fanlar uchun muhim ahamiyatini takidlar ekan, B.A. Plotnikov unga shunday ta`rif beradi: "Ma`lum butunlik hosil qiluvchi o`zaro bog`liq yoki botartib elemintlar majmui".

Antonimiya asosida tabiatan mushtarak predmet, voqia, hodisa, sifat va belgilarning muhim farqlarini kontrastga (zid ma`nolilikka) ko`ra bog`lanishlar yotadi. Antonimiya eng muhim lingvestik uneversiyalardan, turli leksik-semantik sistemaning juda muhim o`lchamlaridan biridir.

So`z yasovchi antonimlar sarasida uyali antonimiya, yani so`z yasovchi uyalar antonimiyasi alohida o`rin egallaydi. O`zbek tilida ular asosida sifat yasovchi antonimlarni tartibga solish mumkin. A.N. Tixonov va E.A. Emel'yanovlarning kuzatishlariga qaraganda, "So`z yasovchi antonimlarda, yani o`zlaricha antonimik munosabatlarni ifodalamaydigan, yasamalarigini zid munosabatni ifodalagani uchun antonim deb ataladigan yasama so`zlar ko`pchilikni tashkil qiladi." Masalan, *unumli*, *unumdor*, *serunum* so`zlariga *kamunum*, *unumsiz*, *beunum* so`zlari yoki *baodob*, *boodob*, *odobli* so`zlariga *beodob* *odobsiz* so`zlari zid ma`noli bo`lib, ma`lum bir sistemani tashkil qiladi.

O`zbek tilda ham affiksial antonimlar boshqa tillardagi kabi sistema sifatida mavjud bo`lib, o`ziga xos xususiyatlari bilan so`z antonimlardan tubdan farq qiladi. Bu farqlanuvchi xususiyatlarni o`zaro qiyoslaganda yanada yaqqolroq ko`zga tashlanadi, yani: a) tovush strukturasi va sostaviga ko`ra: (so`z antonimlar: yaxshi-yomon katta-kichik, affiksial antonimlar: aniq-noaniq, unumli-unumsiz); b) qarama-qarshilik ma`nosiga ko`ra: (so`z antonimlardan qarama-qarshi ma`no o`zak negiz doirasida ifodalanadi; affiksial antonimlarda esa antonimik munosabat affikslar semantikasi doirisida ifodalanadi); v) bir ma`nolilik va ko`p ma`noligiga ko`ra: (so`z antonimlar ko`pincha polisemantikdir (qalin (soch) -siyrak; qalin (taxta) -yupqa); affiksial antonimlar esa monosimantikdir (*xatarli-xatarsiz*, *xabardor-xabarsiz*).

Tilshunosligimizda affiksial antonimiyaning zid ma`no ifodalaydigan komponentlari o`zaro qarama-qarshigina bo`lib qolmay, o`zaro oppozitsion holatga

ham egadir. Masalan, *xavfli, vafodor, sermahsul so`zlari o`zlarining xavfsiz, bevafo, kammahsul* kabi antonimik variantlari mavjudligini doim toqozo etadi.

Antonimik affikslarni ularni tarixiy kelib chiqishi nuqtayi nazaridan ikki guruhga bo`lish mumkin:

1. O`zbek tili antonimik affikslari. Ular faqat *li* va *siz* suffikslari bo`lib, ot o`zaklarga qo`shilish yo`li bilan zid ma`noli sifatlar hosil qiladi, masalan, *ishonchli-ishonchsiz, barakali-barakasiz* kabi.

2. Chet tilidan o`zbek tiliga o`zlashib qolgan antonimik affikslar:

a) arab tilidan o`zbek tiliga o`zlashib qolgan antonimik affikslar. Bular *g`ayri* va *aksil* prifikslari bo`lib, birinchi komponenti "nollashgan" qismga affiksni qarama-qarshi qo`yish bilan zid ma`no yuzaga keladi: *axloqiy-g`ayriaxloqiy, inqilobiy-aksilinqilobiy* kabi.

b) fors-tojik tilidan o`zbek tiliga o`zlashgan antonimik affikslar. Ular, asosan, *ba-*, *bo-*, *be-*, *bar-*, *xush-*, *ser-*, *kam-* prifikslari bo`lib, qarama-qarshi ma`no mazkur prifikslarni bir-biriga zid qo`yish yo`li bilan hosil qilinadi: masalan, *boodob-beodob, barva?t-beva?t, xushbo`y-badbo`y, sersuv-kamsuv* kabi. Bundan tashqari, "nollashgan" affiksga no prifiksini va tojik tilidan kirib kelgan *dor* suffiksiga o`zbek tilidan *siz* suffiksini qarama-qarshi qo`yish bilan antonimik juftlik yuzaga keladi, masalan, *loyiq-noloyiq, vafodor-vafosiz* kabi.

v) rus tili orqali o`zbek tiliga o`zlashib qolgan antonimik affikslar. Bular asli grekcha *anti* va lotincha *kontr* prifikslari bo`lib, ularda juftlikning birinchi komponenti "nollashgan" bo`ladi, masalan, *kompyutor-antikompyutor, tsiklon-antitsiklon, monarxist-antimonarxist, revolyutsion-kontrrevolyutsion* kabi.

Mantiq ilmida "nozidlik qonuni" qarama-qarshi va zid mulohazalarga nisbatan qo`llaniladi. Bunda qarama-qarshi mulohazalarning har ikkalasi xato bo`lishi mumkin, o`zaro zid mulohazalar esa bunday bo`lmaydi, yani ulardan birining xatoligidan ikkinchisining chinligi kelib chiqadi. Bu holat affiksal antonimlar uchun ham xarakterli hisoblanadi. Masalan, "G`uborsiz tog` havosi haddan tashqari tiniq edi" va "G`uborli tog` havosi haddan tashqari tiniq edi"- bu zid mulohazalardir. Ushbu antonim fikrlardan har ikkalasi bir paytda xato bo`lmaydi. Ulardan birinchisi chin

bo'lganligi uchun, ikkinchisi o'z-o'zidan xato bo'ladi. "Nurmat tog'a omadli edi" va "Nurmat tog'a omadsiz edi" mulohazalarining esa har ikkalasi bir vaqtda, bir xil nisbatda xato bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi misollardan kelib chiqib, antonimiya hodisasi narsa-predmet, voqia-hodisa, harakat va holatlarning faqatgina zidlanishini emas, balki ulardan birining xatoligi ikkinchisining chinligiga olib kelishini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, qarama-qarshi ma'no ifodalaydigan affikslar ma'lum antonimik qatordagi bir xil o'zakli so'zlarning o'zaro ichki bog'lanishlari lug'at sostavini boyitishgagiana xizmat qilib qolmasdan, fikr asoslashning qulay usuli ekanligidan dalolat beradi.

Antonimiya til birliklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo'lib, iboralarda ham so'zlardagi darajada ham qolaversa, affikslarda uchraydi. Antonimiyani belgilash, bir tomondan, iboralarning lugaviy ma'nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchi tomondan, polisememiyada bir iboraning ma'nolarini o'zaro farklashda yordamlashadi, uchinchi tomondan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi.

Tilshunoslikda antonimiya hodisasining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan ishlarning asosiy qismida tahlil uchun badiiy matnlardan foydalanilgan. Chunki badiiy matnlarda qarshilantirishni yuzaga keltirishda bir turkum doirasidagi birliklar bilan chegaralanib qolmay, o'rni bilan turli turkumga oid birliklarga ham murojaat qilinadi. Ayrim tadqiqotlarda bunday holatlar to'g'risida ham fikr yuritilib, ularning faqat nutqiy vaziyatda ayrim matnlarda namoyon bo'lishi ta'kidlangan. M. Yo'ldoshevning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinlidir:

Badiiy matn, ma'lumki, badiiy uslub talablari, qoliplari asosida shakllantiriladi, shuning uchun unda poetik, romantik, tantanavor ifoda shakllaridan keng foydalaniladi. So'zlarning tanlanishi, gap tuzilishi, leksik-semantik, ritmik-intonatsion birliklarning qo'llanishi ham mazkur uslub talablaridan kelib chiqadi. Badiiy matnning lisoniy xususiyatlaridan eng muhimi ham shundaki, unda emotsional bo'yoqdor so'zlarga, sheva so'zlariga, tarixiy va arxaik so'zlarga, jargon va argolarga, ko'chma ma'noli so'zlarga, ma'nodosh, shakldosh, o'xshash talaffuzli va zid ma'noli so'zlarga, shuningdek, ibora, maqol-matal va aforizm kabi

barqaror birliklarga keng o`rin beriladi.³⁹

Quyida grammatik antonimlarga yondosh bo`lgan hodisalar to`g`risida so`z yuritamiz. Badiiy matnni yaratishdan maqsad ijtimoiy hayotda bo`layotgan o`zgarishlar, turli insoniy munosabatlar, tabiat tasviri, voqelikning turli ko`rinishlarini badiiy ifodalash va shu orqali kitobxonda ma`lum bir his-tuyg`ularni uyg`otish, uni ta`sirlantirishdan iboratdir. Shuning uchun badiiy ijod namunasi bo`lgan matnda qo`llanilgan har bir til birligi ma`lum vazifani bajarishga xoslanadi. U so`zlovchining kommunikativ maqsadiga erishishida muhim uslubiy vositaga aylanadi. Muallifning badiiy matnni yaratishdan ko`zlagan maqsadi u tomonidan o`rinli qo`llanilgan lisoniy vositalar yordamida oydinlashadi. Shu maqsadga bo`ysundirilgan til birliklari yordamida kitobxon ko`z o`ngida tabiatning turli takrorlanmas lavhalari qad rostlaydi, qahramonning nafaqat tashqi ko`rinishi, balki uning ichki dunyosi, quvonchi-yu g`azabi, tashvishu iztiroblari o`z badiiy ifodasiga ega bo`ladi. Ana shunday vaziyatda matnda ishtirok etuvchi har bir til birligi o`ziga xos “yuk” olib, badiiy-estetik ta`sirchan vositaga aylanadi. Ijodkor qahramonlar ruhiyatini ochib berishda, ularning hayotidagi ziddiyatli vaziyatlarni, xarakter-xususiyatidagi qarama-qarshi nuqtalarni yoritib berishda ularni kitobxon tomonidan tez va oson tushunilishini ta`minlash maqsadida eng qulay yo`lni axtaradi. Tilimizdagi mazmunan qarama-qarshilik asosida yuzaga keluvchi lisoniy hodisalarni anglatuvchi vositalar ana shunday hollarda ijodkorga juda qo`l keladi. Tilimizda keng ma`noda antonimlik ko`rinishlarni ifodalovchi antiteza, oksyumoron, antisemiya, enantosemiya kabi hodisalar ham borki, ularni ko`rib o`tish orqali grammatik antonimlarning til tizimida tutgan o`rmini belgilash hamda o`ziga yondosh hodisalarga munosabatini aniqlash mumkin. Ana shu vositalardan biri antitezadir. O`zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi bo`yicha yaratilgan tadqiqotlarda bu hodisaga berilgan ta`riflar deyarli bir-biridan farq qilmaydi. Bu ta`riflar biri ikkinchisini to`ldiradi. Tilshunos olim A. Hojiyev bu hodisa mohiyatini quyidagicha izohlaydi:

Antiteza. (yun. Aptithesis – qarama-qarshi quyish). Qiyoslanuvchi fikr, tushuncha kabilarni qarama-qarshi qo`yishdan iborat uslubiy qo`llanish: Yaxshi topib

³⁹ Ёўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. -Тошкент, 2007. Б. 35.

gapirar, yomon qopib gapirar. Do'st bo'lish oson, uni saqlash qiyin.⁴⁰

O'zbek tilining tasviriy vositalari bo'yicha kuzatishlar olib borgan R. Qo'ng'urov mazkur hodisa mohiyatini ochib berishda uning badiiy matnlarda tutgan o'rniga alohida diqqat qilganligi seziladi. Olim bu hodisani shunday tushuntiradi: Antiteza poetik sintaksisning bir ko'rinishi hisoblanadi, u nutqda ifodalilikni kuchaytirish uchun logik jihatdan qarama-qarshi tushunchalarni, fikr obraz, predmetlarni va shaxslar xarakterlarini qiyoslash yoki birgina predmet yoki hodisalarning daraja jihatidan qarama-qarshi holatini tasvirlashdir.

Klassik adabiyotimizda antiteza **tazod** termini bilan yuritilgan va u bir necha xil ko'rinishlarga ega bo'lgan.⁴¹

Adabiyot tarixi bo'yicha yaratilgan darsliklarda antiteza, ya'ni tazodning mumtoz asarlar uchun xos ekanligi qayd qilinar ekan, quyidagicha tavsiflanadi:

«Tazod usuli talabiga ko'ra, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki qutb - obraz, tushuncha, jism, jarayon va boshqalarning biri ikkinchisini rad etishi yoki inkor qilishi lozim. Lekin, ayni chog'da, ko'pincha bir-birini rad etuvchi yoki inkor qiluvchi ikki qutb o'rtasida qandaydir ichki yoki tashqi aloqa ham bo'ladi. Ulardan biri ikkinchisini keltirib chiqaradi. Navoiy tazodning bu spesifik xususiyatlariga to'la amal qilib, original lavha va obrazlar yaratadi. Misollar:

Jahonki, ohim bila tiyradur, emas mumkin —

Bu *shom* rafi` yuzung *subhi* bo'lmayin mavjud.

Bu baytda subh shomga qarama-qarshi qo'yilayapti. Biroq shomga ham, subhga ham yor sababchi, chunki uning hajri shomni bunyod etsa, (Oshiq hijron olamida oh chekaverib, olamni qorong'u qilgan), uning yuzi (yuz quyoshga o'xshatiladi) subhni bunyod etadi.²⁶

“O'zbek tili stilistikasi” kitobida antiteza hodisasiga ta'rif berilar ekan, uning atama sifatida til birliklarini qamrab olish doirasi ancha keng tushuntiriladi:

Antiteza. (Tazod.) Bu logik jihatdan qarama-qarshi bulgan ikki qutb (fikr, tushuncha, sezgi va obrazlar)ni qiyoslashdir. Bunda biri ikkinchisini rad etadi yoki

⁴⁰ Хожиёв А. Тилшунослик терминларнинг изоҳли луғати. -Тошкент, 2002. Б. 16.

⁴¹ Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. Тошкент: Фан. 1977. Б. 111.

inkor qiladi. Tarkibida antonimlar, grammatik zidlik munosabatini hamda tasdiq va inkor ifoda qiluvchi grammatik vositalar, shuningdek, ifodalilikning boshqa zidlash vositalari qo'llanadi: Uning hayoti baland-past bo'lishi kerak emas, to'g'ri bo'lishi kerak. (U. U.) Jamiyatni, undagi boyliklarni yaratgan, ijod etgan inson mehnatda, falokatda, azobda, halokatli ahvolda, xor-u zorlikda bo'ldi. Parazitlar esa rohatda, razolatda, qotillik faoliyatida. (V. 3.) Egri ozadi — to'g'ri o'zadi. (Maqol)⁴²

Aytish mumkinki, antonimiya hodisasi tilning hamma sathlarida u yoki bu ko'rinishda amal qilsa-da, ularning turli ma'no nozikliklarini ifodalash imkoniyatlari ko'proq badiiy matnlarda namoyon bo'ladi. Chunki badiiy matnlarda kitobxonga ma'lum voqea-hodisalar to'g'risida ma'lumot yetkazish bilan chegaralanib qolmaydi. Ularda kitobxonga badiiy-estetik ta'sir etish ham ko'zda tutiladi. Badiiy matnlarda qo'llanilgan har bir til birligi o'rni bilan ta'sirchan vositaga aylanadi va asar muallifining o'z oldiga qo'ygan maqsadining amalga oshishini ta'minlaydi. "Badiiy nutq obrazli nutqdir. Badiiy nutqning obrazlilik so'zlardan, grammatik formalardan o'z va ko'chma ma'nolarida maqsadga mos foydalanish, nutqda obrazli vositalarni, usullarni o'rinli qo'llash natijasida kuchayadi. Shunga ko'ra badiiy nutqda obrazlilikni ta'minlovchi ham lingvistik, ham stilistik faktorlar mavjud. Nutqiy obrazlilikni ta'minlovchi lingvistik faktor bevosita so'z qo'llash bilan bog'liq. Bu jarayon tilning so'z boyligidan (sinonim, antonim, omonim, paronim so'zlardan, frazeologizmlardan, so'z birikmalaridan) nutqqa mos qo'llash natijasida yuzaga keladi. Stilistik faktor bevosita obrazli vositalar, stilistik usullardan foydalanish natijasida vujudga keladi".⁴³

Antiteza usulida mullif qanday kommunikativ maqsadni ko'zda tutadi, degan savol tug'ilishi tabiiy, albatta. Ma'lumki, badiiy matnda, avvalo, ijodkor mazkur matn orqali o'quvchiga ma'lum bir shaxs yoki voqea-hodisa to'g'risida ma'lumot beradi va ifodalangan mazmunga nisbatan kitobxonda subyektiv munosabat hosil qiladi. A. Qahhorning "To'yda aza" hikoyasi o'z mazmun-e'tiboriga ko'ra bunga misol bo'ladi: "...nihoyatda istarasi issiq, nihoyatda dilkash chol... Muxtorxon domla nafsambiriga

⁴² Шомақсудов А., Расулов И., Қўнгулов Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. -Тошкент: Ўқитувчи, 1983. Б. 238.

⁴³ Бегматов Э.,Бобоева А.,Асомиддинова М.,Умуркулов Б.Ўзбек нутқи маданияти очерклари.Тошкент: Фан, 1988 ,Б.85.

(haqiqatan) odamning joni edi. Uning xushfe`lligi, to`poriligi... mahallada katta-kichik hamma bilan salomlashar, yoshi bilan yosh, qari bilan qari bo`lib gaplashar edi”. Anglashiladiki, hikoyaning bosh qahramoni Muxtorxon domla hikoyadagi voqealar silsilasini “Muxtorxon domla uylanarmish” gapi bog`lab turadi. Kitobxonni ajablantiradigan, unda qarama-qarshi tuyg`ularni yuzaga keltiradigan voqea tafsiloti quyidagi tartibda kechadi. “Muxtorxon domla faqat o`ziga emas, butun mahallaga husn bag`ishlaydigan soqolini qirdiribdi, boshida chamandagul do`ppi, egnida kalta va tor shim, katak ko`ylak, yengini baland shimargan istirohat bog`ida ikki shisha pivo ustidan yuz gramm aroqni bir otib, o`rnidan turib, gulchidan kattakon guldasta sotib olib, parkning orqasidagi jin ko`chaga kirib ketibdi”. Hikoyadan ma`lum bo`ladiki, Muxtorxon domlaning xulq-atvorida, o`zini tutishida o`zgarishlarninng yuzaga kelishiga uning o`zidan bir necha barobar barobar yosh juvonga–yigirma yoshlardagi o`z talabasiga uylanayotganligi sabab qilib ko`rsatiladi.

Ko`rinadiki, antiteza kitobxonda turli xil his-tuyg`ularning kelib chiqishida, unda tasvirlanayotgan voqea-hodisaga nisbatan subyektiv munosabatning uyg`onishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilshunoslikda antonimik munosabat asosida yuzaga keluvchi muhim uslubiy vositalardan biri **antifraza** hisoblanadi. Bu hodisa o`z mazmun- mohiyatiga ko`ra ironiyaning bir ko`rinishi bo`lib, bu hodisa muomala jarayonida bir shaxs yoki predmetga xos bo`lgan u yoki bu ijobiy xususiyat kulgili ohang bilan inkor qilinishi natijasida yuzaga keladi.

So`zlovchi yoki yozuvchi tasvirlanayotgan nutq obyektiga, ya`ni shaxs yoki narsaga munosabatini ba`zan o`z tasviri orqali ifodalasa, ba`zan asarda ishtirok etgan personajlar nutqi vositasida bayon qiladi. Bunda gaplarda anglashilgan ma`no zamirida unga teskari antonimik munosabat ifodalanadi. Masalan, A. Qahhorning «Mayiz yemagan xotin» hikoyasida shu holatni ko`rishimiz mumkin. Hikoya ironiya asosiga qurilgan bo`lib, unda muallif nutqida ham, personajlar nutqida ham ironiya kuchli ekanligi sezilib turadi. Hikoyadan parcha keltiramiz:

Ehtimol shundaydir, ammo mulla Norqo`zining xotini pokdomon. Agar mulla Norqo`zi o`n yil yuziga kulib qaramasa, qopdan ko`ylak, bo`yradan lozim kiyishga

majbur qilsa ham, pinagini buzmaydi. Har qanday xotin bilan ham inoq bo'lavermaganining o'zi o'ta diyonatli, pokdomon ekanining nishonasidir. Uning bittayu bitta o'rtog'i bor. Bu xotin to'g'risida mulla Norqo'zi shunday fikrda: agar farishta ilgari o'tgan bo'lsa – shuning onasi, endi tug'lsa – shuning bolasi bo'ladi, agar hozir yer yuzida bo'lsa – shu xotinning o'zi. Shuncha keladi, haftalab, o'n kunlab turib qoladi, nainki shu choqqacha mulla Norqo'ziga tovushini eshittirmasa! Shariatni mahkam ushlagan xotin shaharda ikkita bo'lsa, biri – mulla Norqo'zining xotini, ikkinchisi – shu! Namoz o'qiydi, odatdagi ro'zadan tashqari ashir oyida ro'za tutadi, zavoddan chiqqan nonni, hozirgi qushxonalarda so'yilgan molning go'shtini yemaydi. U kelib turganda mulla Norqo'zi tashqarida– mehmonxonada yotib yuradi va uyini allaqanday nurdan munavvar bo'lgandek sezadi...

Mulla Norqo'zi safarga ketadigan bo'lib qolda: ketishidan bir kun ilgari xotiniga aytib, o'sha **farishtani** oldirdi va o'rta eshik oldiga borib qiyomatlik singlisidan iltamos qildi: Singlim, men o'n kunda qaytib kelaman, kelgunimcha o'rtog'ingiz bilan birga bo'ling ...

Mulla Norqo'zi ovqatini yeb, choyga umidvor bo'lib o'tirganida, ko'cha eshigidan yoshgina bir xotin kirib keldi, chimmati qo'lida, vajohatidan uyiga o'g'ri kirgan, yordamga kishi chaqirgani kelgan odamga o'xshar edi. Mulla Norqo'ziga bir qaradi-da, to'g'ri ichkariga yo'naldi. Erkakni ko'ra turib yuzini berkitmaganiga mulla Norqo'zining g'ashi keldi va shunday beibo xotinning ichkariga – **farishtalar** oldiga kirishini xohlamadi.

Bu o'rinda yozuvchi tomonidan qo'llanilgan farishta, qiyomatlik singil, pokdomon kabi so'zlar va birikmalar o'z ma'nolariga qarshi qo'yilgan bo'lib, buni kitobxon hikoyani o'qish jarayonida asta-sekinlik bilan tushunib boradi. Aslini olganda Norqo'zining uyida uning xotini bilan birga yashayotgan “qiyomatli singil” erkak kishi. Yozuvchi hikoyada uning erkak kishi ekanligini kitobxonga oshkor qilmaydi. Balki unga nisbatan “pokdomon”, “farishta” kabi so'zlarni qo'llaydi. Voqealar rivojida Norqo'zining hotini aslida axloqsiz ayol ekanligi ma'lum bo'lgach, hikoyada qo'llanilgan bu so'zlarning matndan tashqarida anglatgan ma'nosi bilan ularning matnda anglatgan ma'nosi o'rtasida ma'noviy qarama-qarshilik yuzaga

keladi. Yozuvchining soʻz va birikmalarni shu tarzda qoʻllashi ularda ifodalangan maʼno taʼsirchanligining kuchayishini taʼminlagan.

2.3. Sintaktik antonimiya. Tilshunoslikda antonimik munosabat asosiga qurilgan hodisalar juda koʻp boʻlib, ulardan biri sintaktik antonimiya hisoblanadi. Sintaktik antonimiya tilshunoslikda bir tomondan kam oʻrganilganligi, ikkinchi tomondan esa oʻzbek tili lugʻaviy sathidagi murakkab hodisalardan biri ekanligi bilan tavsiflanadi. Sintaktik birliklar, yani soʻz birikmalari, gaplar hamda gap boʻlaklari doirasida yuz beradigan antonimiya bevosita sintaktik antonimimiyani yuzaga keltiradi. Manbalarda lugʻaviy antonimiya sifatida tahlil qilinayotgan quydagi leksemalarga eʼtabor qaratsak:

Yaxshi soʻz suyuntirar, Yomon soʻz kuyuntirar.

Yaxshi soʻz toʻrga eltar, Yomon soʻz — goʻrga.

Yaxshi soʻz — yurak yogʻi, Yomon soʻz — yurak dogʻi.

Yaxshi soʻz — yurakka malham, Yomon soʻz — yurakka gʻam.

(Oʻzbek xalq maqollari)

Aslida *yaxshi-yomon* antonimlari lugʻaviy antonim hisoblansa-da, ular matn tarkibida, nutqqa olib kirilganda, bizningcha, sintaktik antonimni tashkil etadi. Chunki *yaxshi soʻz va yomon soʻz, yurakka malham va yurakka gʻam* bitishuvli, boshqaruvli birikmalar sintaksisda oʻrganiladi.

Zidlash, qarshilantirish lingvistik hodisa sifatida nutq jarayonida keng qoʻllanilib, unda voqea, hodisa, belgilarni oʻzaro zid qoʻyib shulardan birining belgisi alohida ajratib koʻrsatiladi. Tilning grammatik sathida, xususan, sintaktik sathda gap shaklida yuz beruvchi antonimik holatlarda bu hodisa ikki komponentdan iborat boʻladi. Bunday hollarda soʻzlovchi eʼtibori antonimik munosabatni ifodalovchi gapning keyingi komponentdan anglashilgan mazmunga qaratiladi. Oʻzbek tilida qoʻshma gaplarda ekspressivlikning ifodalanish usul va vositalari boʻyicha kuzatishlar olib borgan A. Abdullaev bu haqda shunday xulosaga keladi: "Demak, zidlashda ikki qism mavjud: a) zidlanuvchi qism; b) zidlash asosida taʼkidlanuvchi qism. Zidlash, asosan, bogʻlangan va bogʻlovchisiz qoʻshma ran formasida shakllanadi. Masalan, *Yulduzlarni*

xayolida har xil rangga bo'yab ko'rdi – yulduzlar o'z rangida xira miltillab turaverdi. Salim aka chin yurakdan gapirdi – buni hech kim tushunmadi. Gaplar o'rtasida mazmuniy qarama-qarshilik maxsus antonimik vositalarsiz umumiy mazmundan yuzaga kelgan. Bu esa sof sintaktik antonimiyani hosil qilmoqda.

Matn tarkibida zidlik ikki xil asosda hosil qilinadi: 1) fe'lining bo'lishli, bo'lishsiz formalari asosida; 2) antonimik munosabatlar asosida. Birinchi xil zidlashda zid boglovchilar, shu vazifadagi yuklamalar ishtirok etadi. Ba'zan esa zidlash komponentlari intonatsiya yordamida boglanadi. Zidlashning zid boglovchilar yordamida bog'lanishiga misollar:

Shu bir chanoq paxta ham zohirdan ma'sum yuvosh.

Va lekin zahmatlari sig'mas ongga, shuurga. (A. Oripov).

Dunyoda qutlovlar bor, biri biridan go'zal.

Dunyoda tabriklar bor, biri biridan ezgu.

Lekin bu olamda topilmas hech mahal,

Ona yurt tuyg'usidan balandroq bir tuyg'u. (A. Oripov).

Ba'zan zidlashda ta'kidlanuvchi ikkinchi komponent murakkab tus oladi. U fikrni yana ham kuchli ifodalashga xizmat qiluvchi qism tomonidan konkretlashtiriladi. Masalan, Aytmişlarkim, ravzai-rizvonda husnda tengsiz huriliqolar bo'lar emish. Bo'lsa bordir. Va lekin faqirga o'sha tengsiz jannatingni ato qilsang husnda benazir huriliqolaringga qaramas edim. Va lekin deb boshlanuvchi qism so'zlovchining asosiy ifoda maqsadini bo'rttirish uchun xizmat qilmoqda.

To'siqsizlik munosabatini ifodalashning yana bir ko'rinishi borki, unda ekspressivlik alohida ta'kid bilan ifoda etiladi. Bunda shart fe'lining bo'lishli, bo'lishsiz formalari qo'sha qo'llanadi-da, ish-harakatning bajarilishi uchun hech narsa to'siq bo'la olmasligi kuchli tarzda ifodalanadi. Bunday qo'llashning ham turlicha ko'rinishlari bor: taklif qilsa ham, qilmasa ham. boraveraman - taklif qilsin, taklif qilmasin, bari bir boraman (boraveraman). Xoh taklif qilsin, xoh taklif qilmasin bari

bir boraman kabilar. Tildagi bu hodisa sintaktik ekonomiya qoidasi tufayli bo`lishi mumkin. Misollar: Xazinani topinglar, topsalaring ham topasizlar, topmasalaring ham topasizlar! ("Oltin olma")

To`siqsizlik munosabati grammatik vositalarsiz ham ifodalaiishi mumkin. Bunday paytda intonatsiya alohida ahamiyat kasb etadi: ...Otlarimni nishtar bilan shilsinlar, xonu monimga o`l qo`ysinlar, boshimda tegirmon toshi yurgizsinlar! Men sizdan ajralmayman (H. H. Niyoziy). Zidlashning bu ko`rinishi maqol va aforizmlarda ham ko`plab uchraydi: Qo`l yarasi ketar, til yarasi ketmas. Xullas, qiyoslash kategoriya sifatida tafakkurga xos hodisa bo`lib, u tashqi olamni bilish, o`rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Narsalar, belgilar, voqealar orasidagn ob`ektiv bog`lanish, o`xshashlik yoki tafovut, zidlik, qarama-qarshilik kabi hodisalar qiyoslash natijasida aniqlanadi. Til va tafakkur birligi tufayli bu hodisa tilda ham o`z ifodasini topadi.

A.Hojiyev tomonidan yaratilgan "Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati"da bu hodisa shunday izohlanadi: enantiosemiya (yun. epaptios – qarama-qarshi + zeta – belgi). Bir so`zning semantik tuzilishida zid ma`nolarning taraqqiy etishi, antonimik ma`nolarning yuzaga kelishi. Masalan, rus tilidagi naverno so`zining eskirgan «albatta», «shubhasiz» ma`nosi bilan hozirgi «balki», «ehtimol» ma`nosi; o`zbek tilidagi chiqmoq fe`li aslida «ichkaridan tashqariga harakatlanishini bildiradi. Shu bilan birga (transport vositalaridan foydalanishda) «tashqaridan ichkariga harakatlanishini ham anglatadi.⁴⁴

Tohir Malikning "Tilla kalamush" asaridan olingan quyidagi parchada chiqmoq fe`li "nashr qilinmoq" o`rnida qo`llangan bo`lsa-da, semantik jihatdan "tashqariga" ma`nosiga yaqinlashadi:

Sen mashaqqat-pashaqqatingni qo`yatur, – dedi Sultonali uni jerkib, – kitobing chiqay dedimi?

– Xudo xohlasa chiqadi, – dedi Shoirali ishonch bilan. Keyin Sultonliga ma`noli boqib, pichingli ohangda gapini davom ettirdi: – Kitob chiqarish to`qqiz oyda xotin

⁴⁴ Ҳоҗиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. -Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2002. Б. 134.

tug`dirishday oson ish emas, og`aynijon. Buning ham mashaqqati bor. O`tgan haftada shaxsan o`rtoq Ermatov huzurlariga taklif etib, «kitobingizni birdaniga ikki tomlik qilib chiqaramiz», dedilar. Hozir «Oq sut» degan she`riy roman yozyapman. Tugatishim bilan ikki to`mlik chiqadi. (T. Malik “Tilla kalamush”)

Enantiosemiyaning murakkab hodisa ekanligi shundaki, u avvalo, ko`p ma`nolilikka asoslanadi. Enantiosemiya lingvistik atama sifatida tilshunoslik ilmida muayyan ko`p ma`noli so`z anglatgan ma`nolar o`rtasidagi o`zaro zidlikni ifodalaydi. Enantiosemiya tashqi tomondan ko`p ma`nolilikning o`ziga xos bir ko`rinishi sifatida namoyon bo`ladi. Mazkur hodisaning o`ziga xos tomoni uning omonimiya va antonimiya o`rtasida yuz beruvchi hodisa ekanligidir. Uni omonimiyaga yaqinlashtiruvchi jihat uning ifoda tomoni hisoblansa, uning ma`noviy jihatdan o`zaro qarama-qarshilikni ifodalashi antonimiyaga yaqinlashtiradi. Ammo bu xususiyatlar enantiosemiyani omonimiya yoki antonimiya doirasida amal qilishini qati`y belgilash uchun asos bo`la olmaydi. Enantiosemiyaning o`ziga xosligini ko`rsatadigan asosiy belgini aniqlash uchun uni omonim va antonim bilan taqqoslab ko`rish lozim bo`ladi. Ma`lumki, omonimiya hodisasi zahirida bir so`zning ko`p ma`no anglatish xususiyati yotadi. Antonimiyada esa avvalo, ikki birlikning bo`lishi shart. Bu birliklarning ma`no jihatdan o`zaro zidlik munosabatiga kirishishi antonimlikni yuzaga keltiradi. Enantiosemiyada ham zidlik munosabati mavjud. Bu uni antonimiya hodisasi doirasida qarashimiz uchun imkon beradi. Enantiosemiyaning asosiy farqli belgisi shundaki, u xuddi antonimlar singari ikki yoki undan ham ortiq birliklar doirasida emas, balki bir so`z doirasida yuz beradi. Bu uning omonimiya va antonimiyadan farqli hodisa ekanligini ko`rsatuvchi asosiy xususiyati hisoblanadi. Enantiosemiya hodisasi tilshunoslikda maxsus o`rganilmaganligi bois uni nomlashda ham turli xilliklar bor. Tilshunos olim Yo. Odilovning ko`rsatishicha⁴⁵, bu hodisaning mohiyatini belgilashda tilshunoslar tomonidan turli xil qarashlar ilgari surilgan bo`lib, ularda enantiosemiya polisemiyaning bir ko`rinishi sifatida⁴⁶, omonimiyaning alohida bir ko`rinishi

⁴⁵ Одилов Ё. Сўзнинг қарама-қарши маънолари. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1993, 6-сон. Б. 29-30.

⁴⁶ Новиков Л. А. Антонимия в русском языке (Семантический анализ противоположности в лексике). - М., 1973. С. 181-194.

sifatida⁴⁷, antonimiya va omonimiyaning kesishgan nuqtasidagi hodisa sifatida⁴⁸ tadqiq etilgan.

Enantiosemiyaning lingvistik hodisa sifatida yuzaga kelishi va til tizimidan joy olishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Til o'z taraqqiyoti davomida xalq ijtimoiy hayotida bo'layotgan o'zgarishlarni o'z lug'at tarkibida qayd etib boradi. Uning yuzaga kelishi xalqning o'zini o'rab turgan olamni, unda sodir bo'luvchi voqea-hodisalarni qay darajada idrok etishi, mazkur hodisalar mohiyatini qay darajada tushunishi bilan bog'liq bo'ladi. V. Proxorova so'zdagi emotsional bo'yoqning o'zgarishi, so'z yasovchi qo'shimchalar doirasida ko'p ma'nolilikning mavjudligi hamda subyekt va obyekt o'rtasidagi munosabat enantiosemiyaning vujudga kelishida asosiy omillar hisoblanishini qayd etadi.⁴⁹ Tilimizda enantiosemiya hodisasiga uchragan so'zlar ham anchagina. Masalan, tilimizda "tortdi" so'zi bor. Bu so'z lug'aviy jihatdan "ma'lum bir narsani o'ziga qarab yo'naltirmoq" ma'nosiga ega. "Alpomish" dostonida shu so'z doirasida enantiosemiya hodisasi mavjudligi kuzatiladi. Misollarga murojaat qilamiz:

Ana endi o'n olti urug` Qo'ng'iro't elida bir chufuron⁵⁰ to'y bo'ldi. Xaloyiqlarni, elativalarni to'yga xabar qildi. Shu to'yga barcha xaloyiqlar yig'ildi. Biylar ham to'yga keldi. To'ydagi kattalar ilgarigiday izzat qilib, qadimgiday otini ushlamadi. Biylar: «Mazmuni bu odamlar bizning kelganimizdan bexabar qoldi», - deb otini o'zi boylab, ma'raka-maylisga kelib o'tira berdi. Biylarning ko'nglini xushlamadi, otini ushlamadi, ostiga libos tashlamadi; osh tortdi, so'zgan tovoqni choshlamadi; osh tortganda, **oshning ketini-ko'tini tortdi**. (14-bet)

Misoldan anglashilicha, "tortdi" so'zi yuqorida keltirilgan "ma'lum bir narsani o'ziga qarab yo'naltirmoq" ma'nosida ishtirok etmayapti. Bunda subyekt harakati o'ziga qarab emas, balki teskari tomonga, ya'ni boshqa bir tomonga yo'naltirilyapti.

⁴⁷ П р о х о р о в а В. Н. Энантисемия в современном русском языке (о причинах и условиях возникновения и функционирования слов с противоположными значениями) // Вопросы русского языкознания. Вып. 1. -М., 1976. С. 157-165.

⁴⁸ Г о р е л о в И. Н. Энантисемия как столкновение противоречивых тенденций языкового развития. // Вопросы языкознания. -М., 1986. №4. С. 86-96.

⁴⁹ П р о х о р о в а В. Н. Энантисемия в современном русском языке (о причинах и условиях возникновения и функционирования слов с противоположными значениями) // Вопросы русского языкознания. Вып. 1. -М., 1976. С. 157-165.

⁵⁰ Чукбурон – хатна тўй

Aynan shu dostondan olingan mana bu parchada esa subyekt harakati o'ziga yo'naltirilmoqda:

Shunda Hakimbek yetti yoshiga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birichdan bo'lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda Hakimbek shul o'n to'rt botmon yoyini ko'liga ushlab, yetti yashar bola ko'tarib **tortdi**, tortib qo'yib yubordi. (17 bet)

Ko'rinadiki, birinchi misolda obyekt (osh) subyekt tomonidan boshqa bir tomonga (mehmonlarga) yo'naltirilayotgan bo'lsa, ikkinchi misolda esa obyekt (yoy) subyektning o'ziga tomon yo'naltirilmoqda. Demak, bir so'z doirasida ma'noviy qarama-qarshilik yuzaga kelmoqda. Yuqoridagi misolda tortdi so'zi narsaga nisbatan qo'llanilgan bo'lsa, bu so'z shaxsning harakatlanishiga nisbatan ham qo'llanishi mumkin. Masalan, quyidagi misolda "bormoq" ma'nosi ifodalangan:

Shunda bu gap biylarning ikkoviga ham ma'qul tushib, bir-biriga: «Rost aytasan», - deb narzi-niyozini olib, biylar ikkovi Shohimardon pirning ravzasiga qarab jo'namoqchi bo'lib, mindi bedov otdi, narzi-niyozini olib, uch kun tinmay **yo'l tortdi**. (15 –bet)

Tortdi so'zida harakatning boshqa bir ma'nosi ham ifodalanishi mumkin. Buni quyidagi misolda ko'ramiz:

Mirg'azab, jallodlar bunda kelinglar,
Bundan turmay, Chilbir cho'lga boringlar,
Ul boylarni xo'b oralab ko'ringlar,
So'rab kattasini aniq bilinglar
Sungra **tortib** uni boylab olinglar,
Davlatimga urib, haydab kelinglar(33 bet)

Bir so'z doirasida qarama-qarshilik ma'nosining bu tarzda namoyon bo'lishi rus tilshunosi V.Yu. Kravsovaning enantiosemik ma'no anglatuvchi birliklarda quyidagi belgilar bo'lishi lozim: 1) ma'nolar ifodasidagi shakliy bir xillik; 2) bir lisoniy birlikda bir necha ma'nolarning mavjudligi (bu enantiosemiyaning polisemiya bilan munosabatini ko'rsatadi); 3) ma'noviy qarama-qarshilik , degan fikrlari to'g'ri

ekanligidan dalolat beradi.⁵¹ Yo. Odilovning ma'lumot berishicha, o'zbek tilshunosligida enantioseмик ma'no anglatuvchi birliklar yuzasidan tilshunoslar S. Usmonov, R. Shukurov, O. To'raqulov va B. Yusufkar kuzatish olib borganlar. S. Usmonov va R. Shukurovlar enantioseмик ma'no anglatuvchi birliklarni shakldosh antonim (omoantonim)lar deb biladilar. O. To'raqulov o'z ishida bunday ma'noli birliklar shevalar o'rtasida ham mavjudligini qayd etadi. B. Yusuf esa enantioseмик ma'noli birliklar antonimlardan farqli hodisa ekanligini yozadi.⁵²

Ma'lumki, til jamiyat hayotiga bog'liq holda muntazam ravishda taraqqiy qiladi. Jamiyat hayotida sodir bo'luvchi turli o'zgarishlar tufayli ayrim so'zlarning o'zi qo'llangan davrda anglatgan ma'nosi ma'lum vaqt o'tishi bilan eskirishi, ya'ni muomaladan chiqishi mumkin. Ammo shu so'zning keyin paydo bo'lgan yangi ma'nosi keng qo'llanishi mumkin. Natijada yangi va eski ma'no o'rtasida o'zaro qarama-qarshilik munosabati yuzaga keladi. Bu esa biz tadqiq etayotgan enantiosemiyani vujudga keltiradi.

Tilimizdagi omonlashmoq (ko'rishmoq-xayrlashmoq), ma'raka (to'y-aza), chilla (qish-yoz) so'zlarida ham enantiosemiya hodisasi mavjud.

Ko'rinadiki, enantiosemiyaning hosil bo'lishida avvalo, so'zlashuv nutqi, turli shevalar materiallari muhim ahamiyat kasb etadi. Enantiosemiya hodisasi so'zlashuv nutqida ko'roq vujudga keladi va turli ma'no munosabatlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. So'zlovchining ma'lum bir kishilarga, narsalarga yoki turli hodisalarga bo'lgan munosabati ifodalanishida enantiosemiya ta'sirchan vosita sifatida ahamiyatlidir.

Antonimik juftliklarning ma'nodoshlik masalasini atroflicha tadqiq qilish ularning o'zaro semantik munosabatini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Shu bois rus tilshunosligida antonim va sinonimlarni birgalikda tekshirishga bag'ishlangan bir qancha ilmiy ishlar maydonga keldi.⁵³

⁵¹ Кравкова В. Ю. Энантioseмия лексических и фразеологических единиц (язык и речь). КД. Ростов-на-Дону, 2006. С. 21.

⁵² Усмонов С. Антонимлар. // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1958. 2-сон.Б. 35; Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. -Тошкент, 1977. Б. 19; То'рақуллов О. Қўқон гурупу шевалари лексикаси. НД. -Тошкент, 1971. Б. 61; Юсуф Б. Алишер Навоий асарларида энантioseсемиялар. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2011, 1-сон. Б. 33-39.

⁵³ Лукина Г.Н. Синоними и антоними в пределах лексико-семантической групп ислов. Лексикографический сборник, вип. VI. –Москва, 1963. Б. 156; Крючков В.Ф., Чешко Л.А. Синоними и антоними пасобийе для занятий по русскому языку в старших классах школы. –Москва, 1964. Б. 147.

Antonim va sinonim soʻzlarning oʻzaro aloqasi gʻoyat muhim boʻlsa-da, bu mavzu yetarli darajada yoritilmagan. Bu masalani oʻzbek tilshunosligida birinchi boʻlib ilmiy tahlilga tortgan tilshunoslardan biri S. Mutallibovdir. Olim “Antonim soʻzlar” (–Toshkent: Sovet maktabi, –№ 4. B. 28.) nomli maqolasida antonimik juftlik hosil etuvchi har bir soʻzning bir necha sinonimlari boʻlishi va bu sinonimlar ham oʻzaro antonimik munosabatda boʻla olishi mumkinligini aytib oʻtgan. Biroq shundan keyin oʻtgan qariyb 20 yil davomida oʻzbek tilshunosligida bu masalaga bagʻishlangan birorta ilmiy ish maydonga kelmadi.

Oʻzbek tilshunosligida birinchi marta A. Hojiyev tomonidan yaratilgan sinonimlar lugʻati⁵⁴ tilimizdagi antonimlarning sinonimlarini aniqlashda katta yordam beradi. Shu bilan birga, tilimizdagi sinonimlarni aniqlashda har bir sinonimning antonimlariga murojaat qilish ham foydadan holi boʻlmaydi.

Tilshunos olim L.A. Vvedenskaya “Sinonimicheskiye pari antonimov” (–M.: Russkiy yazik v shkole, 1969. –№ 4. –S. 107.) nomli maqolasida antonimiya hosil qiluvchi guruhdagi sinonimlarning oʻzaro aloqasini ikki turga boʻlib, ulardan birini *nursimon aloqa (radialnaya svyaz)*, ikkinchisini chiziqli aloqa (*lineynaya svyaz*) nomi bilan yuritadi.

Maʼno jihatdan ikki qarama-qarshi toʻladagi sinonimlarning oʻzakdosh soʻzlar bilan **chiziqli aloqa** boʻyicha antonimik juftliklar hosil qilish hodisasi oʻzbek tilida ham uchraydi:

chidamli ← → chidamsiz

sabotli ← → sabotsiz

matonatli ← → matonatsi

bardoshli ← → bardoshsiz

toqatli ← → toqatsiz

sabrli ← → sabrsiz

Oʻzakdosh sinonim soʻzlardan hosil boʻlgan bunday antonimik juftliklar, fikrimizcha, bir butun (yoki bitta) antonimik guruh boʻlib uyushadi.

Oʻzbek tilida qanday oʻzaklardan boʻlishidan qatiʼy nazar, uslubiy jihatdan bir-

⁵⁴ Хожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1974. Б. 308.

biriga mos keladigan soʻzlardan hosil boʻlgan antonimik juftliklardan iborat antonimik guruhlar ham uchraydi. Masalan:

sharq	gʻarb (adabiy tilga xos)
kunchiqar	kunbotar (soʻzlashuv tiliga xos)
mashriq	magʻrib (arxaik)

Kuzatish sinonimli antonimik guruhlarini ham simmetrik va nosimmetrik turlarga boʻlish mumkinligini koʻrsatadi.

Simmetrik guruhda ikki dominant (bosh soʻz) antonimlarning sinonimlari miqdoran teng boʻlib, har ikki qatordagi barcha sinonimlar bir-biri bilan (yoki oʻz muqobilidagi soʻz bilan) antonimik juftlik yasay oladi. Ular oʻz tarkibidagi antonimik juftlik miqdoriga koʻra quyidagi koʻrinishlarga ega boʻladi:

I. Ikki sinonimli yoki ikki parallel juftlikdan iborat simmetrik guruh. Masalan:

1. Adabli	Adabsiz	3. Besoʻnaqay	Xushbichim
Odobli	Odobsiz	Beoʻxshov	Xushqomat
2. Adolatli	Adolatsiz	4. Bilimli	Bilimsiz
Odil	Insofsiz	Ilmli	Ilmsiz
5. Bemehr	Mehribon		
Toshbagʻir	Mehrli		

II. Uch sinonimli simmetrik guruh:

1. Begunoh	Gunohkor		
Aybsiz	Aybdor		
Gunohsiz	Aybli	(синоним асослардан антоним ҳосиласи)	
2. Oliyhimmat	Behimmat		
Muruvvatli	Muruvvatsiz		
Himmatli	Himmatsiz		

III. Toʻrt sinonimli simmetrik guruh:

1. Boy	Kambagʻal	2. Loyiq	Noloyiq
Badavlat	Faqir	Munosib	Nomunosib
Davlatmand	Qashshoq	Bop	Nobop
Davlatli	Bechorahol	Mos	Nomuvofiq

IV. Besh sinonimli simmetrik guruh:

1. Baxtli	Baxtsiz	3. Shafqatli	Rahmsiz
Baxtiyor	Bebaxt	Rahmdil	Berahm
Saodatli	Badbaxt	Mehribon	Shafqatsiz
Iqbolli	Baxtiqaro	Ko`ngli bo`sh	Ko`ngli qattiq
Tolemant	Tolesiz	4. Shodlik	Qayg`u
2. Lapashang	Uddaburo	Sevinch	G`am
Bo`shang	Ishbilarmon	Quvonch	Anduh
Noshud	Epchil	Xushvaqtlik	Alam
Uquvsiz	Abjir	Xursandchilik	Hasrat
Lavang	Yulduzni benarvon uradigan		

V. Olti va undan ortiq antonimik juftlikdan tuzilgan simmetrik guruh oz uchraydi. Chunki antonimik munosabatdagi dominant so`zlarning sinonimlari ko`paygan sari ularning simmetrikligi kamaya boradi.

Ishyoqmas	Mehnatsevar
Dangasa	Ishchan
Yalqov	Mehnatkash
Erinchoq	G`ayratli
G`ayratsiz	Serg`ayrat
Tanbal	G`ayratchan

Ko`p ma`nolilik va shakldoshlik hodisalari bir-birlari bilan bog`liq bo`lgani, ayni paytda, ular orasida muayyan farqlar mavjudligi sababli ularni alohida-alohida ko`rib o`tamiz.

1. So`nggi paytlargacha, antonimlar mavzusi yoritilgan darsliklarda, hatto, ilmiy ishlarda antonim hosil qiluvchi ko`p ma`noli so`zlarning faqat asosiy (bosh) ma`nosinigina nazarda tutardilar, natijada antonimik juftlik yakka ma`noli birliklar sifatida ko`rilar edi. Keyingi paytlarda, ayrim antonimik juftliklarning ko`p ma`noli bo`lishi va o`zlarining bir necha ma`nolari bilan antonimik munosabatga kirisha olishi tadqiqotchilarning diqqatini o`ziga tobora jalb etmoqda. Masalan, L.A.Vvedenskaya tuzgan lug`atda¹ anchagina ko`p ma`noli so`zlar uchraydi.

Kuzatishlar shuni ko`rsatadiki, ko`p ma`noli antonimik juftliklar soni hamisha ko`p ma`noli so`zlar miqdoridan ancha kam bo`ladi. Ko`p ma`noli antonimik juftliklar va guruhlar sonining oz bo`lish sababi shundan iboratki, birinchidan, tilimizdagi ko`p ma`noli so`zlarning hammasi ham boshqa so`zlar bilan antonim bo`lavermaydi; ikkinchidan, ko`p ma`noli so`zlar antonim bo`lib kelganda ham ularning hammasi teng ishtirok eta olmaydi; uchinchidan, antonim so`zlarning sinonimlari ko`paya borgan sari, ularning (antonimik guruhlarining) polisemantik bo`lish qobiliyati kamaya boradi; to`rtinchidan, ko`p ma`noli so`zlarning qaysi ma`nolari antonimik munosabat hosil eta olishini aniqlash ko`p vaqt talab etadi.⁵⁵

Ko`p ma`noli antonimik juftliklarning aksariyati ikki ma`noli so`zlardan tashkil topgan. Masalan:

1. Aktiv	Passiv	14. Murakkab	Sodda
Faol	Loqayd	Qiyin	Oddiy
2. Aniq	Noaniq (Mavhum)	15. Old	Orqa
Konkret	Abstrakt	Old	Ket
Ma`lum	Noma`lum	16. Och	To`q
3. Band	Bo`sh	17. Oqlamoq	Qoralamoq
4. Bahor	Kuz	18. Pishmoq	Xom
5. Beri	Nari		
6. Bermiq	Olmoq	19. Sayoz	Chuqur
7. Debet	Kredit	20. Sekin	Qattiq
8. Do`zax	Jannat	Asta	tez
Jahannam	Behisht	21. Suyuq	Quyuq
9. Yomon	Yaxshi	22. Uzaymoq	Qisqarmoq
10. Yorug`lik	Qorong`ilik	23. Uzoq	Yaqin
11. Kelmoq	Ketmoq	Olis	
	Jo`namoq		
12. Ko`p	Oz	24. Chiqarmoq	Qoshmoq
Mo`l	Kam	25. Yutmoq	Yutqizmoq

⁵⁵ Введенская Л.А. Словарь антонимов русского языка. –Ростав: Изд-во Ростовского ун-та, 1971.

Bisyor	Ancha	26. Halol	Harom
13. Muloyim	Qo`pol	Pok	Nopok
		Pokiza	Iflos

**Bor – yo`q** antonimik juftligi uch ma`nosi bilan zidlanadi:

Bor	Yo`q
1. Tabiatda, voqelikda mavjud bo`lgan.	1. Tabiatda, voqelikda mavjud bo`lmagan.
Odamzod shundayki, <i>bor</i> narsa asta-sekin yo`qolsa ham payqaydi, lekin <i>yo`q</i> narsa asta-sekin paydo bo`lsa payqamaydi. (A.Qahhor)	
2. Ko`zda tutilgan joyda topiladigan, mavjud.	2. Ko`zda tutilgan joyda ko`rinmaydigan, topib bo`lmaydigan, mavjud emas.

...Yarimta bo`z *bor* ekan, qo`ltig`imga tiqib oldim. (A.Qodiriy)

...Birining poshnasi butunlay yo`q, biriniki yarimta. (Oybek)

3. Ko`chma: boylikka ega bo`lgan, boy	3. Ko`chma: boyligi yo`q, kambag`al, bechora.
---------------------------------------	---

Boy maqtansa topilar, *Yo`q* maqtansa chopilar. (Maqol) *Bor* bo`lsang, ko`rolmaydi, *Yo`q* bo`lsang, berolmaydi. (Maqol)

Bu hol bir necha antonimik guruh hosil qila oladigan ko`p ma`noli so`zlarni o`z-o`ziga nisbatan omonimga o`xshatib qo`yadi. Ammo bunday antonim guruhlar va ular ichidagi antonimik juftliklar o`rtasida ma`noviy bog`lanish mavjud bo`lgani uchun ularda takrorlanib keladigan so`z (*to`g`ri* so`zi) polisemantik xususiyatini yo`qotmaydi, chunki ayrim ma`nolari bilan bir necha antonimik guruh hosil qilishda qatnashadigan ko`p ma`noli so`zlar omonimga aylanib qolmaydi.

O`zbek tilida shakldosh so`zlardan ham antonimik guruhlar hosil bo`ladi. Masalan:

Chap ₁	O`ng
So`l	
Gavdaning yurak joylashgan tomoni.	Gavdaning yurak joylashgan tomonining qarama-qarshi tomoni.

Biror ish-harakatni bajarish
qiyin bo`lgan holat.

Biror ish-harakatni bajarish oson
bo`lgan holat.

Bunday hollarda ko`p ma`noli so`z ham, shakldosh so`z ham o`z leksik-semantik xususiyatini saqlagan bo`ladi.

Antonimik guruh hosil qiluvchi so`zlarning, ayniqsa, polisemantik so`zlarning ma`no munosabatini, dominant antonim so`zlarning sinonimlari bilan ularning o`zaro munosabatini o`rganish antonimik juftliklarning semantik munosabatini chuqurroq o`rganishga yordam beradi.

Biz yuqorida ko`rib o`tganimizdek, tilimizda o`z mohiyatiga ko`ra antonimiya doirasida qaraluvchi hodisalar talaygina. Ana shunday hodisalardan biri oksyumoronlar hisoblanadi. Bu hodisa haqida fikr yuritishdan avval tilshunoslik va adabiyotshunoslikda unga berilgan ta`riflar bilan tanishaylik.

“Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati”da oksyumoronga shunday izoh berilgan: Oksyumoron (yun. *oxutorop* - farosat bilan, lekin bema`ni). Mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga qarama-qarshi bo`lgan ikki tushunchani (ma`nosi bir-biriga zid ikki so`zni) o`zaro qo`shishdan iborat uslubiy figura; badiiy adabiyotda obrazlilik, ifodalilik kabi maqsadlarda keng qo`llanadi: *Kezadir bulutlar boshim ustida. Havo dim. Baqirgan sukunat...* (R.Parfi). *Go`zalim, negadir ko`zingda nam bor? Bu kun ko`zlaringda nozik bir q`am* bor (M.Shayxzoda)⁵⁶.

“Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o`zbekcha izohli lug`ati”da berilgan izoh esa quyidagicha: Oksimoron (*gr. oxutorop - zakiy nodon* so`zidan) - oksimoron. Badiiy ko`chim turlaridan biri bo`lib, tarkibidagi qarama- qarshi ma`noli tushunchalar yangi bir kutilmagan ma`noni keltirib chiqaradi. Oksimorondagi mana shu xususiyat kuchli obrazlilik kasb etadi⁵⁷.

Antiteza va oksyumoron ma`lum bir ma`no qarama-qarshiligiga asoslanishiga

⁵⁶ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. -Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2002 Б. 74.

⁵⁷ Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. -Тошкент: Ўқитувчи, 1979. Б. 213.

ko`ra bir-biriga o`xshab ketsa-da, ular orasida katta farq bor. Antitezada ikki bir-biriga qarama-qarshi qutb biri ikkinchisini rad etadi, inkor qiladi. Oksimaronda esa ko`rganimizdek, ikki bir-biriga qarama-qarshi ma`noli so`z bir-biriga birlashtiriladi, biri ikkinchisiga nisbatan aniqlovchi sifatida qo`llanadi. Ammo unda ko`proq birikishdan kelib chiqqan ko`chma ma`noga ahamiyat beriladi. Bu xususiyatlari bilan (ularning har ikkalasi maydonga kelishida antonimlar katta rol o`ynasa-da) antiteza va oksimarolar bir-birlaridan tamoman farq qiladi⁵⁸.

Ma`lum xususiyatlariga ko`ra antonimlarga o`xshab ketsa-da, qo`llanish maqsadi, hosil bo`lish usuli va vazifasiga ko`ra ulardan farqlanib turuvchi oksyumorolar tilimizda uchrab turadi. Ular badiiy-estetik ta`sirchan vosita sifatida asosan badiiy matnlarda qo`llaniladi. Oksyumorolarning paydo bo`lishi, avvalo, badiiy asar muallifining individual uslubiga bog`liq. Bugungi kunda tilimizda , og`zaki va yozma nutqdagi “tirik murda”, “issiq qor” kabi noodatiy birikmalar ma`lum darajada qo`llanilganligi, ba`zan og`zaki nutqimizda ham uchrab turishi bois ulardagi estetik ta`sirchanlik unchalik kuchli emas. Ularning ta`sirchanlik quvvati asosan, poetik asarlar tilida seziladi. Masalan, shoir Muhammad Yusufning Stalinga nisbatan **“qadrdon begona”** , **“yovuz mehribon”**, **“qora quyosh”** kabi oksyumorolarni qo`llashi sho`rolarning buyuk yo`lboshchisi xarakter-xususiyati, insoniyat tarixida qilgan mudhish jinoyatlari, xullas, ezgulik dushmani ekanligi haqida muayyan tasavvurlarni uyg`otishga xizmat qiladi.

Oksyumorolar badiiy matnlarda tasvirlanayotgan kishilar faoliyati, xarakterdagi qusurlar, xulq-atvori to`g`risida aniq ma`lumot beradi va badiiy, obrazli, estetik ta`sirchan vosita sifatida qo`llaniladi. Ular alohida olingan ijodkorlar individual uslubi, ularning voqelik faktlarini qay darajada idrok etishi va badiiy matnlarda qo`llay olish mahoratini ko`rsatib turadi.

⁵⁸ Кўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. -Тошкент: Фан, 1977. Б. 114.

Bob bo'yicha qisqacha xulosa

1. Tilning kishilar orasidagi aloqani ta'minlash, turli ma'lumotlarni yetkazish hamda so'zlovchining ko'zlagan maqsadi, nutqiy faoliyat amalga oshayotgan vaziyat va munosabatdan kelib chiqib badiiy estetik ta'sir etish vazifasini bajarishi til birliklarining tanlanishi va o'rinli qo'lanishiga bog'liq bo'ladi. Ana shu kommunikativ maqsadga bo'ysundirilgan til birligining nutqiy faoliyatda muhim uslubiiy vosita sifatida ishtirok etishi va turli semantik, lingvopoetik imkoniyatlarini namoyon etishi bevosita matn bilan bog'liq kuzatishlar olib borishni taqozo qiladi.

2. Tilimizda mavjud lug'aviy antonimlarning matn tarkida sintaktik antonimga aylanishi va til birliklarining grammatik munosabati sintaktik hosilalar yuzaga keltirishi muhim jarayon hisoblanib, buni tadqiq etish tilshunosligimizning dolzarb muammolaridan ekanligi diqqatga molik.

3. Tilimizda keng ma'noda antonimlik ko'rinishlarni ifodalovchi antiteza, oksyumoron, antisemiya, enantosemiya kabi hodisalar ham borki, ularni ko'rib o'tish orqali grammatik antonimlarning til tizimida tutgan o'rnini belgilash hamda o'ziga yondosh hodisalarga munosabatini aniqlash mumkin.

4. Antiteza kitobxonda turli xil his-tuyg'ularning kelib chiqishida, unda tasvirlanayotgan voqea-hodisaga nisbatan subyektiv munosabatning uyg'onishida muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Tilshunoslikda antonimik munosabat asosida yuzaga keluvchi muhim uslubiy vositalardan biri antifraza hisoblanadi. Bu hodisa o'z mazmun- mohiyatiga ko'ra ironiyaning bir ko'rinishi bo'lib, bu hodisa muomala jarayonida bir shaxs yoki predmetga xos bo'lgan u yoki bu ijobiy xususiyat kulgili ohang bilan inkor qilinishi natijasida yuzaga keladi.

6. Enantiosemiyaning asosiy farqli belgisi shundaki, u xuddi antonimlar singari ikki yoki undan ham ortiq birliklar doirasida emas, balki bir so'z doirasida yuz beradi. Bu uning omonimiya va antonimiyadan farqli hodisa ekanligini ko'rsatuvchi asosiy xususiyati hisoblanadi.

7. Oksimaronda esa ko`rganimizdek, ikki bir-biriga qarama-qarshi ma`noli so`z bir-biriga birlashtiriladi, biri ikkinchisiga nisbatan aniqlovchi sifatida qo`llanadi. Ammo unda ko`proq birikishdan kelib chiqqan ko`chma ma`noga ahamiyat beriladi.

UCHINCHI BOB

Soʻz turkumlari sathida antonimiya hodisasi

Maʼlumki, tilimizda oʻzaro aloqa jarayonida qoʻllanuvchi har bir leksik birlik tildagi mavjud tovushlarining maʼlum bir tartib bilan oʻzaro birikishi asosida yuzaga keladi va maʼno anglatish xususiyatiga ega boʻladi. Alohida olingan til birligining leksik maʼnosi deyilganda soʻzning ana shu tomonlari hisobga olinadi. Albatta, soʻzni tashkil etgan tovushlarning maʼlum bir tartibda birikishi hamda shu soʻzdan anglashilgan leksik maʼnoning oʻzaro bogʻliqligi oʻz-oʻzicha, yaʼni tabiiy ravishda sodir boʻlmaydi. Bu bogʻliqlik shu tilda gaplashuvchi barcha kishilar tomonidan shartli ravishda eʼtirof etilgan boʻladi. Bir tilga mansub boʻlgan leksik birlikdan anglashilgan maʼnoning shu tilda gaplashuvchi kishilarning barchasiga birday tushunarli boʻlishi sababi ham shu bilan izohlanadi. Leksik birliklarning maʼno koʻlami ancha keng boʻlib, insonni oʻrab turgan voqelik, undagi narsa va predmetlar, voqea-hodisalar, belgi-xususiyatlar, xatti-harakatlar bilan chambarchas bogʻliq boʻladi. Leksik maʼno ana shularning barchasi toʻgʻrisida muayyan tushunchalarni ifodalaydi.

Lekin shuni ham yodda tutish lozimki, leksik maʼno bilan tushuncha oʻzaro bogʻliq, biroq teng emas. Leksik maʼno til qurilishiga xos, tushuncha esa tafakkurga xos. Har ikkisi umumlashtirishga asoslanadi, lekin tushuncha fikrlash qobiliyatining natijasi sifatida insonga nisbatan belgilanadi, leksik maʼnoga xos umumlashtirish esa har bir tilning oʻzi doirasida voqe boʻladi. Shunga koʻra leksik maʼno har bir til uchun xususiy boʻladi⁵⁹.

Lugʻaviy antonimiya antonimiya hodisasi ichida eng keng tarqalgan hodisa boʻlib, unda leksemalar bir-biriga qarama-qarshi maʼno anglatishi asosida maʼlum bir guruhlariga ajraladilar. Tilimizdagi bunday holat mustaqil soʻz turkumlarida yaqqol koʻzga tashlanadi: baland va past, issiq va sovuq, oq va qora, tez va asta kabi. Tilshunoslikda antonimiya hodisasiga bagʻishlangan ishlarning aksariyat qismida uning, asosan, bir soʻz turkumi leksemalari doirasida yuz berishi qayd etiladi.¹

⁵⁹ Раҳматуллаев III. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент, 2006. Б. 145.

⁵⁹ Раҳматуллаев III., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. -Т.: Ўқитувчи, 1980; Усмонов С. Антонимлар // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари журн., 1958, 2-сон, 38-б.; Исабеков Б.О.

Taniqli tilshunos olim M. Yoʻldoshev oʻzining “Choʻlpon soʻzining sirlari” kitobida Choʻlponning romanda zid maʼnolilikning barcha turlaridan mahorat bilan foydalanilganligining guvohi boʻladi. Yozuvchi bu haqda shunday fikrlaydi:

“Romanda foydalanilgan lisoniy sathdagi leksik zid maʼnolilik koʻproq ot, sifat, ravish, feʼl turkumlariga oiddir. Misollar: *Opa baʼzida **doʻst**, baʼzida **dushman**...Singil ham shunday! Hali ancha balandda boʻlsa ham uning **kamolidan zavoli** yaqinroq ekanli koʻrinib turardi. Nima deysiz, xoʻjayin? Nima, nima? **Eski** ogʻizdan **yangi** soʻz? **Toza** paranjisini **iflos** obrezga irgʻitdi. U uydan goh **yosh** kelinchakning quvnoq va bolalarcha kulishi, goh **qari** kuyovning xursand qiyqirishlari, goh boʻlsa yangi qayliqning yoʻrgʻa zarbli dutori bilan shirin va shirali ovozi, goh boʻlsa yangi keltirilgan gramofonda Netayxonning qichiq yallalari eshitiladi. Haligacha **oz** topgan boʻlsa, mundan nari **koʻp** topar. Odatda **xufton** oʻtar-oʻtmas yotogʻiga kirib. Ilk **sahar** uyqudan uygʻonadigan Zebi otasining kelish-kelmasligini bilib, shundan keyin xotirjam uxlamoq uchun anchagacha onasi bilan gaplashib oʻtirdi. Xudo, xudo boʻlib turib - ham **oladi**, ham **beradi**, yoʻq-a u – ilgari jon **beradi**, keyin jon **oladi**. “Boshqalar uchun **yopildi**, men uchungina **ochiladi** bu eshik !” deb oʻyladi Miryoqub yana. **Kulish** va **yigʻlash** orasida katta farq bor. Keltirilgan gaplardagi ajratib koʻrsatilgan zid maʼnoli soʻzlar qatorlari tilda avvaldan zid maʼnolilik sifatida mavjud, shuning uchun ham bu qatorlardagi soʻzlardan birining aytilishi oʻz-oʻzidan ikkinchisini esga soladi. Zid maʼnoli juftliklarning ayni bir jumlada kelishi esa bu tushunchalarning mohiyatini yanada boʻrttiradi.⁶⁰*

Darhaqiqat, antonimiya hodisasi soʻz turkumlari doirasida ancha taraqqiy etgan. Quyida shular haqida fikr yuritamiz.

3.1. Ot guruhida antonimiya. Antonimiya hodisasi ot soʻz turkumi doirasida ham amal qiladi. Otlarda bu hodisa, avvalo, belgi otlarida koʻzga tashlanadi. Bunga insonning turmush tarzi, yashash sharoiti bilan bogʻliq boylik va kambagʻallik, botirlik va qoʻrqoqlik kabi antonimik juftliklarni koʻrsatish mumkin. Antonimiya

Лексическая антонимия в современном узбекском языке. АҚД. -Тошкент, 1973.; Шукуров Р. Лексико-семантическая природа антонимов. АҚД. - Тошкент, 1973. Яна шу муаллиф: Ўзбек тилида антонимлар – Тошкент, 1977. ва бошқалар.

⁶⁰ Ўйдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. -Тошкент: Маънавият, 2002. Б.19.

hodisasi geografik nuqtalarni anglatishi nuqtai nazaridan ham ot soʻz turkumi doirasida ajralib turadi. Tilimizdagi qarama-qarshi tomon nomlarini bildiruvchi sharq va gʻarb, janub va shimol, magʻrib va mashriq kabi soʻzlar misol boʻla oladi. Bulardan magʻrib va mashriq soʻzlari bugungi kun uchun eskirgan hisoblansa-da, badiiy adabiyotda baʼzan davr ruhini berish yoki personajlar nutqini individuallashtirish maqsadida qoʻllanadi. Tilimizda fasl nomlarini bildiruvchi yoz va qish, kuz va bahor soʻzlari ham oʻzaro antonimik munosabatga kirishadi. Bundan tashqari paytni bildiruvchi kecha va kunduz, tong va shom soʻzlari haqida ham shunday fikrlarni aytish mumkin. Bunday antonimlar maʼno jihatidan kishilarning psixologik holatini (*quvonch-alam, rohat-azob, shodlik-qaygʻu*)

Hayot darsin oʻqib keldim har qachon,

Goho sovub ketdim, goh tushdim terga.

*Inson **gʻam**, **shodligi** ekan yonma-yon.*

*Biri **koʻk**ka tortar, birisi **yerga**.*

(A. Suyun “Hayot darsin oʻqib har qachon”)

Yuqoridagi misolda ot antonimlardan *gʻam* va *shodlik* tub hamda yasama soʻzdan tarkib topgan boʻlib, mavhum tushunchalarni ifodalaydi, *koʻk* va *yer* leksemalari esa tub + tub soʻzdan iborat boʻlib, turdosh otning oʻrin joy guruhini tashkil qiladi. Misra tarkibidagi antonimlar qarama-qarshi tushunchalarni ifodalash bilan birga oʻquvchiga ematsional-eksprissiv taʼsir koʻrsatadi.

1. Tomonlarga oid tushunchalarni (*sharq-gʻarb, janub-shimol, kunbotar-kunchiqar, yer-osmon, toʻr-poyga, old-orqa*)

Qayga borayapsan, muncha shoshmasang?

Mashriqda miltirab sochding-u ziyo,

Bagʻrimga nuringni toʻyib bosmasdan

Magʻribda qizarding va boʻlding ado. (U.Azim)

Tong titraydi kech kuzakning quchogʻida,

Yulduzlarni oʻchirmoqda gulgun shafaq.

Jonim, qalbm sheʼriyatning pichogʻida...

Zamin — tilsim, **osmon** — tilsim...

she`r — beshafqat! (U.Azim “Otga”)

Besabr panjalar bir-birin izlar,

Ko`zlaring o`qiydi vafodan doston.

Oqarar, bo`zarar, lovullar yuzlar,

Falak zamin bo`lar, **yer bo`lar osmon...** (U.Azim)

1. Yil fasllari va sutkaning qarama-qarshi tomonlarini (*yoz-qish, bahor-kuz, kecha-kunduz, kun-tun, tong-shom*)

Raqqosa! Xirom qil otgunicha **tong**,

So`ng uxlab olarsan kelganida **shom**. (U.Azim “Raqqosa”)

Bahorda ko`karib, **kuzda** sarg`ayib,

Sukunatu qorga o`ranib qishda,

G`o`ra she`rlaringa boqdi mung`ayib...

Xullas, sodiq bo`ldi har ezgu ishda! (U. Azim “Dasht haqida ballada”)

Tong chog`i **tun** bilan **kunduz** uchrashdi,

Tunda armon bilan yulduz uchrashdi,

Bahor bilan **kuzak** — baxtxush uchrashdi,

Toshlar uchrashdilar, biz uchrashmadik. (U.Azim “Uchrashmadik”)

4. Kundalik hayotga, urf-odatga oid tushunchalarni (*muhabbat-nafrat, vasl-hijron, hayot-o`lim, to`y-aza*) ifodalab keladi.

5.Kishilarning yashash sharoiti, mavqeyini ifodalovchi antonimlar:

Gado to`yi boshqa, **boy** to`yi boshqa,

Azasi boshqadir, ko`y-kuyi boshqa.

**Issiq-sovug`imni** o`zim bilurman,

Uy-uyi boshqaning o`y-o`yi boshqa.(U. Azim “Gado to`yi boshqa”)

6. Diniy tasavvur, e`tiqod bilan bog`liq tushunchalarni ifodalovchi antonimlar:

Agar u dunyosi bo`lsa borurman,

Jannat eshigini ochmagay biroq.

Jahannam o`tida mangu yonurman,

Bola — tangrim mangu qiladi so`roq. (U.Azim)

Antonimlardan yozuvchilar ko`pincha turli kishilar yoki hodisalarni bir-biriga qarama-qarshi qo`yish, kontrast holatlar yaratish maqsadida foydalanadilar. Masalan, shoir Zulfiya “Orada sahifa qolipti bo`m-bo`sh” nomli she`rida “yosh” va “keksa” singari antonim so`zlar yordamida quyidagi kontrast holatni ifodalaydi:

O`rtada sahifa qolipti bo`m-bo`sh,

*Nav **yoshlik-keksalik** ufqlari ora.*

Oro yo`l –go`yoki jarohatli to`sh,

*Goh **bitib, ochilib** turguvchi yara.*

Ba`zan antonimlar vositasida yozuvchilar muayyan bir hodisaning o`zidagi ziddlikni nihoyatda o`tkirlashtirib, ta`sirchan qilib ko`rsatadilar. Masalan, shoir Erkin Vohidov “Barcha shodlik senga bo`lsin...” deb boshlanuvchi g`azalida lirik qahramon qalbidagi muhabbat tuyg`usida, sevgilisiga munosabatida, fikrlarida bo`lgan ziddlikni antonimlar vositasida nihoyatda ta`sirli va yorqin qilib ochib beradi:

*Barcha **shodlik** senga bo`lsin,*

*Bor **sitam, zorlik** menga.*

*Barcha **dildorlik** senga-yu,*

*Barcha **xushtorlik** menga.*

Sen mening jonimni olgin,

Men sening darding olay.

*Barcha **sog`lik** senga bo`lsin,*

*Barcha **bemorlik** menga.*

Senga bo`lsin barcha husn-u

Menga bo`lsin barcha ishq.

***Kori xunxorlik** senga-yu,*

***Mehri poydorlik** menga.*

*Bu jahonning **rohatin ol**,*

*Bor **azobin** menga **ber**.*

*Senga bo`lsin barcha **orom**,*

Barcha **bedorlik** menga..
 Ol o`zing **koshonalarni**,
 Menga qo`y **mayxonani**,
 Barcha **hushyorlik** senga-yu,
 Barcha **xummorlik** menga.
 Senga bo`lsin **nurli kunduz**,
 Menga qolsin **qora tun**.
 Barcha **gulshan** senga bo`lsin,
 Bor **tikanzorlik** menga.
 Sen **shahanshohlikni** olgin,
 Menga **qullik** bo`lsa bas.
 Bor **jafokorlik** senga-yu,
 Bor **vafodorlik** menga.
 Mayli ostonangda yotsam,
 Mayli quvsang tosh otib.
 Bor **dilozorlik** senga-yu,
 Bor **dilafgorlik** menga.
 Senga **she`rni bitsin** Erkin
Yirtib otmoq o`z ishing
 Kasbi **inkorlik** sengayu,
 Aybda **iqrorlik** menga.

Bu she`rda ketma-ket kelgan antonimlar lirik qahramon muhabbatining g`oyat teranligini yaqqol tasavvur qilishga imkon beradi. Demak, antonimlar shoir g`oyasining aniq-ravshan yuzaga chiqishiga yo`l ochadi. Misralardagi antonimlarga chuqurroq e`tabor qaratsak, she`rda jami 17 ta antonimik juftlik ishtirok etgan, shundan eng ko`p sakkiztasi yasama: *shodlik- zorlik, dildorlik-xushtorlik, sog`lik-bemorlik, hushyorlik- xummorlik, shahanshohlik-qullik, jafokorlik- vafodorlik, dilozorlik- dilafgorlik, inkorlik- iqrorlik*; ikkitasi tub: *rohat- azob, ol-ber*; to`rttasi tub va yasama: *sitam-shodlik, orom-bedorlik, koshona-mayxona, gulshan-tikanzor*; bitta izofali brikma: *kori xunxorlik-mehri poydorlik*; ikkitasi so`z birikmasi tarzida: *nurli*

*kunduz-qora tun, she`rni bitmoq-yirtib otmoq kabi.* Tahlildan ko`rinib turibdiki, antonimik juftliklarni hosil qilishda morfologik usul eng ko`p foydalaniladigan yo`ldir.

Xalq maqollarida donishmand kishilarning borliq haqidagi qarashlari aks etgan bo`ladi. Ixcham, lo`nda ifodalangan bu fikrlar, asosan, antonimlik asosida vujudga kelgan. Kuzatishlardan ma`lum bo`lishicha aksariyat xalq maqollari antonimik hodisaga misol bo`lmoqda. Masalan,

O`g`rilik ko`zdan boshlanar,

To`g`rilik — so`zdan. (Maqol)

Borlik yumush keltirar, **Yo`qlik** — urush.

Borlik yarashtirar, **Yo`qlik** qarashtirar. (Maqol)

Yaxshi boladan **rahmat**, Yomon boladan — **la`nat**. (Maqol)

Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, antonimiya hodisasi ot guruhida ko`plab uchraydi. Ulardan to`g`ri foydalanish so`zlovchining mahoratiga, nutq vaziyatiga alodor bo`ladi.

3.2. Belgi bildiruvchi so`z turkumlarida antonimiya.

Sifat antonimlar. Antonimlardan ko`pchiligi belgi bildiruvchi so`zlardan, ya`ni sifat va ravish so`z turkumlaridan iboratdir. O`zbek tilidagi antonimlarni leksik ma`no jihatdan asosan 5 turga bo`lish mumkin: 1) kishilarga xos bo`lgan xususiyatlarni ifodalovchi sifat antonimlar; 2) hayvonlarga xos bo`lgan xususiyatlarni ifodalovchi sifat antonimlar; 3) narsalarga xos bo`lgan xususiyatlarni ifodalovchi sifat antonimlar; 4) kishi va narsalar uchun umumiy bo`lgan xususiyatlarni ifodalovchi sifat antonimlar; 5) kishi, hayvon va narsalar uchun umumiy bo`lgan belgilarni bildiruvchi antonimlar.

Bu turlar o`z navbatida bir necha guruhlariga bo`linib, ularning umumiy miqdori 14 dan oshishi mumkin.

1. Kishilarga xos bo`lgan xususiyatlarni ifodalovchi sifat antonimlarni 6 guruhga ajratamiz:

a) kishilarning xarakter-xususiyatini ifodalovchi sifat antonimlar: *saxiy – xasis, tanti – nokas, oq ko`ngil – ichi qora, sodda – ayyor, muloyim – qo`pol, beozor – dilozor, dono – nodon* va shu kabilar;

Dono aql so`rab hormas,

Nodon nozin qilib bormas. (Maqol)

*Ko`zing **qaro** sening, qoshlaring **qaro**,*

*Yuzlaring **oq** sening, kulishlaring **oq**.*

*Qo`lingdagi ta`na toshlaring **qaro**,*

*Menga g`amgin boqib turishlaring **oq**.*

*Unutishing **qaro**, hijroning **qaro**,*

*Sog`inching **oppoqdir**, xatlaring **oppoq**.*

***Qarodir** yurganing o`ch-mehr aro,*

*Menga tashlab ketgan dardlaring **oppoq**. (U.Azim “Grafika”)*

Misralardagi antonim sifatlar rang-tus sifatleri hisoblanadi. Ammo jumla tarkibida o`z manosidan ko`chgan o`rinlar mavjud, ko`z bilan qoshning qora bo`lishi tabiiy, biroq unitishning, hijronning qora bo`lishi badiiylilikni oshirishga xizmat qilib, o`z ma`nosidan ko`chish yuz bergan.

b) kishilarning psixologik holatini ifodalovchi sifat antonimlar: *xursand – xafa, dilxush – dilxun* va shu kabilar;

Partaga bag`rimni berib yig`ladim,

Sukunatga aytdim: «Jon berdi... Kumush...»

Muallim jilmayib meni tingladi,

*Boshimni siladi ham **shod**, ham **xomush**. (U. Azim “Abdulla Qodiriy”)*

d) kishilarda tabiiy ravishda yuz beradigan belgilarni ifodalovchi sifat antonimlar: *yosh – qari, navqiron – mo`ysafid, novcha – pakana, barvasta – pachoq, semiz – ori*q va shu kabilar;

e) kishilarning ijtimoiy va iqtisodiy ahvolini ifodalovchi sifat antonimlar: *g`olib – mag`lub, hokim – mazlum, ozod – asir, boy – kambag`al, badavlat – qashshoq* va shu

kabilar;

Boyning jon bergani bilinmas,

Kambag`alning — non bergani. (Maqol)

f) kishilarning o`zaro munosabatini ifodalovchi sifat antonimlar: *do`st –dushman, ahil – noahil, ittifoq – noittifoq, totuv – it-mushuk* va shu kabilar;

Ko`zlarimga quyosh ko`rinmas.

Raqibimiz zo`r ekan — ayon.

**Do`stim**, senga fido bo`lay, bas,

Sen uchun men topshirayin jon. (A. Suyun “Oqbotir”)

g) kishilarning fiziologik holati bilan bog`liq bo`lgan sifat antonimlar: *zabardast – zaif, kuchli – kuchsiz, sog`lom – kasalmand* va shu kabilar.

2. Hayvonlarga xos bo`lgan xususiyatlarni ifodalovchi antonimlarni ham bir necha guruhga bo`lish mumkin:

a) hayvonlarning xarakter-xususiyatini bildiruvchi sifat antonimlar: *xo`ra – chimxo`r, yuvosh – asov (ot), yuvosh – qopag`on (it), yuvosh –suzag`ich (sigir)* va shu kabilar;

b) hayvonlarning yashash sharoiti va fiziologiyasini bildiruvchi sifat antonimlar: *yovvoyi – xonaki, qisir – bo`g`oz, shoxdor – to`qol* va shu kabilar.

3. Narsalarga xos bo`lgan xususiyatlarni ifodalovchi sifat antonimlarni 3 guruhga bo`lish mumkin:

a) hajm, og`irlik bilan bog`liq bo`lgan sifat antonimlar: *katta – kichik, keng – tor, uzun – qisqa, og`ir – yengil, to`la – bo`sh, ko`p – oz, serob – kam* va shu kabilar;

b) narsalarning xususiyat va holatini bildiruvchi sifat antonimlar: *o`tkir –o`tmas, qalin – yupqa, chuqur – sayoz* va shu kabilar;

d) maza-ta`m bildiruvchi sifat antonimlar: *shirin – achchiq, mazali – be-maza, xushxo`r – badxo`r, xushta`m – belazzat* va shu kabilar.

4. Kishi va hayvonlar uchun umumiy bo`lgan xususiyatlarni ifodalovchi sifat antonimlar 2 guruhga bo`linadi:

a) kishi va hayvonlarning xususiyati, belgisi, o`zaro munosabatini bildiruvchi

sifat antonimlar: *katta – kichik, yuvosh – sho`x, epchil – noshud, sodda – ayyor, to`q – och, yosh – qari* va shu kabilar;

Ne uchun ortimdan uzmayсан qadam,

Uzun-qisqa ko`lanka singari mudom.

Qo`y, taniyman sening ikki yuzingni,

Tilining tagida tili bor odam! (U.Azim “Quloqchiga”)

b) kishi va hayvonlarning fiziologik holatini bildiruvchi sifat antonimlar: *semiz – oriq, kuchli – kuchsiz, sog` – kasal* va shu kabilar.

5. Kishi, hayvon hamda narsalar uchun umumiy bo`lgan belgilarni bildiruvchi antonimlar:

Chiroyli – xunuk so`zlari ham kishilarga, hayvonlarga hamda jonsiz narsalarga xos xususiyatlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

1. Kishilar haqida: *Chiroyli qiz* – ko`zning nuriga nur qo`shadi. (Oybek) Elmurod eshonning *xunuk* basharasini ko`z oldiga keltirib: “Obbo muttaham-ey!” – dedi. (P.Tursun)

2. Hayvonlar haqida: ...manglayiga tumorcha va munchoqlar osilgan *semiz, chiroyli* qora toychani yetaklab “kichkina chavandoz” kirib keldi. Bu Tantiboyvachchaning o`g`li Obidjon edi. (Oybek) Qo`qonboy aka bozordan junlari o`sgan *xunuk* bir sigirni yetaklab keldi. (So`zlashuvdan)

3. Narsalar haqida: (Nuri)... g`oyat *chiroyli*, mo`jaz qopqog`ida brilliantlar yongan oltin soatni olib, tomosha qildi. (Oybek) Yaxshi – *xunuk* libos bilan ham yaxshi. (Maqol)

Sifat so`z turkumi doirasida belgining u yoki bu jihatini bildirishiga ko`ra guruhlanuvchi birliklarga e`tibor qaratsak, quyidagilar ko`zga tashlanadi *Gapirma-gapirma, - dedi O`zbek oyim, - boshda shu marg`ilonliq balosiga o`zing sababchi bo`lg`anmisan, hali ham o`shaning tomonini olib so`zlaysan! Sandek soqoli uzun, aqli qisqadan kengash so`rab o`lturg`an men ham axmoq!* (A.Qodiriy, “O`tkan kunlar” romani).

Antonimik holat yuzaga chiqishida so`zlovchi va tinglovchi munosabatidan tashqari nutqiy vaziyat hamda muloqotda qo`llanilgan zid ma`no ifodalovchi til

birliklari ham muhim o`rin tutadi.

Belgilar shaxs xarakter-xususiyatlarini ifoda etadi. Bunda so`zlovchi yoki yozuvchining nutq qaratilgan shaxsga bo`lgan subyektiv munosabati antonimiyani vujudga keltiradi. Tilimizdagi *botir va qo`rqqoq, aqlli va ahmoq, sahiy va xasis* kabi leksemalar bunga misol bo`la oladi. Aytish mumkinki, sifat doirasida antonimiya ma`za-ta`m bildiruvchi sifatlarda: *achchiq-shirin, sho`r-shirin* kabi; rang bildiruvchi sifatlarda: *oq va qora*; harorat bildiruvchi sifatlarda: *issiq-sovuq*; shakl bildiruvchi sifatlarda: *to`g`ri va egri*; yosh bildiruvchi sifatlarda: *yosh va qari*; hajm bildiruvchi sifatlarda: *katta va kichik, baland va past* kabi ko`rinishlarda amal qiladi. Tilshunos olim Jamolxonov sifat so`z turkumi doirasida antonimiyaning yuzaga kelishi haqida fikr yuritarkan, bu hodisaning ko`lamni bildiruvchi sifatlarda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta`kidlaydi. Olim shunday fikrlaydi: *"Sifat leksemalarda ajratiladigan LSGlardan biri – ko`lam sifatlari. Bu LSGga mansub sifatlar predmetning masofa (oraliq), shakl, hajm jihatiga ko`ra belgisini anglatadi. Oraliq ko`lamini bildiruvchi sifatlar predmet ko`lamining uch jihati – bo`y ko`lami, en ko`lami, yon ko`lamidan birini anglatadi (Misollari quyiroqda). Shakl ko`lamini bildiruvchi sifatlar predmetning ayni vaqtda ikki-en va yon ko`lamini anglatadi: yo`g`on-ingichka kabi. Hajm ko`lamini bildiruvchi sifatlar esa predmetning ayni vaqtda uch - bo`y, en, yon – ko`lamini anglatadi: yapaloq-yassi- kabi. Oraliq (masofa) ko`lamini bildiruvchi sifatlar predmetning: 1) bo`y ko`lamini anglatadi. (Misollari quyiroqda); 2) en ko`lamini anglatadi: keng-tor kabi; 3) yon ko`lamini anglatadi: qalin-yupqa kabi.*

Bo`y ko`lamini bildiruvchi sifatlar o`z navbatida predmetning: a) balandlik ko`lamini anglatadi: *baland-yuksak-novcha - pakana* kabi; b) chuqurlik ko`lamini anglatadi: *chuqur-sayoz* kabi; v) uzunlik ko`lamini anglatadi: *uzoq-olis - yaqin* kabi."⁶¹ Antonimiya hodisasi sifat turkumida keng tarqalgan, ot va fe`llarda bir oz kamroq uchraydi, olmosh va sonlarda esa bo`lmaydi⁶².

**3.3. Harakat bildiruvchi so`zlarda grammatik antonimiya.** Antonimiyada fe`l antonimlar ham kattagina o`rin egallaydi. Jamolxonovning ko`rsatishicha, antonimiya

⁶¹ Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент: Талқин, 2005. Б. 89.

⁶² Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент: Талқин, 2005. Б. 142.

fe'lllarda ancha kuchli tarzda yuz beradi. Bu, asosan, a) qarama-qarshi harakat ma'nolarini ifodalovchi fe'llarda: *bormoq va kelmoq, kirmoq va chiqmoq*; b) sifat yoki ravishdan yasalgan fe'llarda: *kengaymoq va toraymoq, ko'paymoq va ozaymoq, sekinlashmoq va tezlashmoq* kabi.

Ba'zan fe'lning sifatdosh shakli sifat turkumidagi leksema bilan antonimik munosabatlarga kirishishi mumkin: o'qigan va bilimsiz, o'qimagan va bilimli kabi. Fe'l antonimlar asosan quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1) qarama-qarshi tomonga bo'lgan yo'nalishni ifoda qiladi: *kelmoq-ketmoq, bormoq-qaytmoq, kirmoq-chiqmoq, ochmoq-yopmoq*;

Arzon bo'lsa, oluvchidan insof ketar,

Qimmat bo'lsa — sotuvchidan.

2) kishilarning o'zaro aloqasini bildiradi: *olmoq-bermoq, olmoq-sotmoq*;

Olgan mard emas, **Bergan** mard.

Boyning **olari** ko'p, Yo'qning — **berari**.

3) kishilarning ruhiy holatini ifodalaydi: *kulmoq-yig'lamoq, sevinmoq-qayg'urmoq, rohatlanmoq-azoblanmoq*;

Aqlli qizni **yig'latish** ham qiyin, **kuldirish** ham. (Maqol)

Zal **kuldi, yig'ladi** mahoratingdan,

Men ham burchagimda **yig'ladim, kuldim**. (U. Azim "Suflyor monologi")

Nazar Eshonqul ijodida insonlar o'rtasidagi nutqiy muloqot holatlarini ifodalashda to'g'ridan-to'g'ri tasvirlashdan qochish, nutqiy vaziyatlarni muloqotchilarning milliy ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda talqin qilishga intilish kuchli ekanligi sezilib turadi. Masalan, uning "Urush odamlari" qissasida antonimik holatlar ifodalangan quyidagi parchada so'zlovchining samimiy munosabati yaqqol aks etgan:

Pechka atrofida esa kampirlar o'ng tomonda o'tirgan chollar tomon engashgancha qizg'in suhbatga berilgan edilar; gohida chollar shumlik qilib, sekin chimchilab olsa, ular o'shshayib qolgan, ajin bosgan yuzlariga uyalgan tusini berishgancha tillarida "hey, o'l qarib suyulmay, soqoling ostida qolgur", deb tishsiz

og`izlarini ochib hihilar, o`zlari esa cholga yaqinroq surilib o`tirar, xotinlar ham go`yo bu yerga bir-biri bilan chug`urlashish uchun kelishganday edi: goh ajablanganini, goh **xursand** bo`lganini, goh **qayg`urishayotganini** bildirish uchun yuzlarini burishtirib, qoshlarini yozib, yoqalarini **ushlab**, yana **qo`yib yuborishib**, lablarining bir chetidan “cho`lp” yetib tovush chiqarib, hayratlangan bo`lishar, hamishagidek kimlarnidir g`iybat qilishga kirishib ketishgan edi. (N.Eshonqul “Urush odamlari”)

4) kishilarning fiziologik holatini bildiradi: *semirmoq-ozmoq, yosharmoq-keksaymoq*;

5) kishilarning o`zaro munosabatini ifodalaydi: *urishmoq-yarashmoq, ajrashmoq-yarashmoq, eslamoq-unutmoq, salomlashmoq-xayrlashmoq*; Xotindan kuygan Samandar xotinidan ajrashib do`stiga arzi hol qilganida, Tursunali qulay fursat kelganini fahmlab, kayfi oshib chuldirab qolgan oshnasiga Nafisani ro`para qildi. Nafisa yig`ladi, **tarang qildi**, so`ng tayinli bir erga, yana to`g`ri Moskva bilan gaplashadigan olim erga ega bo`lishini anglagach, **ko`ndi...** Xullas, “gilam qo`shniga sotildi”, “bir chekkasida rohat ila o`tirmoq” esa davom etdi. (T.Malik, “Murdalar gapirmaydilar” romani).

6) narsa hajmi va holatidagi o`zgarishni bildiradi: *kengaymoq-toraymoq, kattalashmoq-kichiklashmoq, og`irlashmoq-yengillashmoq, isimoq-sovimoq, tezlamoq-sekinlashmoq* kabilar.

Ilib-ilib, yoz bo`lar,

Sovib-sovib, qish bo`lar. (Maqol)

Fe`l so`z turkumida antonimlik haqida gap ketganda munozarali muammolardan biri fe`llarning bo`lishli-bo`lishsiz shakli antonimlik hosil qiladimi, yo`qmi? Fe`l so`z turkumidagi otlashgan sifat-dosh shakli, bizningcha antonim hosil qiladi, masalan,

**O`qigan** o`zar, **o`qimagan** to`zar. (Maqol) (Bilimli-bilimsiz)

So`ragan bir qizarar, **Bermagan** ikki qizarar. (Maqol)

Tilimizda sifat va ravish antonimlar ko`p uchraydi. Bu antonimlarning ko`pchiligi belgi bildiruvchi so`zlardan ekanligini ko`rsatadi. Binobarin, antonimlar lug`atidagi 1800 dan ortiq antonim juftlikning 1000 dan ortig`i sifat va ravishdan

iboratdir. Yana aytishimiz mumkinki, “O`zbek xalq maqollari” to`plamida 500 da antonimik juftlik mavjudligi aniqlanib, ularda 300 dan ortig`i sifat va ravish so`z turkumiga oid antonimlardir.

Ravish antonimlar. Ravish turkumiga xos antonimlar:

1) holat, tarz ravishlarida antonimlik: *tez-sekin, zo`rg`a-bemalol, birga-alohida, majburan-ixtiyoriy, do`stona-dushmanlarcha, yangicha- eskicha;*

2) payt ravishlarida antonimlik: *avval-keyin, erta-kech, bugun-erta, hamma vaqt-hech vaqt;*

3) miqdor ravishlarida antonimlik: *ko`p-oz, ortiq-kam, zarracha-beadad, to`la-bo`sh;*

4) maqsad ravishlarida antonimlik: *atayin-bilmasdan, jo`rttaga-beixtiyor);*

5) o`rin ravishlarida antonimlik: *nari-ber, u yerda-bu yerda ma`nolarini ifoda qiladi.*

Avval o`yla, **keyin** so`yla.

**U yog`im** bug`doy, **bu yog`im** bug`doy, Qayerga sepaman, xudoy. (Maqol)

Do`st **uzoqda** bo`lsa ham, ko`ngli **yaqin**. (Maqol)

O`zbek tilida antonimlar asosan sifat, ravish, ot va fe`l turkumiga xos so`zlardan hosil bo`ladi. Shu bilan birga, antonimlar leksik ma`noga ega bo`lgan boshqa so`z turkumlaridan, masalan, undovlarda ham bo`lishi mumkin: *ma – pish-pish – pisht* (mushukka nisbatan), *ma – tu-tu – kisht* (tovuq-larga nisbatan), *chu-u – dir-r* (ot va eshakka nisbatan), *mah-mah – cho`h* (sigirga nisbatan) va shu kabilar. Ba`zan *hamma* va *hech kim* kabi olmoshlar ham qarama-qarshi ma`nolarni ifodalaydi. Ammo sifat, ravish, ot va fe`ldan boshqa so`z turkumlarida antonimiya hodisasi ozroq uchragani sababli bu ishda ular haqida alohida-alohida to`xtamaymiz.

Kotekstual antonimlar. O`zbek tilidagi ko`pgina so`zlar to`g`ri ma`nosi bilan ham, ko`chma ma`nosi bilan ham, antonim bo`la olmagan holda, ular nutqda bir-birlari bilan mazmunan zid tushunchalarni anglatib kelishi, qarama-qarshi ma`nolarda qo`llanishi mumkin. Antonimlarning bu guruhi kontekstual antonimlar hisoblanadi. Masalan, *faxr – qahr, o`tkir – past* so`zlari o`zaro to`g`ri va ko`chma ma`nolari bilan

o`zaro antonim bo`la olmaydi yoki antonimik juftlik yasay olmaydi.

Ammo bu so`zlar ayrim gaplar (kontekstlar)da bir-biriga nisbatan qarama-qarshi ma`noda qo`llana oladi:

Ko`zlarida nozik bir o`t bor. U *faxr* o`timi, yo *qahr* o`timi bilib bo`lmaydi.
(M. Ismoilov)

Uning (Umidning) zehni *past* emas, aksincha, serg`ayrat, hozirjavob, fikri *o`tkir* ekanligini o`qituvchilari ham, do`stlari ham bilishardi. (Mirmuhsin) Ayniqsa, “*zehni past*”, “*zehni o`tkir*” kabi birikmalarda *past* – *o`tkir* so`zlari antonimik ma`no kasb etadi. Bunday antonimlar kontekstual antonimlar deb yuritiladi. Ayni paytda sodda yig`iq gap tarkibida qo`llanilayotgan bu juftlikni, bizningcha, sintaktik antonimlar deb hisoblashimiz mumkin.

R.Shukurov “O`zbek tilida antonimlar” (–T.: Fan, 1977. B. 54.) nomli kitobida leksik ma`nolari jihatdan antonim bo`lmasdan, faqat kontekstdagina qarama-qarshi ma`noda ishlatilgan bunday zid ma`noli so`zlarni kontekstual antonimlar deb ataydi

Kontekstual antonimlarni qo`llashda yozuvchi va shoirlarimiz antiteza usulidan foydalanib, nutqning ifodali, ixcham va o`tkirligiga erishadilar. O`zbek tiliga doir ba`zi darsliklarda kontekstual antonimlar haqida ma`lum tushunchalar berib o`tilgan⁶³. Ammo ayrim darsliklarda leksik antonimlar bilan kontekstual antonimlarni farq qilmaslik hollari uchraydi. Masalan, “Ayrim predmetlar qarama-qarshi qo`yilganda shu predmetlarni bildiradigan so`zlar antonim bo`lib keladi.

Ushoq qand oq tuzga monand erur

Va lekin biri *tuz*, biri *qand* erur. (Navoiy)

Ko`rinib turibdiki, bu parchada kontekstual antonimlar (*tuz* bilan *qand*) leksik antonimlarga misol tarzida berilgan. Ba`zi asarlarda *o`t* va *suv* ham antonimlar qatoriga kiritiladi<sup>64</sup>. Biroq *tuz* va *qand*, *o`t* va *suv* so`zlarining leksik ma`nolarida biror zidlik yoki bir-birini inkor qilish ko`rinmaydi. Demak, yuqoridagi kabi asli antonim bo`lmagan so`zlar ayrim kontekstlardagina qarama-qarshi ma`noda qo`llanishi mumkin.

⁶³ Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o`zbek adabiy tili. –T.: O`qituvchi, 1965. B. 145.

⁶⁴ Mutallibov S. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. –T.: O`qituvchi, 1959. B. 198.

Leksik antonimlar bilan kontekstual antonimlarni quyidagi belgilar asosida ajratish mumkin:

a) leksik antonimlar kontekst (soʻz birikmasi yoki gap tarkibi)da ham, kontekstdan tashqarida ham antonimlik xususiyatini saqlagan boʻladi. Kon-tekstual antonimlar esa faqat ayrim kontekstdagina qarama-qarshi maʼnoda qoʻllanib, kontekstdan tashqarida biri ikkinchisini inkor etmaydi. Masalan, taqqoslang: *yaxshi – yomon, baland – past, tuz – qand, oʻt – suv* kabi;

b) leksik antonimik juftlikning har ikki komponenti bir xil soʻz turkumida boʻladi: *katta – kichik (sifat), kun – tun (ot), kelmoq – ketmoq (feʼl)*. Ammo ayrim kontekstlarda turli soʻz turkumiga xos soʻzlar ham qarama-qarshi maʼnolarda ishlatilishi, yaʼni kontekstual antonimlar turli soʻz turkumlaridan ham hosil boʻlishi mumkin. Masalan: Sirtim *butun* boʻlsa ham, ichim *tutun*. (A.Muxtor) Bu gapda sifat turkumiga xos *butun* soʻzi ot soʻz turkumiga xos *tutun* soʻziga qarama-qarshi maʼnoda, yaʼni “*shod, xursand, betashvish*” va “*gʻamgin, qaygʻuli, tashvishli*” maʼnolarida ishlatilgan;

d) ikki sinonim soʻzdan leksik antonim hosil boʻlmaydi, ammo ulardan baʼzan kontekstual antonim hosil boʻlishi mumkin;

e) leksik antonimlar, koʻpincha, soʻzlarning asosiy (bosh) maʼnolaridan, kontekstual antonimlar esa, deyarli hamisha soʻzlarning koʻchma yoki majoziy maʼnolaridan yuzaga keladi. Masalan: Ayol qalbi *tosh* boʻlsa ham, allaqayeri paxtadan *yumshoq*, ipakdek mayin boʻladi. (S.Ahmad) U taqdirga tan berdi, *zahrini* diliga solib, *asalini* tiliga chiqarib kitob magaziniga ishga kirdi. (A.Qahhor);

f) leksik antonimlar shu til soʻzlashuvlari uchun umumiy boʻlgan barqaror hodisa boʻlib, muayyan shaklda uzoq vaqt yashaydi. Masalan, *uzoq – yaqin, yaxshi – yomon* kabi antonimlar bundan bir necha asr avval ham shu shaklda mavjud boʻlgan. Kontekstual antonimlar esa, soʻzlashuvchining nutqdan foydalanish qobiliyatiga bogʻliq holda nutq jarayonida paydo boʻladi. Ular uchun umumiy qolip boʻlmay, tez-tez oʻzgarib turadi. Shuning uchun ham kontekstual antonimlar ilmiy-texnik va rasmiy nutqda emas, balki asosan poeziyada, publitsistikada va ogʻzaki nutqda ishlatiladi.

Oʻgʻri **bekitib** olar, (yashirin)

Qaroqchi **qo`rqitib**. (ochiqchasiga)

Yaxshi hamsoya **guldir**,

Yomon hamsoya **cho`ldir**.

Do`stga **lola** bo`l, Yovga **jala** bo`l.

Jahon shoirlari ey gulshani bog`

Kimi **bulbuldurur**, kimi so`zda **zog`**. (Hushovoz – ovozi xunuk)

“O`zbek xalq maqollari” to`plamidan olingan yuqoridagi misollarni kontekstual (shartli) antonimlarning yorqin namunalari desa bo`ladi. Chunki nutqdan tashqarida *qo`rqitmoq bilan bekitmoq* leksemalarida qarama-qarshilik yo`q, lekin nutq tarkibida mantiqiy zidlik yuzaga keladi.

Umumiy xulosa

Zamonaviy informatsion texnologiyalarning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotning barcha sohalariga kirib kelishi; yoshlarimizning fikrlash tarzi, ma'lumotlarni qabul qilish imkoniyatlarining kengayishi; O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mazmuni asosida jahon talablariga mos keladigan yuqori malakali kadrlar yetkazib bera oladigan ta'lim tizimining joriy qilinishi o'zbek tilshunosligi oldiga ham katta talablar qo'ymoqda: fanning ilmiy-nazariy jihatlarini yanada chuqurroq tadqiq qilish, uning natijalarini amaliyotga yo'naltirishga undamoqda.

Falsafada "qarama-qarshilik" kategoriyasi, mantiqda ziddiyatning ifodasi bo'lgan, barcha tillarda universal qo'llana oladigan, o'zaro inkor munosabatini bildirgan antonimlarni belgilash mezonlari bo'yicha munozarali qarashlar bor. To'g'ri so'zlarning antonimlar deb ataladigan bu guruhi hatto antik dunyo olimlariga ma'lum bo'lgan. Biroq tilning lug'aviy tizimidagi bu hodisa hozirgi kungacha ham nazariy, ham amaliy jihatdan kam o'rganilgan masalalar qatoriga kiritiladi.

Biz mazkur tadqiqotda imkoniyatimiz darajasida rus va o'zbek tillarida antonimik juftliklar tadqiqiga oid ko'pgina ilmiy-nazariy manbalarni o'rganib, badiiy asarlarda zid ma'noli so'zlarning qo'llanilishi holatlarini tahlil qilib, o'zbek tilida antonimlarning leksik-semantik tuzilishi, morfologik xususiyatlari, antonimik juftliklarning semantik munosabati xususida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Tilshunoslikda hozirgacha to'liq o'rganilmagan soha va konverстик munosabatlar muammosiga ham e'tibor tobora ortib bormoqda. Antonimiya tushunchasi ma'lum ma'noda keng semantik korrelyatsiya sinfiga tegishli bo'lib, qarama-qarshilikni hosil qiluvchi manbadir. Bu tushuncha nutqning barcha ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Zid ma'noli so'zlar ifodalaydigan qarama-qarshilikning asosiy qismini belgi va yo'nalishni ifodalovchi so'zlar tashkil qiladi. O'zining shakliga ko'ra bu so'zlar turli ildizli bo'lsa, xususiyatiga ko'ra antonimlarning semantik munosabati mutanosib (*og'ir – yengil*), nomutanosib (*boshlash – to'xtash*) bo'ladi.

2. "Qarama-qarshilik" termini ta'limning turli sohalarida keng qo'llaniladi.

Falsafada “qarama-qarshilik” moddiy olamdagi barcha predmet va hodisalarning mavjud bo`lishi, rivojlanish jarayonida o`zaro bog`liq, bir-birini taqozo qiladigan, birisiz ikkinchisi mavjud bo`la olmaydigan ziddiyatli tomonlar birligini ifodalovchi falsafiy kategoriya sifatida tushuniladi. Mantiq fanida esa bu atama dialektik ziddiyatdagi kategoriyani anglatib, o`zaro inkor etuvchilar o`rtasidagi munosabatni bildiradi. Tilda “qarama-qarshilik” antonim va konversiyalarda o`z aksini topadi. Antonimiya qarama-qarshi ma`noga ega bo`lgan leksik birliklarning semantik munosabatidir.

3. Antonimlar faqat turli o`zakli so`zlardan emas, balki bir xil o`zakli so`zlardan ham yasaladi. Bunday antonimlar asosan sifat kategoriyasiga xos bo`lib, ularning ko`pi **-li, -siz, bo-, be-, no-** kabi yasovchi affiks (suffiks va prefiks)lar, tabiiy, ilmiy, harakat tipidagi asli arabcha sifatlarga **-g`ayri, -aksil** kabi elementlar qo`shish yo`li bilan hosil bo`ladi. Baynalminal so`zlar doirasida ot va sifatlarga **-anti, -an** kabi prefikslar qo`shish bilan ham zid ma`noli so`zlar hosil qilinadi: *fashist – antifashist, organik – anorganik* kabi.

4. Ba`zi asarlarda **-li, -siz** affikslari vositasida antonimlar hosil bo`lishi ta`kidlangan bo`lishiga qaramasdan, keyingi ayrim asarlarda bunday affikslar vositasida antonimlar yasalishi inkor etiladi.

Kuzatishlarimiz **-li, -siz** affikslari vositasida ham antonimlar yasalishi mumkinligini ko`rsatdi. Bu ishda **-li, -siz** affikslari vositasida yasalgan sifatlar qay hollarda antonimlar yasashi mumkinligini ko`rsatuvchi mezonlarni belgilashga harakat qildik.

5. Nutq jarayonida bir-biriga qarama-qarshi ma`noda ishlatilishi mumkin bo`lgan har qanday so`zlar ham antonim bo`lavermaydi. Masalan, ayrim tilshunoslar antonim hisoblab kelgan *ota – ona, aka – uka* kabi qarindoshlik nomlari, *o`qidi – o`qimadi* kabi fe`lning bo`lishli va bo`lishsiz shakllari antonim bo`lolmaydi. Chunki *aka – uka* tipidagi otlar bir-birini inkor etmaydigan, bir vaqtda parallel mavjud bo`lishi mumkin bo`lgan predmetlarni bildiradi. Shuningdek, *o`qidi – o`qimadi* tipidagi fe`llar bir-biriga qarama-qarshi yo`nalmagan harakatni bildiradi.

6. Ko`pgina so`zlarning antonimik darajasini belgilashda *mantiqiy markaz* deb

atalgan qoida katta yordam beradi. Ma'lumki, antonimlar bir-biriga qarama-qarshi turadigan ikki qutbdagi tushunchalarni bildiradi, binobarin, bu ikki qarama-qarshi qutb orasida qandaydir bir *oraliq hodisa (tushuncha)* – *mantiqiy markaz* bo'lishi kerak. Masalan, *(juda) yaxshi* – *(juda) yomon* o'rtalig'ida *o'rta, qoniqarli* kabi tushuncha, *chap* – *o'ng* oralig'ida *o'rta, to'g'ri* kabi, *pastlik* yoki *chuqurlik (jarlik)* bilan *balandlik* yoki *do'nglik, tepalik* kabi tushunchalar markazida tekislik tushunchalari mavjud. Bu qoidaga ko'ra *qish* – *bahor, yoz* – *kuz* kabi yonma-yon yoki birin-ketin keladigan hodisalarning nomi emas, balki ularning har birida teng uzoqlikdagi tushunchalarni bildiradigan nomlar o'zaro antonim bo'lishi mumkin. Masalan, *qish* va *yoq, bahor* va *kuz* so'zlari bir-biriga nisbatan antonim bo'ladi. Chunki bu fasllar orasida keladigan fasllarning nomlari ularga nisbatan *mantiqiy markaz* vazifasini o'taydi.

Issiq – *sovuq, uzoq* – *yaqin, ochmoq* – *yopmoq* kabi ayrim antonimlarda mantiqiy markaz reallashmagan bo'ladi. Biroq bunday antonimik juftliklarni atroflicha, chuqurroq o'rganish tufayli ularda ham *mantiqiy markaz* mavjudligini aniqlash mumkin. *Mantiqiy markazni* topish mumkin bo'lmagan hollarda, so'zlarning antonimligi ularning boshqa umumiy belgilari asosida aniqlanadi.

7. Antonimlarning morfologik qurilishi ancha murakkab bo'lib, ularni hosil qilishda faqat tub yoki yasama so'zlarga emas, qo'shma, juft va takroriy so'zlar, shuningdek, frazeologik iboralar ham ishtirok etadi. Antonimlar hosil qilishda hamma leksik birliklarning qatnasha olishi antonimlarni tahlil qilishda faqat *azob* – *rohat, boadab* – *beadab* kabi tub-tub, yasama-yasama kabi antonimlar bilan cheklanmasdan, balki tub-yasama, tub-qo'shma, tub-juft, tub-takroriy, tub-frazeologik iboralar (*botir* – *chumchuq pirr etsa yuragi shirr etadigan*) singari antonimik juftliklarni ham ko'zda tutish lozimligini taqozo qiladi.

Antonimik juftlikni hosil qilishda barcha leksik va frazeologik birliklarning ishtirok eta olishi o'zbek tilining antonimlarga g'oyat boy ekanligini ko'rsatadi.

8. Ba'zi asarlarda to'la antonimlar o'z sinonimiga ega bo'lmagan yakka ma'noli so'zlardan hosil bo'ladi deb ko'rsatilgan edi. Mavjud materiallarni o'rganish *ta'sirli* – *ta'sirsiz, baxtli* – *baxtsiz* kabi ko'p ma'noli so'zlar sinonimi bo'lish-bo'lmasligidan

qati`y nazar to`la antonim bo`la olishini ko`rsatdi.

9. Antonimiya hodisasi, boshqa til hodisalari kabi o`ziga yaqin hodisalar bilan, ayniqsa, sinonimiya hodisasi bilan yaqin bog`langan bo`ladi. Antonim hosil qiluvchi so`zlarning o`zini o`rganish bilan cheklanmasdan, bunday so`zlarning sinonimlari bilan taqqoslab o`rganish tilda antonimik juftliklardan tashqari, antonimik guruhlar ham mavjudligini ko`rsatdi.

Ma`no jihatdan ikki qarama-qarshi sinonimik qator (yoki to`p)dagi so`zlar qarshi to`dadagi har bir so`z bilan, ayniqsa, dominant so`z bilan antonimik munosabatga kirisha olgan taqdirdagina ular antonimik guruh tarkibiga kira oladi.

10. Antonimlar mavzusiga oid tadqiqotlarda ham zid ma`noli so`zlarning bosh qismida ifodalangan ma`nolar nazarda tutilgan. Shu bois ishda antonimik juftliklarni leksik ma`no jihatdan tasniflab, kontekstual antonimlar, zid ma`noli so`zlarning o`zaro semantik munosabatini chuqurroq o`rganishga yordam beruvchi ko`p ma`nolilik va shakldoshlik munosabatlarini aniq misollar asosida yoritishga harakat qildik.

11. Biz so`zlarning barcha ma`nolari bilan bir-biriga nisbatan antonimik munosabatga kirisha olish yoki kirisha olmasligiga qarab, ularni to`la va to`liqsiz antonimlarga, shuningdek, o`zbek tilida bu guruhlardagi antonimlarni simmetrik va nosimmetrik antonimlarga ajratishga harakat qildik.

12. O`zbek tilida antonimik juftliklar va unga bog`liq masalalar kam o`rganilganligini hisobga olib, antonimlarning morfologik xususiyatlari, leksik-semantik munosabatlari atroflicha o`rganilgan mazkur magistrlik dissertatsiyasi kelgusida shu yo`nalishda olib boriladigan ilmiy-nazariy tadqiqotlarda, seminar mashg`ulotlari uchun matnlar tayyorlashda, uslubiy qo`llanmalar va lug`atlar tuzishda nazariy manba vazifasini o`tashi mumkin. Bu esa ushbu magistrlik dissertatsiyasi oldiga qo`yilgan vazifalarning to`la o`talishining isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. Dasturiy adabiyotlar

1. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1998.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Тошкент: Ўзбекистон, 2011.

II. Ilmiy adabiyotlar

1. Ўзбек тили грамматикаси. II том. Морфология. –Тошкент: Фан, 1975.
2. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo`raboyeva Z. Ona tili. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. –Toshkent: Ma`naviyat, 2011.
3. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Akademik litseylarning 2-bosqich talabalari uchun darslik. –Toshkent: Ilm Ziyo, 2010.
4. Абдуазизов А. Тилшунослик назариясига кириш. –Тошкент: Шарқ, 2010.
5. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. –Токент: Ўқитувчи, 1992.
6. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
7. Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. –Тошкент: Фан, 1977.
8. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент, 2006.
9. Искандарова Ш. Тиилшунослик назарияси фанидан муаммоли маърузалар матни. –Фарғона, 2003.
10. Сайфуллаева Р., Қурбонова М., Менглиев Б., Боқиева Г. Ҳозирги ўзбек тили. (Кириш, Фонетика-фонология, Графика, Талаффуз ва имло, Лексикология, Фразеология, Лексикография). Дарслик. –Тошкент, 2005.
11. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Талқин, 2005.
12. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

III. Manbalar

1. Ўзбек халқ мақоллари. –Тошкент: Шарқ, 2005.
2. Орипов А. Танланган асарлар. –Тошкент: Шарқ, 2010.

IV. Lug`atlar

1. Рахматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
2. Фалсафа. Қомусий луғат. Қ. Назаров таҳрири остида. –Тошкент: Шарқ, 2004.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. –Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2006.
4. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2000.
6. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1974.
7. Ruscha-o`zbekcha lug`at. 2 tomlik. –Т.: O`SE Bosh Redaksiyasi, 1983. 1-tom. – 682 b., 2-tom. –797 b.

Asosiy adabiyotlar

1. Рахматуллаев Ш.У. Архаизм ва историзм. //Научные труды. -ТашГУ. Вып. 211, 1963.
2. Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. –Тошкент: Фан, 1982.
3. Абдуазизов А. Қиёсий-типологик тилшунослик ва таржимашунослик: натижа ва истиқболлар. //Қиёсий тилшунослик ва таржима назарияси муаммолари. –Тошкент: ЎЗМУ, 2007.
4. Апресян Й.Д. Лексическая семантика. –Москва, 1974.
5. Балли Ш. Франсуз стилистикаси (сўзлашув тил ва бетакаллуф нутқ). Франсуз тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2009.
6. Эргашева М. Ҳаракат ифодаловчи феълларнинг семантик таснифи. //Тил ва адабиёт таълими. –Тошкент: 2000. -№ 2. Б. 25-26.

7. Ишаев А. Шаклдош антонимларга оид этюдлар. //Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1967. №1. Б. 38-41.
8. Ключева В.Н. Проблема антонимов. //Учение записки МГПИ иностранных языков. –Москва: 1956.
9. Мамасолиев И.У. Види антонимических групп в узбекском языке. //Международный научный журнал. –Россия: Саратов, 2004.
10. Мамасолиев И.У. Антонимия в частеречном аспекте в русском и узбекском языках. //Вестник Санкт-Петербургского государственного университета. Сер. 9. –Санкт-Петербург: 2010. -вип. 4.
11. Муталлибов С. Антоним сўзлар. //Совет мактаби. –Тошкент, 1955. № 4.
12. Шомақсудов А. Ўзбек тили стилистикаси. I-II қисм. –Тошкент, 1974.
13. Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. –Тошкент: Фан, 1981.
14. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент, 1985.
15. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – систем лексикология ва тарихийлик. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
16. Бобоева С. Ҳамид Олимжон поэзиясининг лексик хусусиятлари. –Тошкент: Фан, 1989.
17. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: Филол. фан. ном... дисс. – Тошкент, 2000.
18. Боймирзаева С.У. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Филол.фан.ном... дисс. –Тошкент, 2004.
19. Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. –Тошкент: Ўзадабийнашр, 1962.
20. Самадов Қ. Ойбекнинг тил маҳорати. –Тошкент, 1981.
21. Қўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. –Тошкент, 1975.
22. Умурқулов Б. Бадиий адабиётда сўз. –Тошкент: Фан, 1993.
23. Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии): Дисс... док. филол.наук. – Ташкент, 1992.

24. Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. док... дисс. автореф. –Тошкент, 2009.
25. Йўлдошев Б., Пардаев З., Бобожонов Ф. Бадиий асар тили масалалари. – Навоий: Навоий ДПИ, 2001.
26. Йўлдошев Б. Бадиий нутқ стилистикаси. –Самарқанд: СамДУ, 1982.
27. Йўлдошев Б. Ижодкор захмати (ёзувчи Саид Аҳмад 85 ёшда). //Тил ва адабиёт таълими, 2005, 3-сон.
28. Ҳасанов А.А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол. фанлари номз...дисс. автореф. –Тошкент, 2010.
29. Нурмонов А., Мадвалиев А., Маҳкамов Н. Мустақиллик даврида ўзбек тилшунослиги тараққиёти. //Ўзбек тили ва адабиёти, 2011, 3-сон.
30. Бараксин Л.А. Однокорневие профексалние глаголи-антоними в современном русском языке. –Куйбишев, АКД., 1968.
31. Введенская Л.А. Словар антонимов русского языка. –Ростав: Изд. Ростовского университета, 1971.
32. Мусин Ж. Антоними в казахском языке. АКД. –Алма-Ата, 1970.
33. Талибов К.А. Антоними в современном азербайджанском языке. АКД. – Баку, 1971.
34. Исабеков Б. Лексическая антонимия в современном узбекском языке. АКД. – Ташкент, 1973.
35. Абузалова М., Назарова С. Систем тилшунослик асослари. –Бухоро, 2008.
36. Холманова З.Т. Тилшуносликка кириш. –Тошкент: Университет, 2007.
37. Аширбоев С., Раҳматов М. Ўзбек адабий тили тарихи. –Тошкент, 2003.
38. Бегматов Э. Ҳозирги узбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Фан, 1985.
39. Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. –Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
40. Лукина Г.Н. Синоними и антоними в пределах лексико-семантической групп ислов. Лексикографический сборник, вып. VI. –Москва, 1963.

41. Крючков В.Ф., Чешко Л.А. Синоними и антоними пасобийе для занятий по русскому языку в старших классах школы. –Москва, 1964.
42. Ҳақимов М.Х. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. Фан .н-ди ...дисс. –Тошкент, 1993.
43. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матнининг прагматик талқини: филол. фан. докт. дисс. автореферати. –Тошкент, 2001.
44. Маҳмудов Н. Нутқ маданияти ва тилнинг эстетик вазифаси. // Филология масалалари. 2006. N2 (11) Б.
45. Турсунов У., Ражабов Н. Ўзбек тили лексикасининг баъзи масалалари. – Самарқанд, 1971.
46. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. –Тошкент, 1975.
47. Абдуллаева Л. Лексическая стилистика узбекской художественной литературы.
48. Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. –Тошкент, 1982.
49. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Тошкент, 1983.
50. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент, 1985.
51. Умурқулов Б. Сўз танлаш санъати. –Тошкент, 1985.
52. Рустамов А. Сўз ҳақида сўз. –Тошкент, 1987.
53. Ахмедов А. Лексика поэзии Фурката. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1961.
54. Чарыев Б. Некоторые вопросы лексики поэзии Гафура Гуляма. Автореф. дис... канд. филол. наук. –Ташкент, 1972.
55. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
56. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. –Тошкент: Фан. 1977.
57. Бегматов Э.,Бобоева А.,Асомиддинова М.,Умурқулов Б. Ўзбек нутқи маданияти очерклари. –Тошкент: Фан, 1988.
58. Одилов Ё. Сўзнинг қарама-қарши маънолари. //Ўзбек тили ва адабиёти. 1993, 6-сон.

59. Новиков Л. А. Антонимия в русском языке (Семантический анализ противоположности в лексике). –М., 1973.
60. Прохорова В. Н. Энантиосемия в современном русском языке (о причинах и условиях возникновения и функционирования слов с противоположными значениями) //Вопросы русского языкознания. Вып. 1. -М., 1976.
61. Горелов И. Н. Энантиосемия как столкновение противоречивых тенденций языкового развития. //Вопросы языкознания. –М., 1986. №4.
62. Келдиёрова Г.С. Ўзбек бадийи нутқида антитеза. Филол. фанлари номзоди... дисс. –Тошкент, 2000.

V. Internet saytlari

1. www.prorector.org.
2. www.dslib.Net
3. www.dis.com
4. stats.wordpress.com...
5. Classes.ru

MUNDARIJA

Ishning umumiy tavsifi (mavzuning dolzarbligi, o`rganilgan darajasi, ilmiy yangiligi, ob`yekti va predmeti, metodologik asosi, metodlari, himoyaga olib chiqiladigan holatlar, tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqotning kafedra bilan bog`langanligi va boshqalar.).....	3
I BOB. O`zbek tilida antonimlarni o`rganish tarixidan	11
1-§. Leksikografik manbalarda antonimlarning ta`rifi.....	11
2-§. Antonimik munosabatni aniqlash va mantiqiy markaz tushunchasi.....	22
3-§. Umum ta`lim maktablari “Ona tili” darsliklari va oliy ta`lim darslik hamda qo`llanmalarida antonimlar talqini.....	25
Bob bo`yicha xulosa.....	35
II BOB. Hozirgi o`zbek tilida grammatik antonimiya	37
2.1. Ziddiyat nazariy tadqiqot ob`yekti sifatida.....	37
2.2 §. Morfologik antonimiya.....	41
2.3. §. Sintaktik antonimiya.....	50
Bob bo`yicha xulosa.....	64
III BOB. So`z turkumlari sathida antonimiya hodisasi	66
3.1. Ot guruhida grammatik antonimiya.....	67
3.2. Belgi bildiruvchi so`zlarda grammatik antonimiya.....	72
3.3. Harakat bildiruvchi so`zlarda grammatik antonimiya.....	76
Umumiy xulosa	83
Foydalaniladigan adabiyotlar	87